

**XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

AKBAR ZAMONOV

**TARIX FANIDAN
OLIMPIADAGA TAYYORLANAMIZ**

(olimpiada ishtirokchilari uchun o‘quv qo‘llanma)

- me’moriy inshootlar
- davlatlar
- Prezident asarlari
- testlar

Toshkent - 2012

Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi qoshidagi tarix fani fani ilmiy metodik kengashining 2010-yil 16-may qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir: Tarix fanlari doktori, professor O‘. M. Mavlonov

Taqrizchilar:

Nuriddinov E.Z.

– Nizomiy nomidagi TDPU “Xorijiy mamlakatlar tarixi kafedrasi” professori, tarix fanlari doktori;

Tillaboyev S.B.

– O‘z FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi;

Ismatova N.Q.

– Respublika ta’lim markazi “Ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar” bo‘limi boshlig‘i;

Matxoliqov Q.A

TSHPKQTMOI “Ijtimoiy fanlar va ma’naviyat asoslari” kafedrasi o’qituvchisi, tarix fanlari nomzodi;

Norqobilov T.X.

– O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz yetakchi mutaxassis;

Roziqov O.O.

– Buxoro viloyati Vobkent pedagogika kolleji katta o’qituvchisi;

Egamberdiyeva Sh.R.

– Qashqadaryo viloyati Koson tumani 95-ixtisoslashtirilgan maktab direktori.

So'z boshi

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha olimpiadalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-sonli qarori asosida iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash, noyob fazilatlarini yanada rivojlantirish, ularni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, umumta'lim fanlaridan o'tkaziladigan xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi Respublika jamoasi a'zolarini tanlash maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda o'tkazib kelinmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari (shu jumladan, ayrim fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar) hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazishning asosiy maqsadi o'quvchi yoshlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, o'zлari tanlagan fanlar va ixtisosliklarni chuqur o'rganishga qiziqishni oshirish, ularning kelajakdagi kasblarni to'g'ri tanlashga ko'maklashish, o'quv-tarbiya jarayonini, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish, ular tomonidan qobiliyatli o'quvchilar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan yakka tartibdagi ishlarni olib borish, munosib taqdirlash, ijodiy qobiliyatlarning ro'yobga chiqishiga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar hamda mazkur "Nizom" talablari asosida ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo'lishini ta'minlash, fan o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni aniqlash hamda tarbiyalashga qaratilgan ijodiy izlanishlari va mehnatini ro'yobga chiqarish, qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, tarbiyalash, rag'batlantirish va kamolotga yetkazish jarayonida ta'lim muassasasi, ota-onalar va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, fan olimpiadalarining g'oliblari orasidan xalqaro fan olimpiadalarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qiladigan o'quvchilarni aniqlash hamda fanlar bo'yicha Respublika terma jamoasiga nomzodlar tarkibini shakllantirishdan iboratdir.

Xususan, tarix fani bo'yicha o'tkazilayotgan fan olimpiadalar ishtirokchi o'quvchilarni izlanishga, tinimsiz mehnat qilishga, darsliklardan tashqari, qo'shimcha manbalarni o'qishga undamoqda. Tarix fanidan iqtidori yuqori bo'lgan o'quvchilarning raqobati so'nggi yillarda olimpiada topshiriqlarining ham bir oz keng qamrovliroq, murakkabroq qilinishiga sabab bo'lmoqda. Bunday raqobat muhiti ayrim qatnashchilarning har xil yo'nalishda ijodiy tayyorgarligini keltirib chiqaradi. Ularning tayyorgarlik jarayonida ayrim tushunarsiz savollarga, ikkilanishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Tarix fanidan olimpiadaga tayyorlanamiz" nomli ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma yaratildi. Qo'llanmada aynan tarix fani olimpiadasi qatnashchilariga

beriladigan toqshiriqlarning qanday bajarilishi, yozma ish va test topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan namunalar, foydalanish uchun qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Ushbu qo‘llanmadan foydalanish natijasida o‘quvchilarda jahon va O‘zbekiston tarixining davrlari, ijtimoiy tuzumlari, davlatlari, ularning nomlanishi, hukmdorlari va ularning faoliyati haqida;

- asr va yil hisobini aniqlash, tarixiy voqeа-hodisalarning davomiyligi, ularning qaysi davrga mosligi, hijriy, milodiy va miloddan avvalgi yillarni hisoblash haqida;
- jahon va O‘zbekiston tarixida mavjud bo‘lgan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida;
- jahon tarixida O‘zbekiston tarixining tutgan o‘ziga xos o‘rni haqida;
- O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy obidalari, ularning qurilish tarixi, uslubi va qurdirgan shaxslar haqida;
- Prezident Islom Karimov asarlari va ma’ruzalarini, ularning mazmuni va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ahamiyati haqida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Ishonchimiz komilki, o‘z kasbiga fidoiy tarix fani o‘qituvchilar, fan olimpiadasida qatnashib yuqori sovrinli o‘rinlarni olishga ishtiyоqi baland o‘quvchilar va abiturentlikdan talaba bo‘lishga intilayotganlarga, albatta, ushbu qo‘llanma madadkor bo‘ladi.

Turg‘un Zamonov
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog‘ tumani 77-maktab direktori,
pedagogika fanlari nomzodi.

Tarix fanidan olimpiadaning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichi 9-sinflarda o'tkaziladi. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda birinchi bosqich 1-3 kurslar o'rtasida, uchinchi bosqich 2-3 kurslarda o'tkaziladi. To'rtinchi bosqich (respublika bosqichi) kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning 3-kurs talabalari va umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkaziladi.

Olimpiadaning birinchi bosqichi 1 turda (test sinovlari), ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi bosqichlari 2 turda o'tkaziladi (2-turda yozma ish) va 180 daqiqa vaqt beriladi. Maksimal 100 ball bilan baholanadi: yozma ish uchun – 50, test uchun – 50 ball).

YOZMA ISHNI YOZISH TAMOYILLARI VA MEZONLARI

Tarix fani olimpiadasining baholash mezonlari

Yozma ish topshiriqlarini tayyorlovchi tarixchi mutaxassislar nimalarga e'tibor berishi kerak? Hozirgi kunda ishtirokchi o'quvchilarga qo'yilayotgan talab yoqori va uni to'laqonli bajarish uchun tarixiy asarlar va manbalarda saqlangan ma'lumotlar kamlik qiladi. Shu nuqtai nazardan, ishtirokchining iqtidori bilan bir qatorda uning yosh xususiyati ham e'tiborga olinmog'i lozim. 15-18 yoshdagi o'quvchi (iqtidorli o'quvchi) darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishi joizligi to'g'ri, lekin unga tarixchi olimga qo'yilagan talabni qo'yib bo'lmaydi.

Shu nuqtai nazardan, quyida keltirilgan olimpiadaning baholash mezonlari topshiriq tayyorlovchi uchun dastur bo'lib xizmat qilishi kerak. Chunki, O'zbekiston hududida bunyod etilgan ayrim me'moriy inshootlarning tarixini talab etilgan 15 ta mezon asosida yoritish mumkin emas (ayrimlarining qurilgan yili, qurdirgan shaxsi, qurilgan davri ma'lum emas yoki ayrimlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan, bundan tashqari, "Me'moriy obidaga O'zbekiston hukumati yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaratilayotgan e'tiborni yoritish" talabi barcha inshootga ham to'g'ri kelavermaydi. Chunki O'zbekiston tarixidagi ayrim inshootlar mamlakatimiz hududida joylashmagan. Masalan, To'rabexonim, Ahmad Yassaviy maqbaralari va h.k.). Qolgan ikkita topshiriq (davlat tarixi va Prezident asari) ham shu asosda tuzilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Yozma ish uchta savoldan iborat bo'ladi va maksimal 50 ball bilan baholanadi.

1-savol: O'zbekistonning tarixiy-me'moriy obidalari haqida beriladi.

Masalan: Bibixonim masjidi.

Ushbu topshiriq bo'yicha ishtirokchining javobi quyidagi tartib asosida baholanadi:

№	Baholash mezoni	ball
1	Tarixiy obidaning kim tomonidan bunyod etilganligini (homiylik qilganligini) bilish	1

2	Tarixiy obidani qurdirgan (homiylik qilgan) shaxs haqida ma'lumot berish	1
3	Me'moriy obidaning bunyod etilgan davri yoki sanasini bilish	1
4	Me'moriy obidaning qurilgan geografik joyini bilish	1
5	Me'moriy obida qaysi tarixiy davrga mansubligini bilish	1
6	Me'moriy obidaning nima munosabat bilan qurilganligini bilish	1
7	Me'moriy obida bunyod etilgan davrda hukmronlik qilgan sulolani bilish	1
8	Me'moriy obidaning qurilishida ishlatilgan ashyolarni bilish	1
9	Me'moriy obidaning tashqi va ichki ko'rinishlarini yoritish	1
10	Me'moriy obidaning uslubini yoritish	1
11	Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish	1
12	Me'moriy obidaning bugungacha bo'lgan holatlari va hozirgi holati haqida ma'lumot berish	1
13	Me'moriy obidaga O'zbekiston hukumati yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaratilayotgan e'tiborni yoritish	1
14	Me'moriy inshootning qanday vazifalarni bajarganligini yoritish	1
15	Tarixiy atamalardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish	1
	Jami:	15

2-savol: Tarixdagi biror-bir (jahon tarixi va O'zbekiston tarixidagi) davlatga oid savol beriladi. Masalan: G'aznaviylar davlati.

Ushbu topshiriq bo'yicha ishtirokchilarining javoblari quyidagicha baholanadi.

№	Baholash mezoni	ball
1	Davlatning (yashagan) tarixiy davri yoki sanasini bilish	1
2	Davlatning hududi yoki chegaralarini bilish	1
3	Davlat poytaxti (yoki poytaxtlari) haqida ma'lumot berish	1
4	Davlatning asoschisini bilish	1
5	Davlatning tashkil topish shart-sharoitlarini bilish	1
6	Davlatda hukmronlik qilgan sulola yoki sulolalar nomini bilish	1
7	Davlatda hukmronlik qilgan davlat boshliqlarini bilish	1
8	Davlat boshliqlarining hukmronlik qilgan yillarini yoki davrlarini bilish	1
9	Davlat boshliqlarining shaxsiy fazilatlari haqida ma'lumot berish	1
10	Davlatning ijtimoiy ahvolini bilish	1
11	Davlatning iqtisodiy ahvolini bilish	1
12	Davlatda mayjud bo'lgan din yoki dinlar haqida ma'lumot berish	1
13	Davlatning boshqaruв tizimini bilish	1
14	Davlatning tuzilish shakli haqida ma'lumot berish	1
15	Davlatdagи madaniy hayot haqida ma'lumot berish	1
16	Davlat hududida yashab faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxslar haqida ma'lumot berish	1
17	Davlatning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarini bilish	1

18	Davlatning harbiy holati haqida ma’lumot berish	1
19	Davlat boshliqlarining amalga oshirgan ishlari yoki islohotlari haqida ma’lumot berish	1
20	Davlatni o‘rganishga oid tarixiy asarlar yoki manbalar haqida ma’lumot berish	1
21	Davlatda ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishi haqida ma’lumot berish	1
22	Davlatning o‘ziga xos (o‘z davridagi boshqa davlatlardan farqli) tomonlari haqida ma’lumot berish	1
23	Davlatning insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni haqida ma’lumot berish	1
24	Tarixiy sanalarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash	1
25	Tarixiy atamalardan o‘z o‘rnida foydalanish	1
	Jami:	25

3-savol: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ma’ruzalari yoki asarlaridan beriladi. Masalan: “Asosiy maqsadimiz – iqtisodiy yuksalishga erishishdir”.

Ishtirokchilarning javobi quyidagi mezon asosida baholanadi:


№	Baholash mezoni	ball
1	Asarning yozilgan yoki ma’ruzaning so‘zlangan sanasini bilish	1
2	Asarni nashr qilgan nashriyot yoki ma’ruza so‘zlangan joyni bilish	1
3	Asar yoki ma’ruzaning bosh g‘oyasini bilish	1
4	Asarning yozilishidagi yoki ma’ruzaning so‘zlanishidagi tarixiy sharoitni bilish	1
5	Asarning mazmuni haqida qisqacha ma’lumot berish	1
6	Asarda ko‘rsatilgan g‘oyani jamiyatning iqtisodiy hayoti bilan bog‘lay olish	1
7	Asarda ko‘rsatilgan g‘oyani jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan bog‘lay olish	1
8	Asarda ko‘rsatilgan g‘oyani jamiyatning siyosiy hayoti bilan bog‘lay olish	1
9	Asarda ko‘rsatilgan g‘oyalarning hayotiyligini misollarda keltirish	1
10	Asarda keltirilgan atamalarni izohlay olish	1
	Jami:	10

1-turda yozma ish yoziladi. Yozma ishni yozishda (me’moriy inshoot, biror-bir davlat va Prezident asari) baholash mezonda keltirilgan meyorlar aynan ketma-ketlikda bo‘lishi shart emas. Voqeа-hodisa mazmunan ketma-ketlikda bo‘lishi bilan birga mezonda keltirilgan barcha bandlarni o‘zida ifoda etsa, maqsadga erishilgan bo‘ladi.

ME'MORIY INSHOOT TARIXINI YOZISH BO'YICHA NAMUNA

BUXORO ME'MORCHILIGI

Ark qal'asi



Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniylar sulolasiga davrida ansambl holiga kelgan.

Ark qal'asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog'liqdir. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand

podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda – Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to'xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'ldirilganidan keyin Buxoroning Sharq darvozasi yonida ko'milgan degan rivoyatlar bor.

VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O'sha davrda ark oldida katta maydon – registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'onlari bo'lган. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar – shahriston joylashgan.

Ko'plab me'moriy yodgorliklarni o'zida jamuljam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko'p sonli xizmatchilar yashaganlar. Ark qal'asida hukmdorlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar-joy binolari bunyod etilgan.

Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani – rabot qurshab turgan.

Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom singari ulug' insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to'g'risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: "Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko'rmaganman va umrimda boshqa ko'rmadim ham. Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning o'z fani bo'yicha o'rmini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kitobxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas", degan ma'lumotlar bor.

Ark qal'asi to'g'risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899-939-yillar) "Buxoro tarixi" kitobida ham uchraydi. Buxoro podshosi Bidun bu qal'anini

qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqni ko‘ra biladigan dono kishilarni chaqiradi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal’asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma’lumotlar bor.

Ark qal’asi yer ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m cha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan noto‘g‘ri to‘rtburchak shakliga ega. Janubi-sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimiy va hamisha navqiron Buxoro shahrining g‘arb tomonida joylashgan. Qal’a devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi.

Ark qal’asi bir necha marta ta’mirlangan va qayta qurilgan. Ko‘tarila boruvchi yo‘l (pandus) orqali arkning g‘arb tomonidan ulkan yog‘och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o‘ralgan.

Ark qal’asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar – “guldastalar” konstruksiyasi va ular oralig‘idagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon – yo‘lakning chap devorida 12 ta va o‘ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomonagi tokchalarning ba’zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.

“Guldasta”lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto‘la – kanaxonalar bo‘lgan. Dolonning o‘ng tomonidagi o‘rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvohiga Navro‘z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo‘lgan).

Dolondan chiqaverishda to‘pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto‘lada esa qynoqxona bo‘lgan. Undan sal narida (g‘arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur‘on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan.

Ark qal’asining shimoli-g‘arb burchagida to‘pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zerb qiladigan xona) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo‘lgan (ba’zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo‘lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan.

Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli – ko‘rinishxona o‘rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o‘tirish marosimlari o‘tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o‘ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo‘lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo‘g‘onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan.

Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto‘lalar bo‘lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g‘arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan.


Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning Sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan.

Arkning markazida o'rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtarxona – amir haramidagi qizlar uylari o'rashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Battol g'ozi mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'yab g'ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o'q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20%ni saqlangan. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan. Ark ansambl mustaqillik yillarida so'nggi bor restavratsiya qilingan.

Agar Buxoro shahrining me'moriy yodgorliklarini o'rganmoqchi bo'lsangiz, ishni Ismoil Somoni maqbarasi (IX-XII asrlar) bilan tanishishdan boshlagan ma'qul. Ushbu maqbara Buxoro Arkining g'arb tomonida, undan uzoq bo'lmasan yerda joylashgan.

1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan.

Ismoil Somoni maqbarasi



O'rta Osiyoda Somoniylar davri me'morchiligining nodir namunalaridan biri bo'lgan bu tarixiy obida Ismoil Somoni tomonidan bunyod etilgan.

Ismoil Somoni shaxsi haqida gapiradigan bo'lsak, u Buxoroda Somoniylar davlatiga asos solgan yirik siyosiy arbob hisoblanadi. Ismoil Somoni 848-yil Buxoro shahrida tug'ilgan, 874-yilda somoniylarning Buxorodagi noibi, 888-yildan esa butun Movarounnahrga hokim bo'lgan. Ismoil Somoni markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib borib, turli yerlardan ulamolar, adiblar, usta va hunarmandlarni Buxoroga to'plagan. Madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod xalifalaridan ibrat olib, o'ziga ulkan maqbara qurdirgan. 893-yilda Tarozga yurish qilib shimoliy chegaralarni mustahkamlagan. 900-yilda Movarounnahr va Xurosonni birlashtirgan.


Me'moriy obida bunyod etilgan davrda O'rta Osiyoda arab xalifaligidan mustaqil mahalliy davlatlar tashkil topa boshladи. Xurosonda Tohiriyalar, Movarounnahrda esa Somoniylar davlati vujudga keldi. Mahalliy davlatlar yagona markaz atrofida birlashtirilib, ilm-fan yuksalgan. 874-yilda Ismoil Buxoro noibi etib tayinlandi. Bu paytda Movarounnahrda akasi Nasr hukmronlik qilayotgan edi. Nasr va Ismoil o'rtasidagi munosabatlar 888-yilda buziladi va bu urushga olib keladi. Urushda

g‘alabaga erishgan Ismoil butun Movarounnahrga hokim bo‘lib oladi. 893-yilda u Tarozga yurish qilib Shimoliy chegaralarni mustahkamlagan.

Ismoil Somoniy maqbarasi o‘rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asr), 864-868-yillar oralig‘ida, hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan.

Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog‘onali (to‘rtlik – to‘rt devor, sakkizlik – devordan tomga o‘tish qismi va gumbaz – tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan.

Uning qurilishida pishgan g‘isht, tosh va yog‘ochdan foydalanilgan. Maqbaraning dizayniga to‘xtaladigan bo‘lsak, jimmima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Devor qalinligi – 1,8 m., tarhi – tashqarisi 10,80x10,70 m., ichkarisi 7,20x7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. To‘rt



burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o‘rnatalgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g‘ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g‘ishtdan chorus tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar – ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirkaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqtida (1927) xona sahnida 2 yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. Ismoil Somoniy maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, uning tuzilishida qadimiy sug‘d me’morchiligining an’analari saqlanib qolgan buyuk me’moriy asar.

Ismoil Somoniy maqbarasi jahon me’morchilik va binokorlik maktablarining noyob asari hisoblanadi. Tengi yo‘q bu arxitekturaviy yodgorlikni arxitektorlar va binokorlar faxr bilan tilga oladilar, tarixchilar yaratilishini o‘rganadilar, san’at ahli esa uning tasvirlarini turli xil buyumlarda sevib aks ettiradilar.

Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda Buxoroda me’morchilik san’ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksalganligini va rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ana o‘scha davrdan boshlab binokorlikda yuqori sifatli pishgan g‘isht, albastri qorishmalar ishlataligan.

Ushbu nodir obidani tiklashgacha bo‘lgan davrda Buxoroda matematik bilimlar, xususan geometriya juda yaxshi rivojlangan.

Professor M.Bulatov tomonidan uni barpo etishda qo‘llanilgan handasa qoidalari va qonuniyatlarini o‘rganish asosida doktorlik dissertatsiyasi yozilganligi ham bejiz emas. Hali inshootning o‘rganilmagan qanchadan-qancha qirralari, qonuniyatlar, qoidalari, qurilish usullari bor.

Yuksak professional darajada barpo etilgan bu tarixiy yodgorlik o‘scha davrdagi eng tajribali quruvchilarni, eng qobiliyatli me’morlarni loyihalash va qurilish usullari bilan qurollantirganligi, ularning bilim va malakalarini nechog‘lik oshirganligi sir emas.

Ismoil Somoniy maqbarasi markazlashma inshoot bo‘lib, uning asosiy hajmini to‘rt devori ko‘tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviy

gumbaz tashkil qiladi. Devor kvadratlari bilan gumbazni tutashtiruvchi konstruksiya inshootning o‘ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Maqbaraning barcha fasadlari bir xilda bajarilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomondan bezakli qilib yuqori sifatli pishgan g‘ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o‘ymakorlik usullaridan ham foydalanilgan.

Dekorativ g‘isht terimi inshootga yengillik ifodasini baxsh etgan. Kirish eshik proyomlari strelka shaklidagi arka ko‘rinishida bajarilgan. Bu yechimlar, ayniqsa, strelkali arka va gumbazli tom konstruksiyalari, keyingi davrda nafaqat Buxoro me’morchiligida, balki butun Markaziy Osiyo me’morchiligida ham ko‘p ishlataligan.

Zaruriyati tug‘ilgan gumbazli yopmalarni ishlatishning ijobiy tomonlari ko‘pdir. Ulardan biri shundan iboratki, o‘sha davrda uzoq vaqtga chidaydigan konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temirbetonga o‘xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo‘lmagan. Shu sababli ham tom yopma shunday ko‘rinishda bajarilganki, u shakl bo‘yicha bunyod etilgan har qanday konstruksiya asosan siqilishga ishlagan. Natijada inshootlarning proyomlari ko‘rsatkichli arka shaklida, tom yopmalari esa gumbaz shaklida g‘isht terimidan mustahkam qilib tiklangan.

Boshqa tomondan, quruq va issiq iqlimli, quyoshning katta radiatsiyasi yerga tushadigan sharoitda gumbazli yechim samaralidir. Quyosh nuri gumbazli tomonning faqat qaysidir bir bo‘lakchasiga tik tushib, o‘sha qisminigina ko‘p isitadi; shu vaqtida gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va tom ko‘p isimaydi. Gumbazli yopmaning uchinchi jihat shundan iboratki, bunday sirtdan issiqlik tez ketib, tom tezda soviydi. Shamol esganda esa, bu jarayon yana ham intensivlashadi.

Ismoil Somoniylar arxitekturaviy yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan. U jahon arxitekturasining takomillashgan asari, «Sharqning me’moriy durdonasi» degan nomlar bilan ham ataladi. Yodgorlik arablargacha bo‘lgan davr an’anasi asosida bajarilgan bo‘lsa-da, u nafaqat Buxoroda, balki Markaziy Osiyo me’morchiligida ham yangi stil, yangi shakl va yangi yechimlarni yaratishning keyingi taraqqiyotini aniqlab bergen.

Bino gumbazining o‘rtasida yorug‘lik tushishi va issiq havoning chiqib ketishi uchun gumbazcha bilan yopilgan baraban konstruksiya o‘rnatilgan bo‘lib, uning yon tomonlariga arkali proyomlar qo‘yilgan. Inshoot devorlarining tashqi burchaklari naqshli ustunlardan, devorlar va kirish eshiklarining arkalari esa bezakli, jilo berilgan g‘ishtlardan mohirona ishlangan. Gumbazli bino intereri bilan chuqurroq tanishilsa, uni yaratish san’ati oldingi vaqtlardan boshlanganligiga va an’anaga aylanganligiga ishonch hosil qilinadi. Yodgorlikning arxitekturaviy tahlili uni Eron, Mesopotamiya me’morchiligi bilan genetik bog‘liqlikda ekanligidan guvohlik beradi.

Bu inshootda bir necha tektonik yechimlar bir butunlikda, yaxlitlikda ishlab chiqilganligini inkor etib bo‘lmaydi. Turar-joy va madaniy arxitektura asoslaridan ishonch bilan foydalanganlik ushbu inshoot misolida Buxoro me’morchilik maktabining o‘sha davrda yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatib turibdi.

Demak, Ismoil Somoniylar maqbarasining hajm – samoviy va konstruktiv strukturasi undan keyin qurilgan gumbazli binolarning rivojlanishini aniqlab bergen. Me’moriy naqshlar, chiroyli jimjimador bezak elementlari, nihoyatda go‘zal va bejirim badiiy ifodalar o‘sha davrda g‘isht terish san’atining gullab-yashnaganligidan

dalolat beradi. Maqbaradagi g‘ishtlarning yuksak badiiy did bilan terilganligi uning jahon me’morchiligi ajoyib durdonalari silsilasidan o‘rin olishiga asos yaratgan.

Maqbara gumbazsimon, Movarounnahr va Xuroson me’morchiligining o‘ziga xos “Chor” uslubida qurilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, u O‘rta Osiyo arxitektura va san’at tarixidagi dastlabki maqbaralardan biridir. Ismoil Somoni maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib asosida yaratilganligi uning boshqa maqbaralardan farqlantiruvchi xususiyatidir. Maqbara o‘z davrida somoni amirlari dafn etilgan daxma hisoblangan.

Hozirgi kunda me’moriy inshoot atroflari bog‘ga aylantirilgan. U arxiologik qazishmalar orqali topilganligi uchun 60-50 sm pastda joylashgan. Bugungi kunda bu inshoot islam dunyosi ma’rifatparvarlari va allomalarining diqqat-markazida hamda turistlarning sayohatgohiga aylangan.

Maqbaraga O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoni maqbarasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan.

2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risi”dagi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Minorai Kalon



Minorai Kalon (Katta Minora) me’morchilik namunasi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrdagi amiri Arslon Bug‘roxon tomonidan bunyod etilgan.

Arslon Bug‘roxon Muhammad ibn Sulaymon (to‘liq ismi Muhammad ibn Sulaymon ibn Dovud Kuchtegin ibn Tamg‘achxon Ibrohim, ?-1130-1131) – Movarounnahr hukmdori (1102-1130).

Qoraxoniylardan bo‘lgan bu amir Barqiyoruq vassalli Sulaymonteginning o‘g‘li bo‘lgan. U 1102-yil Samarqand taxtiga Arslonxon unvoni bilan o‘tqazilgan. 12 ming mamlukdan iborat qo‘sish tuzib Dashti Qipchoqqa bir necha bor harbiy yurishlar qilgan. Umrining oxirida falaj bo‘lib qolganligi tufayli taxtni o‘g‘illari – dastlab Nasr, so‘ng Ahmad bilan hamkorlikda boshqargan. Samarqand Saljuqiylar tomonidan egallangach (1130-yil, 13-mart), Arslonxon Balxga jo‘natiladi va ko‘p vaqt o‘tmay o‘sha yerda vafot etadi. U Mavrdagi o‘zi qurdirgan madrasaga dafn etilgan. Arslonxon davrida madaniy hayot bir muncha rivojlangan. Buxoro va uning viloyatida ko‘plab binolar qurdirgan. Bulardan: Jarqo‘rg‘on minorasi va Masjidi Kalon yonidagi minora

hozirgacha saqlangan.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoitga to‘xtaladigan bo‘lsak, Qoraxoniylar tomonidan 992, 996, 999-yillarda Movarounnahr tomon uyushtirilgan yurishlar natijasida Somoniylar hukmronligi tugatildi. Bu davrda Saljuqiylar g‘aznaviylarga xavf sola boshlaydi. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo‘ritegin 1038-yilda Amudaryo bo‘yi viloyatlari – Xuttalon, Vaxsh va Chag‘aniyonni g‘aznaviylardan tortib oladi. Ko‘p vaqt o‘tmay u Movarounnahrni va Farg‘onani o‘ziga bo‘ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketdi. Biri poytaxti Bolasog‘unda bo‘lgan Sharqiy qoraxoniylar, ikkinchisi markazi Samarqandda bo‘lgan Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati edi. Bu davrga kelib siyosiy jihatdan tobora zaiflashib borayotgan Qoraxoniylar davlati o‘zining avvalgi mavqeyini yo‘qotib, saljuqiylar tayziqiga uchraydi va unga qaram bo‘lib qoladi.

Minorai Kalonning bunyod etilishi o‘rta asrlarning rivojlangan davriga (XII asr), aniqrog‘i, 1127-yilga to‘g‘ri keladi.

Me’moriy obidaning qurilishida tosh, maxsus qir qotishmasidan, chorsu pishiq g‘ishtidan, loy, taxta va boshqa bir qator ashayolardan foydalanilgan. Uning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salsa shaklidagi yuqori qismi g‘isht o‘ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O‘qsimon tirkak o‘rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustaning ismi (usta Baqo) bitilgan. Minora ichida g‘ishtin aylanma zinapoya bo‘lib, mezanaga olib chiqadi. Kursisi qirrador, tanasi g‘o‘lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa-ko‘shk bilan bog‘langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 aylanma zinapoya orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o‘tiladigan ko‘prikcha bo‘lgan. Minorai Kalonning o‘zagi ham, bezagi ham chorsu pishiq g‘ishti (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g‘ishti o‘rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g‘ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy-diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to‘kilib ketgan).

Me’moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot pishiq g‘ishtdan Sharq an’alarining naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Me’moriy inshootning o‘ziga xos tomoni shundaki, u Buxoro shahrida qad ko‘targan boshqa inshootlardan o‘zining me’moriy yechimi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari, me’moriy inshoot balandligi jihatidan ham boshqa me’moriy inshootlardan ajralib turgan.


Minora o‘z davrida muazzin uchun azon aytish joyi vazifasini o‘tagan bo‘lsa,

harbiy maqsadlarda esa kuzatuv obyekti ham bo‘lganligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan.

Minoraning bugungi kungacha bo‘lgan holatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, tanasi va muqarnasları ta’mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta’mirlangan (1960). Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Minorai Kalonda ham ta’mirlash ishlari olib borildi (1997). Bundan tashqari, me’moriy inshoot atroflari obod etilib, ko‘kalamzorlashtirilgan.

Me’moriy obidaga xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Vobkent minorasi



Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan Vobkent minorasi Qoraxoniylarning Boxorodagi noibi Sadr Burhoniddin Abdulaziz II tomonidan buniyod etilgan.

Sadr Burhoniddin Abdulaziz II Qoraxoniylar davridagi amaldorlardan biri. Tug‘ilgan yili ma’lum emas. 1199-yil G‘ijduvonda vafot etgan. XII asrda Qoraxoni hukmdorlari ham islam dinini qabul qilgan bo‘lib, diniy yer-mulkarga ham e’tibor Somoniylar davridagi darajaga ko‘tarilgan. Burhoniddin Abdulaziz XII asrning so‘nggi choragida Buxoroda sadr – vaqf yerlarining boshqaruvchisi lavozimiga tayinlangan. U Abduxoliq G‘ijduvoniyning muridlaridan biri bo‘lgan va Vobkent minorasi ham G‘ijduvoniy tashabbusi va mablag‘i evaziga qurilgan.

Rus tadqiqotchisi I.I.Ulyanovning ma’lumotlariga qaraganda, Sadr Abdulaziz II Abduxoliq G‘ijduvoniyning taklifi bilan bu yerda dastlab, 1190-yillarning boshida masjid qurdirgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida masjidning kattaligi 22/18 metrn tashkil qilganligi aniqlandi. 1196-yilda masjidning chap yonida muazzin azon aytishi uchun minora qurilishi boshlanadi va 11 oyda uning qurilishi yakunlanadi. XVI asrda, shayboniylar hukmronligi davrida masjidning o‘ng tomonida madrasa quriladi. XX asrning boshlarida esa eng dastlabki inshoot hisoblangan masjid buzilib ketgan.

Minora rivojlangan o‘rta asrlar davrida, 1196-1197-yillar oraliq‘ida buniyod etilgan.

Uning qurilishida har xil o'lchamdag'i pishgan g'isht, tosh, maxsus "qir" qotishmasi va shu kabi mahsulotlardan foydalanilgan. Inshoot O'n ikki qirrali supa asosga o'rnatilgan g'o'la (quyi qismining diametri 6,19 m., yuqori qisminiki – 2,81 m.) shaklida rangdor, pishiqli g'ishtlardan qurilgan. Bir paytlar yonida mavjud bo'lgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Bo'rtma naqshli



10 belbog' bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga o'xshamaydigan qilib g'isht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs (Sadr Burhoniddin Abdulaziz II)ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametri 3,66 m), g'isht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil qilingan, darchalarning quyisi g'isht panjara bilan to'silgan. Minoraning tashqi ko'rinishi ko'p jihatdan Minora Kalonga o'xshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 m bo'lganini arxeologik tadqiqotlar ko'rsatadi. Minoraning umumiy

balandligi esa 40,3 metr.

Minora Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, minora uslubida bunyod etilgan.

2004-yil minora qafasasining tepa qismi yopildi va hozirda minora yonida saqlanib qolgan madrasa mahalliy aholining e'tiqodi uchun masjid vazifasini o'tab kelmoqda.

Ulug'bek madrasasi (Buxoro)



Buxoro shahrida joylashgan Ulug'bek madrasasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan

U Amir Temurning kenja o'g'li Shohruxning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug'ilgan. U 1409-yil otasi Shohruxning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji jadidi

Ko'ragoniy" asarini, tarixga oid "To'rt ulus tarixi" asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan.

Madrasa qurilishi o'rta asrlarning so'nggiga to'g'ri keladi. U XV asrning birinchi choragida, ya'ni 1417-yilda qurib bitkazilgan.

Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida bunyod etilgan bu obida Buxoro shahrining eski shahar qismida, Abdulazizzon madrasasi ro'parasida bunyod etilgan.

XV asrning birinchi choragida Movarounnahrda Temuriylar o‘rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketdi. Movarounnahr va Xurosandan tashqari barcha hududlar Temuriylar qo‘lidan chiqib ketdi.

Me’moriy obidaninng qurilishida guvala va paxsadan tashqari xom va pishiqligini qo‘shish, yog‘och (tut va yong‘oq daraxti)lardan keng foydalanilgan.

Me’moriy inshootdagi (dizayn) ustunlar, derazalar, devorlar ganch o‘ymakorligi asosida ishlangan. Shiftlar g‘isht o‘ymakorligi asosida naqshlangan. Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanonida 2 qavatlari hujralar va burchaklarida guldstalar joylashgan. Guldstalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtoqida bo‘lib, unda sirkor g‘ishtchalardan tashqari, rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Hovlining shimoliy va janubiy tomonlari qisqaroq ko‘rinishga ega bo‘lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang va sirkor g‘ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvoqli. Madrasa 53 metrga 41,6 metrni tashkil etadi. Masjid 15,5 metrga 5,5 metrni tashkil etadi. Darsxona esa 5,5 ga 5,5 metrni tashkil etadi. Madrasa eshigining tabaqalariga arab yozuvida “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” deb yozib qo‘yilgan. Bundan tashqari peshtoqda Amir Temur davrida Erondan keltirilgan ustanining avlodni Ismoil ibn Tohirning nomi ganchkor va turli bezaklar asosida yozilgan nasta’liq xatida saqlanib qolgan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko‘p va ayvon ustunlari zarhallangan.

Me’moriy inshoot Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan gumbazsimon, arkli, to‘rburchak va “Chor” uslubda qurilgan.

Madrasaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, u balandligi jihatidan Buxorodagi boshqa madrasalarga qaraganda pastroq va hujralarining ko‘pligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan dastlabki madrasadir. Madrasaning boshqa madrasalardan farqi shundan iboratki, uning ikki chetida minoralar mavjud emas. Xonaqoh pesh ayvonlari esa 8 tani tashkil qiladi.

Bugungi kungacha me’moriy obida atroflarida bog‘lar tashkil qilingan. Bizgacha Ulug‘bek madarasasi ancha o‘zgargan holda yetib kelgan. 1950-1970 va 1990-1996-yillarda ta’mirlangan. Madrasaning ta’mir talab yerlari qayta rekonstruksiyadan chiqarilgan. Madrasa ko‘chasiga esa o‘rta asr uslubida toshlar yotqizilib, yo‘llar hosil qilingan. Hozirgi kunda madrasa ochiq osmon ostidagi muzey sifatida chel el sayyoohlari hamda O‘zbekistonlik milliy madaniy merosga qiziquvchilarning ziyoratgohiga aylangan.

O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ulug‘bek madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan.

Me’moriy inshoot rivojlangan va so‘nggi o‘rta asrlarning eng yirik ta’lim muassasasi bo‘lgan. Abdullaxon II davrida Jo‘ybor shayhi Xoja Sa’d tomonidan (1586) butunlay qayta tiklangan va yirik madaniyat va ma’rifat maskani vazifasini o‘tagan. Manbalarda ayttilishicha, Ulug‘bek 1419-yil 28-noyabrda madrasaga tashrif buyurgan va ta’lim olayotgan talabalarga in’omlar ularshgan.

Ulug'bek madrasasi (G'ijduvon)



Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida joylashgan Ulug'bek madrasasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan

U Amir Temurning kenja o'g'li Shohruxning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug'ilgan. U 1409-yil otasi Shohruxning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini, tarixga oid "To'rt ulus tarixi" asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan.

Madrasa qurilishi o'rta asrlarning so'ngiga to'g'ri keladi. U XV asrning birinchi yarmida, ya'ni 1414-1433-yillarda qurib bitkazilgan.

Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida bunyod etilgan bu obida Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida bunyod etilgan.

Madrasa qurilishida xom va pishgan g'isht, loy, yog'och, maxsus "qir" qotishmasidan va shunga o'xshash ashylardan foydalananilgan.

Madrasa bir qavatli, murabba tarqli (33x30 m), masjid, darsxona va yotoqxonadan iborat. Peshtoqi chuqur ravoqli. O'rtada miyonsaroy, 2 yonida masjid va darsxona (8x4,6 m), burchaklarida guldasta joylashgan. Miyonsaroy to'ridagi eshikdan hovliga chiqiladi. Hovli (15x13 m)ning 2 yonida 5 ta hujra bo'lib, uning 4 tasi murabba tarqli, tomi qubbali. Bizgacha Ulug'bek madrasasining bosh tarzi (XV asr), unga tutashgan ayvon va minora saqlangan. 1933-yilda V.Shishkin, V.Nil'sen va I.Notkinlar arxeologik tadqiqotlar asosida madrasaning o'lchamlarini aniqlagan. Bosh tarzida Ulug'bek nomi va qurilgan sanasi yozilgan. Madrasaning g'arbida shayx Abduxoliq G'ijduvoni qabri joylashgan. G'ijduvoniyning 890 yilligi (1993) munosabati bilan Ulug'bek madrasasi ta'mirlangan. Bosh tarzi Peshtog'i yoniga ustunli, tekis toqli ayvon (bostirma) qurilib, ichi koshin bilan bezatilgan, peshtoq yonlaridagi hujralarga bosh tarzidan kiriladigan eshik, tobodonlarga ganchkor panjaralar o'rnatilgan.

Madrasa qo'shminorali, Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, gumbazli, arkli, "Chor" uslubida qurilgan. Uning o'ziga xos tomonlaridan biri esa, Ulug'bek tomonidan Samarqand va Buxoroda qurilgan madrasalarning eng kichik va soddarog'i. Bundan tashqari, madrasa bu davrda qurilgan boshqa me'moriy obidalardan o'zining me'moriy yechimi bilan ajralib turgan.

Madrasa o'z davrida tolibi ilmlarga ma'rifat tarqatadigan ilm maskani vazifasini bajargan bo'lsa, darveshlar va musofirlar uchun boshpana ham bo'lган.

Mustaqillik yillarida Abduxoliq G'ijduvoniyning 890 yilligi (1993) munosabati bilan Ulug'bek madrasasi ta'mirlangan. Serhasham naqshinkori bezaklari tiklangan. G'ijduvoniy daxmasi ustiga 2003-yili tomi ustunli yog'och o'ymakori gumbaz bilan yopilgan ayvon qurildi. Daxma bezaklari qaytadan tiklandi. Madrasa oldi, daxma va

yangi qurilgan masjid joylashgan hudud zamonaviy talablarga mos qilib obodonlashtirildi.

Me’moriy obidaga hukumatimiz hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to’xtaladigan bo‘lsak, madrasa YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan.

Masjidi Kalon



Masjidi Kalon inshooti o‘rta asrlarning noyob me’morilik namunasi bo‘lib, uning o‘rnida dastlab qoraxoniylar sulolasiga hukmronligi davrida Juma masjidi bunyod etilgan. Shayboniylar davrida esa u Masjidi Kalon sifatida qayta qurildi. Masjidning hozirgi ko‘rinishi Shayboniylar sulolasiga mansub xonlar tomonidan bunyod etilgan.

Me’moriy obidani bunyod ettirgan shaxslar haqida gapiradigan bo‘lsak, inshootning ko‘pgina qismlari Ubaydullaxon, Abdulazizzon va Abdullaxon davrida qurilgan. Abdulazizzon (1509-1550) – Shayboniylardan, Ubaydullaxonning o‘g‘li, Xorazm hokimi (1538-1539). Otasining vafoti (1540)dan so‘ng mamlakatda ikki hokimiyatchilik yuzaga kelib, Abdulazizzon Buxoro xoni (1540-1550), Ko‘chkinchixonning o‘g‘li Abdulatifxon esa Samarkand xoni (1540-1551) bo‘lgan. Abdulazizzon o‘z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko‘zlab qaror islohotlar o‘tkazgan, ayrim soliqlar (tanob puli, tafovut va tavfiri va b.)ni bekor qilgan, Buxoro atrofini yangi devor bilan o‘rashga kirishgan (uni Abdullaxon II bitkazgan bo‘lib, XX asr boshlarigacha saqlangan). Bundan tashqari u Buxoroda madrasa, ulkan kutubxona, Bahouddin Naqshband qabristonida xonaqohlar bunyod ettirgan.

Abdullaxon (to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulkayrxon) (1534, Miyonqol, Ofarinkent qishlog‘i – 1598, Samarkand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) – o‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo‘lgan. Otasi Iskandar sulton o‘g‘li tug‘ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog‘idan qattiq kurash olib borgan. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san’at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Masjidi Kalon rivojlangan va so‘nggi

o‘rta asrlarning o‘ziga xos me’moriy inshooti bo‘lib, 1121-yilda bunyod etilgan bo‘lsa, 1514-yilda u qayta qurila boshlagan va XVI asrning o‘rtalarida uning bunyod etilishi yakunlangan.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida xom va pishgan g‘isht, loy, yog‘och, tosh, ganch va chorsu pishiq g‘ishtidan keng foydalanilgan.

Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, masjid to‘g‘ri to‘rburchak tarhlisi (127x78 m), keng hovli atrofini gumbazli bostirma ayvon egallagan. 188 qubba (gumbazcha) 208 ustunga tayangan. Ular o‘ziga xos mahobatli ko‘rinishga ega bo‘lib, ustunlarga keyinchalik murabba tarhli poyustunlar o‘rnatalgan. Hovlining to‘rt tomoni markazida naqshinkor peshtoqlar bor. Sharqdagi tashqi ulkan peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan ajralib turadi. Masjidi Kalonning tashqi 7 eshigi bo‘lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq ravoqidagi boloxona va uning yon tomonidagi qirrali ravoqlar koshin va sirlashgan g‘ishtlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ganchkori ravoqlar alohida ajralib turadi. Peshtoq orqali hovli to‘ridagi xonaqoh maksuraga o‘tiladi. Xonaqohning tashqi poygumbazi baland, moviy gumbazi uzoqdan tashlanib turadi. Ichki gumbaz bag‘allariga “qolibkori” uslubida qator mayda ravoqcha (16 ta)lar ishlangan. Mehrob bezaklari nafis koshinkorlik san’atining yuksak namunasidir. Masjidi Kalonning bosh fasadi sharq tomonga qaragan. Yirik va mozoika bilan pardozlangan masjid peshtoqi biroz balandda joylashgan. Masjid hovlisiga bir necha pog‘onali zinadan kiriladi. Hovlining ichki tarafida ikkita moviy gumbaz joylashgan. To‘g‘ri to‘rburchak shakliga ega bo‘lgan bu hovlining atrofi 228 gumbazdan galereya bilan o‘ralgan.

Me’moriy obidaning uslubini yoritar ekanmiz, Sharq me’morchiligining gumbazsimon “Chor” uslubida qurilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlari shundaki, uning hajmi va binokorlik bezakchiligi u darajada bo‘lmasa-da, rejaviy masshtabligi jihatidan Samarqanddagi masjidlardan qolishmaydi. Bu inshoot qadimiyligi va yirikligi tomonidan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Masjidi Kalon (forscha – katta masjid) peshtoqi oldidagi sahndagi ko‘shkni qayta ta’mirlashda (pavilyon) XX asrda Usta Shirin Murodov qatnashgan. Buxorodagi katta masjidlardan biri bo‘lganligi uchun Masjidi Kalon nomi bilan atalgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapirar ekanmiz, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan masjid qayta rekonstruksiyadan chiqarildi va atrofi ko‘kalamzorlashtirildi.

Me’moriy obida masjid vazifasini bajarish bilan bir qatorda yetim-yesir, darveshlar va musofirlar uchun boshpana vazifasini o‘tagan. O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Masjidi Kalon ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Shu va boshqa qonunlar inshootning huquqiy vakolati hisoblanadi.



Mir Arab madrasasi Shayx Abdulla Yamaniy tomonidan bunyod etilgan.

Madrasaning bunyod etilishida homiylik qilgan Mir Arabning asl ismi Sayyid Abdulla Yamaniy bo‘lib, u 22 yoshida Samarqandga kelib Xoja Ahrorga shogird tushgan. Turkistonning Sabron (Savron)ida 2 koriz (yer osti arig‘i) qazdirgan, suv chiqargan, qal'a bino etib, Shofirkon, Vobkent, G‘ijduvonda ko‘p joylarni obod qilgan (Shofirkonda Mir Arab qal‘asi saqlangan).

U naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shtgan. Abdulla Yamaniy madrasa qurilishini nihoyasiga etkaza olmagan, 1536-yil boshida vafot etgan va uning vasiyatiga ko‘ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga etkazgan. Xattot Mirali Fathobodiy – Buxoriy ushbu forsiy qit’ani Madrasa darvozasiga yozgan: «Mir Arab faxri Ajam onki kard – Madrasai oliy bas bul ajab. Bul ajab on ast ki tarixi u: Madrasai olii Mir Arab».

Me’moriy obida so‘nggi o‘rta asrlar davrining dastlabki bosqichiga, 1520-1536-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

1512-yilda G‘ijduvon yaqinida shayboniyarning Eron qo‘sishnari ustidan g‘alabasidan tushgan o‘lja-mablag‘ni Ubaydullaxon o‘z piri Mir Arabga mardasa bunyod etish uchun taqdim qilgan.

Madrasa Buxorodagi me’moriy yodgorlik – Minorai Kalonning qarshisida joylashgan. Uning qurilishi shayboniylar sulolasiga hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida xom va pishiq g‘isht, loy, yog‘och, sement, temir, tunuka va shu kabi mahsulotlardan foydalanilgan.

Madrasaning umumiy tarhi 68,5x51,8 m., hovli 35,4x31,3 m., darsxona 8x8 m. Hovlisi to‘rtburchak shaklida bo‘lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshyonli 114 hujra o‘rab turadi. Tomonlar o‘rtasidagi 4 baland peshtoqli darsxona – ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g‘oyat nafis va nozik bo‘lganligini bilish mumkin.

Fasadning o‘rtasida birinchi bo‘lib ko‘zga tashkanadigan yirik peshtoq joylashtirilgan. Ichki hovli burchaklari kesilgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, uning atrofida ikki qavatlari ayvonli hujralar joylashgan. Bosh fasad bo‘ylab peshtoqning o‘ng va chap qanotida ikkita gumbazli zal joylashgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – “guldasta” tiklangan. Ba’zi bir yechimlar inshoot loyihasi mumtoz yechimlardan farq qiladi. Kiraverishda o‘ng qo‘lda darsxona, chap qo‘lda go‘rxona joylashgan. Daxmalar tantanavor tarzda qurilgan, zal parusli konstruksiyalar bilan yopilgan. Madrasa hujralari gumbazli dahliz va xonalardan tashkil topgan. Yashash xonalarida tokchalar yasalgan. Shu bilan birga xonalar biroz qorong‘i va torroq bo‘lgan. Hovlidagi bo‘ylama va ko‘ndalang devorlar bo‘ylab joylashgan portallar ham go‘zallik namunasi sifatida xizmat qiladi.

Madrasa Sharq me’morchilik an’analarining “Chor” uslubida, eshiklari xotamkori uslubida qurilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, rivoyatlarga ko‘ra, Madrasa asosi chuqur qilinib, tog‘ toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg‘ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo‘rg‘onidan tashqariga chiqarilgan. Me’morchilik va shaharsozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu uchala inshoot birgalikda markaziy monumental kompozitsiyasini tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarda Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan Madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to‘kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi.

Mir Arab madrasasi o‘z davrida oliy ta’lim muassasasi hisoblangan. Hozirda madrasada talabalar islom dinidan saboq oladilar. Sho‘rolar davrida uning faoliyati vaqtincha to‘xtatilgan, 1945-yilda yana tiklangan. O‘quv muddati 4 yil. O‘quv yurti kunduzgi bo‘limiga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan o‘rtalik va to‘liqsiz o‘rtalik ma’lumotli kishilar qabul qilinadi. Unda diniy fanlar hamda umumta’lim fanlari o‘qitiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o‘rgatiladi. Darslar o‘zbek va arab tillarida olib boriladi. Inshoot madrasa vazifasini bajaribgina qolmay, go‘rxona bo‘lib ham xizmat qilgan. Inshootning Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go‘rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg‘unlashgan (saqlanmagan). Go‘rxona ichi gumbaz osti bag‘ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o‘ymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go‘rxonada Ubaydullaxonning yog‘ochdan xotamkori usulida ishlangan sag‘anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor.

Ko‘kaldosh madrasasi



Buxoro shahrining Labi hovuz majmuasining shimolida joylashgan Ko‘kaldosh madrasasi Qulbobo Ko‘kaldosh tomonidan bunyod etilgan.

Qulbobo Ko‘kaldosh Abdullaxon II ning ko‘kaldoshi bo‘lib, Buxoro xonligida xonning dushmanlari va do‘sllari haqida ma’lumot yig‘adigan hamda ularga oid tavsiyalarni xonga taqdim qilgan, shuningdek, mamlakat xavfsizligi uchun mas’ullardan biri bo‘lgan ko‘kaldosh mansabida faoliyat yuritgan.

Ko‘kaldosh madrasasi shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida, so‘nggi o‘rtalik asrlarning dastlabki qismida, 1568-1569-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrda shayboniylar o‘rtasida siyosiy kurash avj olgan edi. Abdullaxon II 1557-yili mayda Buxoroni qo‘lga kiritadi va uni o‘z

poytaxtiga aylantirdi. 1561-yilda otasi – Iskandarxonni davlat boshlig‘i – xon deb e’lon qilib, uning nomidan mamlakatni o‘zi boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga bo‘ysunishdan bosh tortgan Shayboniy sultonlar bilan kurashib, Balx (1574-yil), Samarqand (1578), Toshkent, Sayram, Turkiston va Farg‘ona (1583-yil)ni egallaydi. 1582-yilda shimolga yurish qilib, Ulug‘tog‘ga qadar borgan.

Me’moriy obidaning qurilishida (xom va pishiq) g‘isht, loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasi va shu kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanilgan.

Madrasaning ikki qavatli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girrix va islimiylar bilan bezatilgan. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyonsaroyning ichki gumbazlari va bag‘allari, shipi o‘ziga xos turli shakldagi murakkab to‘rsimon-yulduzsimon, qolibkori va iroqi uslubda pishiq g‘ishtda ganj qorishmasidan terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42x37 m), o‘rtaga yangi imorat 1929-yilda bunyod etilgan. Hovli tomonidagi 2 qavatli 160 hujra bilan o‘ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga xonani yoritish uchun panjaralar o‘rnatalgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba’zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me’morchiligiga xos qadimiy va milliy an’analarni aks ettirilgan.

Ko‘kaldosh madrasasi “Chor” uslubda, eshik va g‘ishtlarning terilishi xotamkor uslubida o‘z aksini topgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, u Labi hovuz ansamblidagi eng katta imorat va Buxoro shahridagi eng katta madrasa hisoblanadi. Ko‘kaldosh madrasasida Sadriddin Ayniy tahsil olgan, hozirda u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jihozlangan.

Me’moriy inshoot ilm maskani, madrasa sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Madrasada 3 bosqichda ta’lim berilgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxoro shahridagi me’moriy obidalar qatorida Ko‘kaldosh madrasasi ham ta’mirlandi. Madrasa atroflari ko‘kalamzorlashtirildi. Obidaning hovlisi hisoblangan Labi hovuz majmuasi qayta ta’mirdan chiqdi.

Ko‘kaldosh madrasasi 1960-1970 va 1995-1997-yillarda ta’mirlangan. Hozirda Ko‘kaldosh madrasasida Buxoro viloyatining “Oltin meros” jamg‘armasi joylashgan. Inshoot mustaqillik yillarida bir necha bor ta’mirlandi. Inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Chor Bakr arxitekuraviy ansamбли



Buxoro shahrining g'arb tomonida, undan 5 km. uzoqlikda joylashgan Sumitan qishlog'iда Jo'yboriy shayxlarining shahardan tashqaridagi nekropoli – Chor Bakr qurilgan.

Chor Bakr me'moriy ansambli to'rt yirik shayx – Abu Bakr Sa'd, Abu Bakr Fazl, Abu Bakr Muhammad, Abu Bakr Taxxonlarga bag'ishlab bunyod etilgan. Chor Bakrlar (to'rtta Bakr) Buxoroda vafot etgan va shahar yaqinidagi Sumitan mavzeida dafn etilgan. Ularning qabri

ustida ziyoratgohning bosh kompleksi 1560-1569-yillarda Abdullaxon II tomonidan barpo etilgan.

Abdullaxon II (to'liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulkayrxon) (1534, Miyonqol, Ofarinkent qishlog'i – 1598, Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo'lган. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan. Uning hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san'at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Kompleks uzoq vaqt shakllangan. Daxmalar, darvoza, hovli, yo'lak, ko'p sonli qabrlar usti inshootlari bunyod etilgan. Chor Bakr oxirgi marta Mustaqillik davrida restavratsiya qilindi.

Me'moriy kompleks negizini tashkil etgan xonaqoh (shimolda), madrasa (janubda) va namozgoh (g'arbda) orasidagi sahn supa tarzida. 1900-yilda u yerda katta bo'lмаган minora bunyod etilgan.

Xonaqoh gumbazli xona (9x15,8 m) va peshtoqdan iborat. Yon fasadning qo'sh qavat ravoqlari va peshtoq jozibador ishlangan bo'lib, peshtoqning ikki qanoti guldastalar bilan ulug'vor ko'rindi.

Peshtoq bezagida koshindan terilgan yirik kufiy xatlar diqqatni jalb etadi. Gumbazning ostki konstruksiyasi ancha murakkab. Xonani ikki ravoq ko'ndalangiga bog'lab, gumbaz uchun asos bo'lган.

Madrasa peshtoqi kengroq, fasadni deyarli egallagan. Peshtoq dahanasi uch ravoqqa bo'lingan. Darsxona chortoqli, o'rtasi gumbaz bilan berkitilgan. Madrasanining yon fasadlari qo'sh qavat ravoqlar qatorini takrorlaydi.

Masjid va xonaqohning bosh fasadlarini peshtoq keng gumbaz bilan egallashi, yon tomonlari ikki qavatli ayvonlardan tashkil topishi shu xildagi binolar uchun an'anaviy yechim hisoblanmagan. Kufiy xatlar va mayda koshinkorli bezaklar mahorat bilan ishlangan. Gumbazning tashqi ko'rinishi salobatli. Masjid maydoni sahnining to'rida joylashgan.

Masjid va xonaqohning bosh zallari baraban shakldagi gumbazlar bilan yopilgan. Ularning intereri jonli ishlangan. O'zaro kesishgan arkalar va chatishib ketgan paruslar ustida derazachali barabanlar, ularning usti esa gumbaz bilan yopilgan.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda Buxoroda iqtisodiy va siyosiy jihatdan tushkunlik yuzaga kela borgan. Bu davrlarda qurilishlar davom etsa-da, biroq me'morchilik san'ati sezilarli darajada to'xtab qolgan. Yaratilgan inshootlarning sifati badiiy va texnik jihatdan avvalgilarga nisbatan pasaygan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro xonligi o'zining iqtisodiy va madaniy mavqeini yo'qota boshlagan. Mang'itlar vaqtida (1753-1920-yillar) Buxoro uchun tushkunlikka tushgan davr bo'lган. Bu davrda qurilish ishlari deyarli to'xtab qolgan, me'morchilik ham aytarli darajada rivojlanmagan.

Govkushon madrasasi



Govkushon madrasasi Buxorodagi jo'ybor shayxlari tomonidan bunyod etilgan.

Inshootning qurilishida homiylik qilgan jo'yboriylar Muhammad Islom (taxminan 1493-1563) va Xoja Sa'd (1531/32-1589)lardir. Ma'lumki, xoja Muhammad Islom va uning avlodlari o'zlarini aslzoda va valiyalar avlodi ekanliklarini ko'rsatish maqsadida, o'z

shaxslarini ota tomondan Muhammad payg'ambar avlodlariga, ona tomondan esa Chingizzon va Jo'jiga olib borib ulaydilar. Aslzodalik va tariqatdagi yuqori mavqelariga ko'ra, Jo'ybor xojalari somoniylar davridan boshlaboq davlat ishlarida muhim lavozimlarni egallaganlar. Shayxlarning asosiy boyliklari xonlar, sultonlar va badavlat shaxslar tomonidan berilgan tortiqlar asosida hosil bo'lgan. Xoja Muhammad Islom ombor va sandiqlarida saqlanayotgan sarmoya va turli-tuman qimmatbaho matolardan tashqari, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Marv va boshqa viloyatlarda 300 jufti gov (2500 hektar) yer-suvga ega bo'lgan. Shuningdek, qo'l ostida 10 ming qo'y, 700 ot, 500 tuya, 104 ta hunarmandchilik va savdo do'konlari, 7 tegirmon, ko'plab hammomlar, sardobalar va boshqa mol-mulk bo'lgan. Xoja Muhammad Islomning o'g'li va vorisi Xoja Sa'd esa 2 ming jufti gov (17 ming hektar) sermahsul yer, 2,5 ming qo'y, 1000 ta tuya, 1000 ta yilqi, 12 ta hammom, 10 sardoba, 2 karvonsaroy egasi hisoblangan. Ana shularning hammasidan u yiliga 1,6 million tanga daromad qilgan. Shuningdek, qalmoq, rus va hindlardan iborat uning 1000 ta quli ham bo'lgan.

Govkushon madrasasi so'nggi o'rta asrlarning dastlabki bosqichida, shayboniylar hukmronligi davrida, XVI asrda bunyod etilgan.


Uning bunyod etilishda har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, yog'och, loy, tosh, tunuka va shu kabi ashyolardan foydalanilgan. Govkushon madrasasi va

masjidning o‘rtasidan Shohrud arig‘i o‘tgan. Lekin bu ariq 1930-yillarda ko‘milib ketgan. Madrasaning sharqiy tarafi ikki qavatli, yon va orqa tomonida bir qavatli hujralar va mezana mavjud. Peshtoqning g‘arbidagi ravoq ustidagi qanosi o‘simliksimon sirkori naqshlar, kitoba qismi esa suls xati bilan bezalgan. Kiraverishda, o‘ngda xonaqoh-masjid (darsxona) bor. O‘rtadagi hovli (25x35 m)ning to‘rt tomoni hujralar bilan o‘ralgan. Xo‘ja masjidi kirish peshtoqi, hovli atrofi g‘ishtin ravoqli ayvonlar, xonaqoh va minoradan tashkil topgan. Minora (19,5 m)ga masjid tomidagi ravoqli ko‘prik orqali chiqilgan. Minora turli shakldagi g‘ishtlardan terilgan. Naqshlar yuqoriga tomon noziklasha borib, fonusning ravoqli darchalari bilan birga minoraga nafislik bag‘ishlaydi. Govkushon madrasasi Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, naqshdor, “Chor” uslubida ishlangan.

Madrasaning nomi boshqa madrasalardan tubdan farq qiladi. Madrasa mahalla nomi bilan bog‘liq. Bundan tashqari Govkushon degan qassoblar bozori va mahalla bo‘lgan. Mustaqillik yillarigacha va mustaqillikdan so‘ng me’moriy obidaning ta‘mir talab qismlari qayta tiklandi. Madrasa atroflari ko‘kalamzorlashtirildi. Chet el sayyoohlari va yurtimiz ziyoratchilarning sayilgohiga aylangan.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Govkushon madrasasi ham qayta ta‘mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” qabul qilingan qonunlar me’moriy obidaning huquqiy kafolatidir.

Modarixon madrasasi.



Buxorodagi Modarixon madrasasi Abdullaxon II tomonidan o‘z onasiga qurdirgan inshoot hisoblanadi. Uning qurilishiga homiylik qilgan Abdullaxon II (to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulkayrxon) (1534, Miyonqol, Ofarinkent qishlog‘i – 1598, Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) o‘zbek davlatchiligi tizimidagi

Buxoro xonligining shayboniyalar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo‘lgan. Otasi Iskandar sulton o‘g‘li tug‘ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog‘idan qattiq kurash olib borgan. Uning hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san’at,

shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Madrasa so‘nggi o‘rta asrlarning dastlabki davrida, 1566-1567-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Modarixon madrasasi Abdullaxon madrasasining ro‘parasida joylashgan bo‘lib, ikki inshoot birgalikda Sharq me’morchiligining “qo‘sh” uslubida bunyod etilganligidan dalolat beradi.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagি xom va pishgan g‘ishtlar, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasi va shunga o‘xhash mahsulotlardan foydalanilgan.

Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot Abdullaxon madrasasi qarshisida bunyod etilgan bu ikkala inshoot qo‘sh Madrasa majmuasini tashkil qiladi. Madrasa devorlarining ikki chekkasi pishiq g‘ishtdan terilgan, o‘rtasi siniq g‘isht bo‘laklari bilan to‘ldirilgan. Madrasa chorsu tarhli (67x45 m), 2 qavatli. Bosh tarzida ulkan peshtoq va uning 2 yonidagi 2 qavatli, oldi ravoqli 3 qismga ajratilgan xonalar oldi handasiy uslubda koshinkori naqshlar bilan bezatilgan. Burchaklarida sirkor g‘ishtlar bilan naqshlangan guldastalar joylashgan. Eshiklar xotamkori uslubida qurilgan. Xonalarning har birida eshik va uning tepasida ganchkori panjara mavjud. Modarixon madrasasining boshqa tomonlari bezaksiz. O‘rtasidagi to‘g‘ri to‘rtburchakli hovli atrofida ayvonli hujralar bor. Bosh tarzidagi miyonsaroy, darsxona va masjid, hovli to‘rining 2 burchagida joylashgan xonalar charxi gumbaz bilan qoplangan. Bag‘allari ganchdan to‘rsimon shaklda ishlangan.

Madrasa Sharq me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida bunyod etilgan.

Uning o‘ziga xos tomoni shundaki, Modarixon madrasasi Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan (nomi ham shundan). Bundan tashqari, madrasaning devor qurilmasi XVI asr Buxoro me’morchiligiga xosligi ham inshootning o‘ziga xos tomonlariga misol bo‘la oladi.

Modarixon madrasasida mamlakatimiz mustaqilligigacha va undan keyin bir necha marta ta’mirlash ishlari olib borildi. Bundan tashqari, Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan shahardagi boshqa me’moriy obidalar qatorida Modarixon madrasasining ham ta’mirtalab qismlari qayta rekonstruksiya qilindi. Inshoot atroflari ko‘kalamzorlashtirildi.

Inshoot o‘z nomidan ham ma’lumki, ilm maskani, madrasa vazifasini o‘tagan. Madrasa ko‘pgina tolibi ilmlarning ziyo maskani bo‘lgan.

Me’moriy obidaga hukumatimiz hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, me’moriy obida YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot

muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Mag‘oki Attori



Mog‘aki Attor masjidi XII asrda qoraxoniylar hukmronligi davrida bunyod etilgan. XVI asrda shayboniylar sulolasini xonlari davrida qayta qurilgan.

Uni qayta qurishni tashkil qilgan Iskandarxon (1561-1583) va Abdullaxon II (1583-1598) hukmronligining dastlabki yillarida Samarqand hokimi bo‘lgan. 1583-yilda

Abdullaxon bilan oralari buzilgan, Abdullaxon Andijonda isyon ko‘targan Isfandiyor sultonga qarshi qo‘shin tortganda Isfandiyor sulton unga qo‘shilishdan bosh tortgan. Do‘stum sulton (Toshkent hokimi), Isfandiyor sulton (Andijon hokimi) va O‘zbekxon (Hisor hokimi) bilan Abdullaxonga qarshi ittifoq tuzib Isfandiyor sulton boshliq qo‘shin Buxoro atrofini talon-taroj qilgan. Isfandiyor 1586-yil 16-avgustda fitnachilar tomonidan o‘ldirilgan. Abdullaxon o‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo‘lgan. Otasi Iskandar sulton o‘g‘li tug‘ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog‘idan qattiq kurash olib borgan. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san’at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Me’moriy obidaning asosiy qismi va so‘nggi holatdagi ko‘rinishi o‘rta asrlarning so‘nggi davrida, XVI asrda bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g‘isht, yog‘och, loy, maxsus “qir” qotishmasi, tosh, ganj va shunga o‘xshash ashylardan keng foydalanilgan. Me’moriy obidaning dizayni: Qadimiy 4 ustunli Moh masjidi (IX asr) o‘rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934-yilda arxeologik tadqiqotlar asosida aniqlangan). XIV asrda ta’mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Shayboniy Abdulazizzon davrida (1541-1542-yillar) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35x17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o‘rta gumbazi balandroq bo‘lib, uning asosidagi darchalar orqali bino ichiga yorug‘lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g‘ayriodatiy ravishda binoning yon tomonida joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismi qayta qurilgan. Peshtoqining ko‘rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o‘ziga xos bezaklar muhim o‘rin tutadi. Ganj va mayda g‘isht bo‘lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g‘oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan

bajarilgan. Namoyon o‘lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo‘rtma naqshlar ishlangan. Ustun go‘shalari o‘yma naqshlar bilan, bog‘chasi vazasimon shaklda ko‘kalamzorlashtirilgan.

Me’moriy obida Sharq me’morchiligi an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlaridan biri, Mag‘ok (chuqurlik)da va Attor bozori yaqinida joylashganligi sababli Mag‘oki Attori madrasasi deb atalgan. Inshootning bezaklari XII asr Buxoro me’morchilik maktabining yuksak na’munasi sifatida O‘zbekiston me’morchiligi tarixida alohida o‘rin tutadi. Vaqt o‘tishi bilan masjid ko‘milib ketgan. Masjidning sharqiy peshtoqidagi yozuvlarga ko‘ra, 1547-yilda Abdulaziz ibn Abdulloh masjidni buzdirib, o‘rniga yangi masjid qurdirmoqchi bo‘ladi. Ammo naqshbandiya tariqatining o’sha davrdagi peshvosi va xonning murshidi Maxdumi A’zam bunga yo‘l qo‘ymaydi. Me’moriy obidaning 1939-1949-yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta’mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, yurtimizdagi boshqa me’moriy inshootlar qatorida ushbu inshoot ham ta’mirlandi.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Mag‘oki Attor masjidi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni kabilar me’moriy obidaning huquqiy kafolatidir.

Abdullaxon timi



Usti berk savdo rastasi hisoblangan Abdullaxon timi Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan.

Uning qurilishiga homiylik qilgan Abdullaxon (to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulkayrxon, 1534-yil Miyonqol, Ofarinkent qishlog‘i – 1598-yil Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) – o‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniyalar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo‘lgan. Otasi Iskandar sulton o‘g‘li tug‘ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog‘idan qattiq kurash olib borgan. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san’at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoit haqida gapiradigan bo‘lsak, Abdullaxonning butun hukmronlik davri tinimsiz urushlarda kechdi. 1574-yil Balxni, 1578-yili Samarqandni, 1583-yil Toshkent va Farg‘onani,

1584-yili Badaxshonni, 1595-yili Xorazmni zabit etadi va o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi. Abdullaxon davrida davlatning sarhadlari janubda Hirotdan Mahshadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko‘lgacha yetdi. Markazlashgan davlat tashkil etilgach, mamlakatda ilm-fan va madaniyat rivojlandi.

Abdullaxon timi boshqa tim va toqlar kabi mamlakatdagi savdo-sotiqni tartibga solish hamda rijovlantirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda bunyod etilgan. Uning qurilishi so‘nggi o‘rta asrlar davrida, 1577-yilga to‘g‘ri keladi.

Me’moriy inshootning qurilishida xom va pishgan g‘isht, yog‘och, loy, sement, har xil hajmdagi toshlardan keng foydalanilgan. Me’moriy obidaning umumiy ko‘rinishi haqida gapiradigan bo‘lsak, inshootning asosi murabba (to‘rtlik) tarqli (39x42 m), 3 tomoni berk, bosh tarzidagi peshtoq orqali kiriladi. Devorlarining 2 tomonida ravoqli tokchalar joylashgan. Baland gumbazli bostirma timni o‘rab turadi. O‘rtadagi miyonsaroy (diametri – 10 m) baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklardan yorug‘ tushadi. Miyonsaroy atrofi dalon. Dalondagi mayda ravoqlar ichida gumbaz tomli do‘konlar bo‘lgan. Bino pishiq g‘ishtdan (22x27x3,5 sm) qurilgan, devorlari ganch suvoqli, naqshin bezaklari deyarli saqlanmagan. Abdullaxon timi Sharq me’morchilagini o‘zida mujassamlashtirgan, “gumbaz” uslubida qurilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, Abdullaxon timi Buxoro shahridagi savdo rastalari, chorsu – toq binolar ichida eng kattasi va shakl-u shamoyili jihatidan ancha murakkab va hushbichim hisoblanadi. O‘tmishda bu timda shoyi va jun gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Inshoot faqat kun yorug‘ida faoliyat ko‘rsatgan. O‘z davrida bu inshootlar tizimi yopiq bozor vazifasini bajargan. Me’moriy obida 1997-yil Buxoro shahrining 2700 yilligi munosabati bilan shahardagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Abdullaxon timi ham ta’mirlandi. Tim atrofidagi yo‘llarga pishgan g‘isht yotqizildi va sayirgohga aylantirildi.

Abdullaxon timi ham YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 30-avgustdaggi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni hamda 2008-yil 12-sentabrdagi “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunlari me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Abdullaxon madrasasi



Me’moriy obida Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan. U (to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulxayrxon) (1534, Miyonqol, Ofarinkent qishlog‘i – 1598, Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) o‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniyalar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan,

ma'rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo'lgan. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan. Uning hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san'at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Abdullaxonning butun hukmronlik davri tinimsiz urushlarda kechdi. 1574-yil Balxni, 1578-yili Samarqandni, 1583-yil Toshkent va Farg'onani, 1584-yili Badaxshonni, 1595-yili Xorazmni zabit etadi va o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlardan iborat edi. Markazlashgan davlat tashkil etilgach, mamlakatda ilm-fan va madaniyat rivojlandi.

Abdullaxon madrasasi xonlikdagi eng yirik ma'rifat maskani sifatida bunyod etilgan. Uning qurilishi o'rta asrlarning so'nggi davrida, ya'ni 1588-1590-yillarga to'g'ri keladi.

Me'moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g'isht, loy, taxta, maxsus "qir" qotishmasi va shu kabi mahsulotlardan foydalanilgan. Me'moriy obidaning umumiyo ko'rinishi haqida gapiradigan bo'lsak, hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o'rab turadi. Har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari xonalar va xonaqohga o'tiladi. Madrasaning katta peshtoqi janubga qaragan. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor bezaklar bilan pardozlangan. Darvozadan o'tib, ikki yonidagi katta xonalar – darsxona va masjidga kiriladi.

Me'moriy obida Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, gubazli uslubda, bezaklar qo'llanilgan holda qurilgan. Modarixon madrasasi bilan birgalikdagi ko'rinishi "qo'sh" uslub namunasi hisoblanadi. Madrasa darvozasi xotamkori uslubining noyob namunasi – girrix shaklli mayda yog'och parchalaridan terilgan. Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, tuzilishi odatdag'i madrasalardan ancha farq qiladi. Madrasa o'z ro'parasidagi Modarixon madrasasiga qarab biroz egilgan holatda qurilgan. Modarixon madrasasi Abdullaxonning onasiga atab qurilganligini hisobga olsak, o'ziga xos onaga hurmat ramzidir. Abdullaxon davri me'morchiliginining yetuk namunasi bo'lgan bu madrasa Buxoro me'morchiliginining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarni namoyish etadi.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo'lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me'moriy inshootlar qatorida Abdullaxon madrasasi ham qayta ta'mirdan chiqdi. Hozirda O'zbekistonning turli joylaridan Buxoroga tashrif buyurgan sayyoohlar va chet elllik turistlar diqqat-e'tiboridagi sayirgohga aylangan.

Me'moriy obida YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Haligacha chet el sayyoohlarining diqqat-markazida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni me'moriy inshoot muhofazasining o'ziga xos huquqiy kafolatidir.

Fathulla Qushbegi madrasasi

Shayboniyalar sulolasi hukmronligi davrida Buxoroning eski shahar qismida bunyod etilgan Fathulla Qushbegi madrasasi shu nomdagi shaxs tomonidan qurilgan. Fathulla ibn Mahmud (?-1597) Miyonqolda tug'ilgan. Buxoro xonligida Parvonachi, Pirmuhammadxon davrida Shig'ovul lavozimida ishlagan. Iskandar va Abdullaxon II hukmronligi davrida esa Qushbegi lavozimida faoliyat yuritgan. Abdullaxonning maxsus buyrug'i bilan davlat xazinasi hisobidan Buxoroda madrasa bunyod ettirishda faol ishtirok etgani uchun u qurdirgan madrasa xalq orasida Fathulla Qushbegi nomi bilan mashhur bo'lgan.

Fathulla Qushbegi madrasasi XVI asrning so'nggi choragida, 1585-1586-yillarda bunyod etilgan.

U Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubida bunyod etilgan. Me'moriy obidani bunyod etilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, tosh, loy, yog'och va shunga o'xhash mahsulotlardan foydalanilgan. Inshoot madrasa, qishgi va yozgi masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iborat. Binoning old tomoni 2 qavatli, qolgan tomonlari 1 qavatli. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiyligi tuzilishi Buxoroning boshqa madrasalaridan biroz farq qiladi. Darsxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Binoning ichki tuzilishi ham o'ziga xos bezaklangan. Hovli 44 ta bir qavatli xonalar bilan o'rangan. Tashqi ayvonning ko'cha tomoni past devor bilan to'silgan.

Fathulla Qushbegi madrasasi XX asrning o'rtalarida buzilib ketgan.

Fayzobod xonaqohi



Buxoro shahridagi Fayzobod xonaqohi shayboniyalar davlati amaldorlaridan biri bo'lgan Do'stum Devonbegi tomonidan bunyod etilgan.

U Buxoro xonligida, Abdullaxon II davrida davlatning devonbegisi – bosh vaziri lavozimida, keyinchalik moliya va xazina ishlari bilan shug'ullangan mansabdor shaxs bo'lgan.

Xonaqoh so'nggi o'rta asrlarning dastlabki bosqichida, 1598-1599-yillarda bunyod etilgan.

Uning qurilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, tosh, loy, yog'och, toshlar va shunga o'xhash ashyolardan foydalanilgan. Xonaqoh ko'p xonali, peshtoq-gumbazli, tarhi 35x28,8 m. Markazida gumbazli katta xonaqoh (12,7x12,7 m), 3 tomonidan ravoqli bostirma (galereya) o'rab turadi. Old tomonida ulkan peshtoq, 2 yon tomonida 2 qavatli hujralar hamda ravoqli yo'lak joylashgan. Peshtoq va hujralar tobodoniga ganchkori panjaralar ishlangan, xonaqoh gumbazi 8 qirrali poygumbazga o'rnatilgan. Xonaga yorug'lik poygumbazdagi darchalardan tushadi. Uning ichi, gumbaz osti qirma pardozi naqsh bilan nafis bezatilgan. Kulrang va sariq ganchdan o'yib islimiy naqsh ishlangan. Bag'allari muqarnas bilan, hoshiyasi sodda naqshlar

bilan ziynatlangan. Xonaqoh Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida bunyod etilgan. Bu inshoot Buxorodagi boshqa me’morchilik namunalaridan biroz kichikroq bo‘lsa-da, pishiqligi, ixchamligi bilan boshqa obidalardan farq qilib turadi. Fayzobod xonaqohi ochiq ravoqli galereya shaklida qurilganligi bilan ajralib turadi.

1997-yil Buxoro shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Fayzobod xonaqohi ham ta’mirlandi. Inshoot atrofidagi yo’llarga toshlar yotqizildi va sayirgohga aylantirildi.

Xonaqoh o‘z davrida darveshlar va musofirlar uchun e’tiqod joyi bo‘lishi bilan birga, boshpana vazifasini ham bajargan.

Nodir Devonbegi madrasasi



Buxoro shahrining Labi hovuz ansamblı sharqiy qismida joylashgan Nodir Devonbegi madrasasi Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sultan) tomonidan bunyod etilgan. U yuz urug‘i boshliqlaridan bo‘lib, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan.

Madrasa 1622-1623-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Bu so‘nggi o‘rta asrlar davriga to‘g‘ri keladi.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoit haqida gapiradigan bo‘lsak, Imomqulixon taxtga chiqishidan biroz oldin taxtda Boqi Muhammad (1601-1605) hukmronlik qilar edi. U 1602-yilda Eron Safaviylariga zarba berib, Balkni kuch bilan bo‘ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1605-yil Boqi Muhammad vafot etgach, ukasi Vali Muhammad taxtga o‘tqazildi. Ichki kurashlar yana avj oldi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo‘ysunmay, muholifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirilganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadning o‘g‘li Imomqulixonni (1611-1642) o‘tkazadilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo‘sishinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoladi. Vali Muhammad asir olinib, qatl qilinadi. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o‘z tasarrufiga kiritdi. O‘g‘li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko‘paytirib, aholiga qattiq zulm o‘tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo‘zg‘olon ko‘tarildi va Iskandar sulton o‘ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo‘sish tortdi. Qo‘zg‘olonchilar ayovsiz jazolandilar. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixonidan keyin Nodir Muhammad (1642-1645) davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi.

Nodir Devonbegi madrasasi bunyod etilgan davrda Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar sulolasi hukmronlik qilar edi.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagisi xom va pishgan

g‘ishtlar, loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasi, tunuka, marmar, sement, tosh, ganch va shunga o‘xhash ashyolardan keng foydalaniilgan.

Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, hovli atrofida 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan o‘ralgan. Hujralarga o‘ymakori uslubida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o‘rnatilgan. Hovliga pishiq g‘isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog‘i o‘ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o‘simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bug‘uning o‘tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan hoshiyalari madrasa peshtoqiga, kitobasiga arabi yozuvlar bitilgan. Ustun go‘siasi burmasimon. Peshtoqining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardozlangan burchaklaridagi 2 guldasta ravoqdagi naqshlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan. Madrasa tarhi 52x49 m., hovli 34x30 m. ni tashkil etadi.

Me’moriy obida Sharq me’morchiligi an’analariiga tayangan, naqshinkor, “Chor” uslubida bunyod etilgan. Madrasa o‘z davrida ilm-ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan, u yerda talabalarga diniy va dunyoviy fanlardan saboq berilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasa holiga keltirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo‘q. Madrasa fasadining bezatilishi, fantastik qush tasvirining tushirilishi kabi jilolar bilan e’tiborlidir. Shu tomonlari bilan Buxorodagi boshqa me’moriy obidalardan ajralib turgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati: Madrasa bir necha marta ta’mirlanib, gumbaz, ravvoq va devorlaridagi namlik yo‘qotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklanganligini, Samarqand va Buxoro ustalarining sa’y-harakatlari bilan bosh tarzi qayta jilolanganligini aytib o‘tishimiz lozim.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Nodir Devonbegi madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjarlari me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Nodir Devonbegi xonaqohi



Buxoro shahrining Labi hovuz ansamblida joylashgan Nodir Devonbegi xonaqohi Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) tomonidan bunyod etilgan. U yuz urug‘i boshliqlaridan bo‘lib, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan.

Ushbu xonaqoh o‘rtalarning so‘nggi davrida, 1620-1621-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Me’moriy obida bunyod etilgan davr: Imomqulixon taxtga chiqishidan biroz

oldin taxtda Boqi Muhammad (1601-1605) hukmronlik qilar edi. 1605-yil Boqi Muhammad vafot etgach, ukasi Vali Muhammad taxtga o'tkazildi. Ichki kurashlar yana avj oldi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay, muholifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirilganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadning o'g'li Imomqulixonni (1611-1642) o'tqazadilar. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarrufiga kiritdi. O'g'li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko'paytirib, aholiga qattiq zulm o'tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo'zg'olon ko'tarildi va Iskandar sulton o'ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo'shin tortdi. Qo'zg'olonchilar ayovsiz jazolandilar. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiysi nisbatan mustahkamlandi.

Ashtarxoniyalar sulolasidan bo'lgan ushbu xon hukmronligi yillarda Nodir Devonbegi nomi bilan ikkita me'moriy inshoot bunyod etildi. Xonaqohning qurilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, loy, yog'och, tunuka va shunga o'xhash ashylardan foydalanilgan.

Nodir Devonbegi xonaqohi simmetrik arkli (27,5x25 m), kiraverishda ayvon, xonaqoh (11,2x11,2 m) va uning yon tomonlarida 2 qavatli darveshlar yotog'i bo'lgan. Guldastalar ichidagi aylana zina bilan bino tepasiga chiqiladi. Xonaqoh ulkan gumbazli, devorlariga taxmonlar ishlangan. Undagi serhasham naqshlar saqlanmagan. Peshtoq ravog'idagi 3 tobaddonni ganchkorri panjaralar bezagan. Nodir devonbegi xonaqohining hozirgi ko'rinishi o'zgarib muhtasham, salobatli, ko'rkam inshootga aylantirilgan. Peshtoqi hashamatli, ravog'inining qanosi ancha baland, ulug'vor, ayrim yerlarida koshinlarning parchalari saqlanib qolgan. 2 tomonidagi tagi qiralli guldasta mezanalar old ko'rinishiga salobat beradi. Xonaqohning 2 yonidan ham kiriladigan eshiklari bo'lgan. U o'z davrida darveshlar va musofirlar uchun ibodatxona, shu bilan birga, bospana vazifasini bajargan.

Me'moriy obidaning uslubiga to'xtaladigan bo'lsak, Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubda, eshiklari esa xotamkori uslubida ishlangan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, xonaqoh o'zining yechimi va kattaligi jihatidan Labi hovuzdagi boshqa inshootlardan qolishmaydi.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida so'z borar ekan, devorlari bir necha bor ta'mirlangani (1914-1916-yillarda Buxoroning oxirgi amiri Sayid Olimxon tomonidan ta'mirlangan)dan asl ko'rinishi o'zgargan. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizdag'i boshqa me'moriy obidalar qatorida ushbu inshoot ham ta'mirlandi. Xonaqoh YUNESKOning Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatidan o'rin olgan.

Abdulazizzon madrasasi



Buxorodagi me'moriy yodgorliklardan biri bo'lgan Abdulazizzon madrasasi ashtarxoniyalarning beshinchi vakili Abdulazizzonning buyrug'i bilan me'mor Mimxoqon ibn Xo'ja Muhammadamin tomonidan 1652-yilda qurilgan.

U o‘rta asrlarning songgi bosqichiga mansub bo‘lib, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida qurilgan.

Uning qurilishiga homiylik qilgan Buxoro xoni Abdulazizzon (1614-yil Balx – 1681-yil Makka) Nodir Muhammadxonning katta o‘g‘li bo‘lgan. 1626-yildan Xuttalon hokimi, 1630-yildan esa Balxning g‘arbiy tumanlari hokimi fazifasida faoliyat yuritgan. 1645-yildagi fitna natijasida Buxoro xonligi taxtini egallagan. Abdulazizzon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mam-lakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo‘shtigan. Buxoroda ko‘pgina muhtasham binolar qurdirgan (Abdulazizzon madrasasi va b.).

Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshyonli. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Islimiylar naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shipining ganchli muqarnaslari orasida islimiylar naqshlar va zarhal bezagi bor. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. Asosiy o‘lchami: atrof aylanasi 50x67 m., hovli — 28x35 metr bo‘gan. Madrasa XVII asrda Buxoro mahobatli me’morchiligining yetuk namunasidir.

Bugungi kunda madrasa hovlisida sayyoohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalari ko‘rsatiladi. Shimoliy-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog‘och o‘ymakorligi namunalaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilgan.

O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Abdulazizzon madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

Chor Minor majmuasi



Chor Minor me’moriy obidasi Xalfa Niyozqul tomonidan bunyod etilgan. Ushbu inshootning qurilishiga homiylik qilgan Xalfa Niyozqul turkman urug‘idan bo‘lib, Amir Haydar hukmronligi davrida yirik davlat lavozimlarida ishlagan. U XIX asrning o‘rtalarida vafot etgan.

Chor Minor Buxoroda mang‘itlar sulolasiga hukmronligi davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning o‘ziga xos tomoni shundaki, u to‘rtta minora bilan o‘rab olingan O‘rta Osiyodagi yagona inshoot hisoblanadi.

Chor Minor me’morchilik majmuasi so‘nggi o‘rta asrlarning oxirgi davrlarida (XIX asrda), 1807-yilda bunyod etilgan. Me’moriy obidaning qurilishida har xil o‘lchamdagisi xom va pishgan g‘ishtlar, loy, yog‘och, tosh va shunga o‘xshash mahsulotlardan keng foydalilanilgan.

Majmua chor qavatli minora, an'anaviy usulda qurilgan masjid, bir qavatli madrasa, atrofi bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan hovlidan iborat. Sinchli peshayvon tipidagi masjid hovlining janubiy-g‘arbiy burchagida joylashgan (nomi ham shundan). Minoralarning tepa qismi gumbaz shaklida yakunlangan bo‘lib, ular sirkori koshinlar bilan bezatilgan. Ikki qavatli xonaning birinchi qavati miyonsaroy ko‘rinishida bo‘lib, izoralari toshlar bilan qoplangan, tomi gumbazli, ikkinchi qavati kutubxona, kutubxonaning shifti pastak gumbazli bo‘lib, sodda muqarnaslar halqasi bilan to‘ldirilgan. Ikkinchi qavatga minoralarning biridagi zina orqali chiqiladi.

U o‘z davrida masjid, madrasa, darveshlar va musofirlar tunab qolishi mumkin bo‘lgan xonaqoh vazifasini bajargan. Chor Minor majmuasi Sharq me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, an'anaviy “Chor” uslubda bunyod etilgan.

Me’moriy obida bugungi kunda ham o‘z davridagi vazifasini saqlab qolgan.

U Buxoro shahridagi boshqa me’moriy obidalar qatorida YUNESKO tashkilotining “Butun Jahon madaniy yodgorliklari” ro‘yxatiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish” hamda 2008-yil 12-sentabr “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunlari madaniy meros obyektlarining huquqiy kafolatidir. Yuqoridagi qonunlar ijrosi sifatida me’moriy obidaning ta’mirtalab qismlari qayta tiklandi, yon-atroflari ko‘kalamzorlashtirildi.

Setorai Mohi Xosa



Tarixiy obida Buxoroning mang‘it sulolasiga mansub amirlari Amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahad (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920)lar tomonidan qurilgan.

Amir Nasrullo Amir Haydarning uchinchi o‘g‘li – Buxoro taxtiga 1826-yilda chiqqan. U 1837-yili 40 mingdan iborat muntazam qo‘sishin va 2,500 dan iborat to‘pchilar qo‘shiniga Rossiyan dan mutaxassislar jalg qilgan. 1856-yilda Buxoro amirligi uzoq vaqt bo‘ysunmagan Kitob, Shahrisabz bekliklarini bo‘ysundirdi.

1860-1885-yillar hukmronlik qilgan Amir Muzaffar Nasrulloning katta o‘g‘li. Uning davrida Buxoro amirligi Rossiya protektoratligiga aylandi. Amir Abdulahad davrida me’moriy inshootning katta qismi bunyod etildi. Uning Kavkazda, Qirimda va Sibirda saroylari bo‘lgan.

Amir Olimxon 1910-yili taxtga chiqqan va 1920-yil uning taxtdan tushishi bilan Buxoro amirligi tugatildi. Amir Olimxon davrida Setorai Mohi Xosaning qurilishi yakunlandi. U 1944-yil vafot etgan.

Sitorai Mohi Xosanining qurilishi XIX asrning o‘rtalarida boshlangan va 1914-yilda qurib bitkazilgan. U Buxoro shahri markazidan 2,5 km janubda, Buxoro tumani bilan chegaradosh hududida joylashgan.

Setorai Mohi Xosanining qurilishi yangi tarix davriga, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratligi davriga to‘g‘ri keladi.

Me’moriy inshootning qurilishida bir qator ashayolar ishlatalgan: g‘isht (xom va pishgan), faner, yog‘och ayniqsa tut va yong‘oq daraxti, marmar, oyna, tunuka, tosh, cho‘yan, temir va boshqalar.

Uning dastlabki imoratlari Amir Nasrullo hukmronligi davri (1826-1860-yillar) qurilgan. Biroq bu yerda saroy va hushmanzara bog‘ barpo etish Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885-1910-yillar) boshlangan. Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910-1920-yillar) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroyga ajratilgan.

Eski saroy uch hovlidan va ko‘pgina xonalardan iborat ansamblidir. Bu yerdagi eng eski xona Amir Muzaffarxon mehmonxonasi (1860-1885-yillar) keng va baland zal, ikki tomonidagi boloxonali ayvonlar, yevropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi. Mehmonxonaning devoriy rasmlari va ranglarida motivlar uyg‘unlashtirilgan.

Uch qismga bo‘lingan kvadrat xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon zali boshqacharoq ishlangan. Bir-biriga ro‘para joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan ikkita zal o‘rtadagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g‘arb tomonida taxt o‘rnatilgan. Abdulahadxon va Muzaffarxon zallarining badiiy bezaklarida o‘xshashlik tomonlari juda ko‘p.



Eski Sitorai Mohi Xosanining sharq tomonida Amir Olimxon hukmronligi davrida qurilgan bosh qarorgoh alohida me’moriy ahamiyatga ega. Unga koshin va rangli shisha bilan bezatilgan tantanavor peshtoq – muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Bu kompleksni tiklashdan avval Buxoroning eng yaxshi ustalari Rossiyaga rus me’morlarining tajribasini o‘rganish uchun yuborilgan. Shundan keyin Xoja Hofiz rahbarligidagi buxorolik ustalar kuchi bilan hovlining janub tomonida ansamblning birinchi binosini tiklashga kirishgan. Qurilish rus injenerlarinig nazoratida bo‘lgan. Bosh binoni barpo etish jarayonida Yevropa bilan Isfagan saroylari arxitekturasi va Buxoroning boy turar-joylari binolarining me’moriy yechimlaridan foydalanilgan. Bino chiroyli me’moriy yechimga ega, biroq sintez ishi sohasida uncha tajribaga ega bo‘lman ustalar uchun murakkab bo‘lganligi sababli, binodagi tron zali antresol va arkalar bilan tig‘izlashtirib yuborilgan.

Ushbu binoga kiraverishda eshikning ikki tarafiga o‘sha vaqtida hali unchalik tajribaga ega bo‘lman nuratolik ustalar tomonidan marmardan tayyorlangan sherning haykali o‘rnatilgan. Biroq keyinchalik katta tajriba ega bo‘lgan o‘sha ustalar kompleksdagi hovuzning suv tushishi uchun mo‘ljallangan marmar novalarni kamko‘stsiz tayyorlab bergenlar.

Hovlining ikkinchi tomoniga, bu bino bilan yonma-yon, unga tik qilib g'arb tomonda 1912-1914-yillarda katta badiiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob Oq zal qurilgan. Bu zal va uning dahlizi buxorolik ustalar tomonidan milliy uslubda ko'rakm ishlangan. Oq zal ganchkorlik va ganch o'ymakorligi san'atining eng so'nggi yutuqlari asosida usta Shirin Murodov rahbarligida 25-30 ta qo'li gul ustalar tomonidan ikki yil davomida ajoyib qilib ishlangan.

Bino ichi noyob me'moriy yechimga ega. Oq zalning intererini bezatishda o'sha davrgacha ma'lum bo'lgan eng yaxshi tajribalar o'z aksini topgan. Devor va shiftlarda panno ko'rinishidagi oynalar ustida ishlangan ganchkorlik mahsuli kishi ko'zini qamashtirib yuboradi. Ishlatilgan oynalar devor va shiftda bejirim bezaklar ostidagi fon vazifasini bajargan.

Yangi saroy "II" shaklida bunyod etilgan. Saroy rejasida, bezak va jihozlarida Sharq va yevropacha uslublar ma'lum darajada uyg'unlashgan. 1917-1918-yillarda zinali hovuz barpo etilgan, u ansambl me'morchilikida katta ahamiyat kasb etgan.



1917-1918-yillarda hovlining uchinchi – shimol tomonida hovuz oldida yevropacha uslubda ishlangan peshayvonli bino qurilgan. Demak, me'moriy kompleksni barpo yetishda aralash, milliy va yevropacha usullardan foydalaniłgan.

Sitorai Mohi Xosaga kiraverishda tashqi hovli, uning janubiy-g'arbiy tomonida kichik hovlili xazinaxona, janubiy-sharqdagi qarama-qarshi burchakda yozgi dam olish joyiga kiriladigan darvoza bor. Yozgi dam olish joyi bog'ning to'rida bo'lib, bino kichik hovli va hovuzchaga ega. Dam olish joyining atrofi baland imorat bilan o'ralgan bo'lgan. Bino assimetrik yechimda milliy tusda chiroyli ishlab chiqilgan.

Me'morchilikning keyingi tarixi Markaziy Osiyo, Turkiston, shu jumladan, Buxoroni ham rus qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilishi bilan bog'liq bo'lgan. Avvalo, ularning manfaatini ko'zlovchi ba'zi bir inshootlar qurilgan. Temir yo'l, 20 tacha kichik paxta tozalash zavodlari va boshqalar shular jumlasidandir.

O'sha davrda Buxoroda bir necha norozilik harakatlari bo'lib o'tgan. Ana shundaylardan biri 1919-yilda yuzaga kelgan. Biroq, 1920-yil 2-sentabrda rus qo'shinlari tomonidan amirlik qulatilgan. Buxoro amirligining 16 vagon oltin, kumush va shunga o'xshash boshqa qimmatli buyumlari tashib ketilgan.

Rossiya tomonidan Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR) tashkil qilingan. 1921-yil 14-martda BXSR bilan Rossiya o'rtasida ittifoqchilik shartnomasi va iqtisodiy kelishuv imzolangan.

Saroy Buxoro amiri Olimxonning yozgi qarorgohi bo'lgan. Amir bu yerdan yozgi dam olish maskani sifatida foydalangan. Bundan tashqari Amir chet el elchilarini va rus vakillarini shu yerda qabul qilgan.

Me’moriy inshoot g‘arb va Sharq me’morchiligi asosida qurilgan. Oq zalning qurilishida yevropacha qurilish uslubi ustunlik qiladi.

Bugungi kunda inshootning ta’mir talab qismlari qayta rekonstruksiya qilingan. Inshootning kirish joyida xalq amaliy san’ati namunalari bo‘lgan buyumlar savdo rastasi mavjud. Hovlida esa tovuslar, Oq zalda amirlik huzurida bo‘lgan chet el elchilarining billur vaza, qimmatbaho gilamlar, guldonlar kabi sovg‘alaridan iborat.

O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Setorai Mohi Xossa saroyi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

SAMARQAND ME'MORCHILIGI

Bibixonim madrasasi



Bibixonim madrassasi Amir Temurning katta xotini Bibixonim (Saroymulkxonim) tomonidan bunyod etilgan.

Inshootning qurilishiga bosh-qosh bo'lgan Bibixonim (asl ismi Saroymulkxonim) (1341-1408) – Amir Temurning katta xotini, Chig'atoy ulusi xoni – Qozonxonning qizi. Dastlab amir Qozag'onning nabirasi – Husayn ibn Musallabga (1355), keyin (Husayn qatl etilgach) Amir Temurga nikohlangan (1370). Saroymulkxonim hukmdor haramidagi barcha malikalardan ulug'i

hisoblanib, "Katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvonga sazovor bo'lgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Bibixonim o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatgo'y va yetuk aql-zakovat sohibasi, shuningdek, husn-latofat bobida ham benazir edi. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan. Ayniqsa, ilmma'rifatga alohida e'tibor berar, tolibi ilmlarga homiylik qilar edi. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida ko'pincha hamrohlik qilgan. Bibixonim o'z jamg'armasidan Samarqandda ulkan madrasa qurdirgan. Bibixonim farzand ko'rmagan bo'lsa-da, Sohibqiron o'z nabiralari – Muhammad Sulton, Halil Sulton, Ulug'bek va boshqa mirzolarni bevosita zukko Bibixonim tarbiyasiga topshirgan. Samarqandda Amir Temur Bibixonimga atab Bibixonim jome' masjidini qurdirgan.

Bibixonim madrasasi XIV asrning so'nggi choragida bunyod etilgan bo'lib, uning qurilishida xom va pishiq g'isht, loy, yog'och, maxsus "qir" qotishmasi va shu kabi ashyolardan keng foydalanilgan.

Me'moriy obidaning dizayni haqida gapi radigan bo'lsak, chortoqli keng xonaqoh, tepasi baland gumbaz bilan bog'langan. Devorlariga manzara naqshin gullar, serhasham bezaklar ishlangan. 4 tarafidagi keng derazalar – tobodonlar va eshiklar orqali xonaqoh juda yaxshi yoritilgan. Ostidagi tagxona – sardoba esa kichikroq bo'lib, devorlari yirik kulrang toshtaxtalar bilan bezatilgan. Tagxonada bir necha tosh tobutlar saqlangan. Me'moriy obidaning uslubini yoritadigan bo'lsak, Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, gumbazsimon "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Madrasa XIV asr oxirlaridagi eng yirik ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan va u yerda tolibi ilmlar astronomiya, geografiya, xandasasi, tarix, adabiyot, musiqa va boshqa fanlardan ta'lim olganlar.



Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, saroy tarixchisi G'iyosiddin Alining "Amir Temur 1399-yil 10-mayda madrasada to'xtab o'tganligi" haqidagi ma'lumoti hamda tarixnavis Fasih Havofifylarning (1375-1442) ta'kidlashicha, Amir Temur jome' masjidini kelib ko'rarkan, me'moriy masjmuada mutanosiblik buzilganligi – madrasa peshtog'i va ayvoni jome' masjidga nisbatan balandroq va qiyaroq bo'lib qolganligi uchun norozi bo'lgan va me'morlar (Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jald)ni jazolagan. Arxeologik qazishmalar ham shu nomutanosiblikni tasdiqlaydi. Bino peshtoqi qanchalik mahobatli bo'lmasin, uning qarshisidagi binoga monand emasligi ko'zga tashlanib qolgan. Me'moriy uslub talabiga ko'ra, nomaqbul tushgan madrasa peshtoqi buzib tashlashga mahkum bo'ldi. Shuning uchun ham keyingi asrlarda madrasa qoldiqlari buzib tashlandi.

Me'moriy obidaga O'zbekiston hukumati hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e'tiborga kelsak, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizdagi boshqa me'moriy inshootlar qatorida Bibixonim madrasasi ham ta'mirlandi. Jumladan, Tuman og'a xonaqohi Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan 1996-yilda ta'mir etilgan. Madrasa YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, davlatimiz tomonidan qabul qilingan shu kabi qonunlar me'moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo'lsak, mustaqillik yillarida olib borilgan ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari natijasida inshoot joylashgan hudud o'zgacha chiroy kasb etgan. Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan madrasa va atrofidagi qadamjolar yanada chiroy ochdi.

Bibixonim masjidi



Samarqandning Siyob bozori yonida joylashgan Bibixonim masjidi Amir Temur tomonidan 1399-1404-yillarda bunyod etilgan. Masjidni qurgan ustalar nomi ma'lum emas. Manbalarda masjidning qurilishida mahalliy ustalar bilan bir qatorda hind hunarmandlari qatnashganligi aytildi. Ushbu me'moriy obida O'zbekiston tarixida rivojlangan o'rta asrlar davri (XI-XV asrlar), yoki O'rta Osiyoda markazlashgan davlat barpo etilgan, ilm-fan ravnaq topgan davr me'morchilik namunasi hisoblanadi.

Masjid qurilishining g'oyaviy rahnamosi bo'lган Amir Temurning shaxsi haqida gapiradigan bo'lsak, u 1336-yil 9-aprelda Kesh shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani)da tug'iladi. Uning otasi Amir Tarag'ay barlos urug'ining oqsoqollaridan, onasi Takina xotun esa Kesh yurtining obro'li bekalaridan hisoblangan. Uning yoshligi Keshda kechadi. Keyingi hayot davri ikkiga bo'linadi. Birinchi davri (1360-1370) Movarounnahrni mo'g'ullardan ozod qilib, o'zaro urushlarga barham berish va markazlashgan davlat barbo etish bilan o'tadi. Ikkinchisi

davri esa (1370-1405) 3 yillik, 5 yillik, 7 yillik deb ataluvchi yurishlari bilan xarakterlanadi. U 1370-yilda Movarounnahr amiri bo‘ladi. Mamlakat boshqaruviga oid “Temur tuzuklari” nomli asar yaratadi. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Xitoyga yurishi chog‘ida, O‘trorda vafot etadi.

Masjid bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoit haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu paytda Amir Temurning Eron, Old Osiyo, Kichik Osiyoga qarshi “Yeti yillik yurishi” amalga oshirilayotgan edi. Temuriylar sulolasining asoschisi va eng yetuk davlat arbobi Amir Temur hukmronligi davrida Movarounnahrda markazlashgan davlat yuzaga keldi. Buning natijasida, davlatda ilm-fan va madaniyat yuksaldi. Yurik-yirik me’moriy obidalarning bunyod etilishiga barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Masjidning o‘ziga xos tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Temurning katta xotini Saroymulkxonim (Bibixonim) nomi bilan bog‘liqligini aytib o‘tish joiz. Jome’ masjidi Samarqandning eng hashamatli va go‘zal obidalaridandir. Manbalarda qayd etilishicha, u boshqa binolardan o‘ymakor marmardan yasalgan 480 pillapoya ustunlari, darvozaband ulkan ravoqi, masjid binosining bahaybat gumbazi, peshtoqining mahobati va quyosh nurida turli rang ko‘rinishda tovlanib turuvchi maftunkor, jimjimador bezaklari bilan o‘zgacha bir tarzda ajralib turgan. Masjid qurilishi Amir Temur farmoni bilan boshlanadi. Dastlab masjidning asosiy mehrobi binosi quriladi. 1401-yilning yozida katta peshtoq qurilishi nihoyasiga yetkaziladi. 1402-yildan 4 ta minora qurilishi boshlanadi (1 ta minora saqlanib qolgan) Keyinchalik, Mirzo Ulug‘bek tomonidan masjid ichiga Qur’oni qo‘yish uchun lavh yasatilgan.

Bibixonim masjidi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, umumiy qismi “Chor” uslubda qurilgan. Jumladan, masjid hovlisining sahni 63,8x76 metrni tashkil qilgan. Shuningdek, to‘rt tomondan ravoqlar va peshtoqlar bilan o‘ralgan. Uning umumiy sahni 167-109 metr, burchaklarida baland minoralar qurilgan (4 ta). Peshtoq an’anaviy uslubda, uning ortidagi xona dastlab kubsimon prizma, uning ustida 8 qirrali prizma gumbazga tutashtirilgan poygumbaz qilib ishlangan. Ushbu me’morchilik an’anasi Sharq xalqlarida islom dinining yuksak darajada qadrlanganligidan dalolat beradi. Masjidning gumbazli bo‘lganligi, muazzinlarnig azon aytishlari uchun minoralarning mavjudligi ham islom me’moriy obidasi ekanligidan dalolat beradi.

Masjidning dizayni ham temuriylar davriga oid boshqa me’morchilik namunalaridan qolishmagan. Masjid devorlari naqqoshlik bezaklari va bo‘rtma naqshlar bilan pardozlangan. Jimjimador shakllar va chinni gulli naqshlar pechak kabi bir-biriga chirmashib ketgan. Ularda ko‘k rang ko‘p qo‘llanilgan. Masjidning ichki devorlari 3 qavatli diniy xatlar bilan hoshiyalangan.

Masjidning bugungi kunda bir-biri bilan bog‘lanmagan 6 ta me’moriy bo‘laklari saqlanganligini aytish joiz. Bular hovlining to‘ridagi mehrobli va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo‘lingan peshtoqi va shimoliy-g‘arbiy tomonda minora bo‘lgan. Hovliga darvozaxona orqali kirilgan. Hovli sahnida marmor toshtaxtachalar yotqizilgan. Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko‘p qirrali minora bo‘lgan. Poygumbazga Qur’on oyatlari bitilgan. Masjidga kiraverishdagi peshtoqning yuqori

qismi 1897-yilgi zilzilada qulagan. 1865-yilda chor qo‘sishlari masjidni vayron qilgan. Hozirda esa bu joylar ziyoratgohga aylandi.

Qurilishda xarsang tosh, marmar, maxsus “qir” qotishmasi, taxta, loy va turli o‘lchamdag‘i pishiq g‘isht kabi ashylardan foydalanilgan.

Bibixonim masjidi o‘z davrida Samarqandning markaziy jome’ masjidi vazifasini bajargan va u yerda hayit namozlari, juma namozlari o‘qilgan.

Bibixonim masjidiga mustaqillik yillarda hukumatimiz tomonidan, qolaversa, Xalqaro tashkilotlar tomonidan munosib ravishda e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining “Amir Temur tavalludining 660 yilligi” haqidagi qaroriga (1994-yil 29-dekabr) asosan, masjidda katta ta’mirlash ishlari olib borildi. 2007-yil Samarqand shahrining 2750 yillik yubeliyi munosabati bilan masjid to‘la ta’mirlandi. Shuningdek, 2001-yilda YUNESKOning Finlandiyada o‘tkazilgan 25-syezdida Samarqandning 73 ta me’moriy yodgorligi jahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Bu ro‘yxatdan Bibixonim masjidi ham o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Masjidda tarixchi-archeologlar, arxitektorlar tadqiqot ishlarini olib borishdi va u haqida bir qancha ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar yozildi. Hozirda masjid davlat himoyasiga olingan tarixiy-moddiy yodgorlik hisoblanadi.

Amir Temur maqbarasi (Go‘ri Amir)



Go‘ri Amir me’moriy yodgorligi temuriylar daxmasi sifatida Amir Temur tomonidan bunyod etilgan.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani)da tug‘iladi. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos urug‘ining oqsoqollaridan, onasi Takina Xotun esa Kesh yurtining obro‘li beklaridan hisoblangan. Uning yoshligi Keshda kechadi. Keyingi hayot davri ikkiga bo‘linadi. Birinchi davri (1360-1370) Movarounnahrni mo‘g‘ullardan ozod qilib, o‘zaro urushlarga barham berish va markazlashgan davlat tuzish bilan o‘tadi. Ikkinci davri esa (1370-1405) 3 yillik, 5 yillik, 7 yillik deb ataluvchi yurishlari bilan xarakterlanadi. U 1370-yilda Movarounnahr amiri bo‘ldi. Mamlakat boshqaruviga oid “Temur tuzuklari” nomli asar yaratadi. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Xitoya yurishi chog‘ida, O‘trorda vafot etadi.

Me’moriy inshoot bunyod etilgan davrdagi shart-sharoit haqida gapiradigan bo‘lsak, bu paytda Anqara yaqinida Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo‘sishlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Uch kun davom etgan jangda har ikki tomonidan hammasi bo‘lib 360 ming, Amir Temurning taxminan 200 ming, usmonlilar sultonining 160 ming askari qatnashgan. Uzoq davom etgan jangda Amir Temur qo‘sishlari g‘alaba qozondi. Natijada Sulton Boyazid va uning o‘g‘li Muso Chalabiy

ham qo‘lga olinadi. Misr esa Amir Temurga o‘z itoatkorligini e’lon qiladi.

Me’moriy obidaning bunyod etilgan davri va tarixi: 1403-yil Amir Temurning Anqara jangidan qaytishi paytida suyukli va to‘ng‘ich nabirasi Muhammad Sulton to‘satdan vafot etadi. Samarqandda uning qabri ustida maqbara qurilishi boshlanadi va keyinchalik Go‘ri Amir deb nom olgan yodgorlik majmuasi qad ko‘taradi.

Me’moriy obida qurilishida xom va pishgan g‘isht, loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasi, oltin, kumush, marmar, nefrit toshi va shu kabi ashylardan foydalanilgan.

Maqbaraning pastki qismi to‘rtburchak, ya’ni ”Chor” uslubda, tepe qismi esa Sharq an'analarini o‘zida mujassam etgan gumbaz uslubida qurilgan.

Me’moriy obida sayqallanishida reylefli bezak qo‘llanilgan bo‘lib, bu uslubda ishlangan jahondagi ikkita asar ham Samarqandda



(Bibixonim masjidi va Amir Temur maqbarasi), temuriylar davrida amalga oshirilgan. Bizgacha inshootning, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbarasi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan madrasa va xonaqoh qoldiqlari topilgan. Madrasa va xonaqoh chorusu hovlisining sharqiy va g‘arbiy tomonlarini egallagan. Hovlining janubida gumbazli maqbara joylashgan. Maqbara janubdan Ulug‘bek qurdirgan darcha (1424) orqali kiriladi. Maqbaraning chortoq tarhli ziyoratxonasi baland toqi – ravoqli, tepasi yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashqi gumbazi 64 qobirg‘ali, baland poygumbaz (diametri 15 m., balandligi 12,5 m)ga o‘rnatalgan. Ziyoratxonaning sharqiy qismidagi ravoqdan zina orqali ostki qavatdagi go‘rxonaga tushiladi. Go‘rxona 8 qirrali. Ziyoratxona serhasham bezaklarga boy. Bo‘rtma bezak qandillar zaminiga lojuvard rang gullar ishlangan. Izorasi esa yashil toshdan girrix shaklida terilgan. To‘rtta chuqur ravoqlaridagi darchalarga rangli oyna o‘rnatalgan. Oltin va kumush qandillardagi shamlar yonganda ziyoratgoh ichkarisi ulug‘vor va afsonaviy tus olgan. Tashqarisi sirkor g‘ishtchalar bilan bezatilgan, gumbaz va uning poyidagi bezaklar, turli adabiy yozuvlar alohida ko‘zga tashlanadi. Maqbara darchalarida yog‘ochdan ishlangan nafis panjaralar, eshiklarida esa murakkab qo‘sh zaminli o‘ymakor bezaklar bo‘lgan. Maqbaraning g‘arbiy tomoniga baland peshtoq yondashgan. Taxminlarga ko‘ra, bu peshtoq qoldiqlari XVII asrga mansub. Maqbaraning mutanosiblik nisbati, naqshlari, turli bezaklari katta mahorat bilan bajarilgan. U xalq orasida Go‘ri Amir yoki Go‘ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga Temuriylarga mansub kishilar (Amir Temur va uning piri Mir Sayyid Baraka, o‘g‘illari Umarshayx, Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug‘bek va boshqalar) dafn etilgan. Qabrlarning to‘rida Amir Temurning piri, harbiy yurishlarida unga hamroh bo‘lgan va uning yuksak, hurmatini qozongan Mir Sayyid Baraka sag‘anasi joylashgan. Sayyid Baraka qabrining oyoq tomoniga Amir Temurning o‘zi dafn qilingan. Uning uch tomonida Muhammad Sulton, Mironshoh Mirzo, Umarshayx qabrlari bor. Keyinchalik bu yerga Temurning nabiralari va evaralarining qabr toshlari qat‘iy tartibda joylashtirilgan. Temur sag‘anasiga qo‘yilgan ko‘k nefrit qabrtoshini

Mirzo Ulug‘bek 1425-yil Mo‘g‘ulistonga qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshdagi lavhada Temurni ulug‘laydigan so‘zlar, uning shajarasi hamda marsiyalar o‘ymakori naqshlarda bitilgan. Hamma sag‘analar Ulug‘bek tomonidan yaxlit o‘yma marmar panjara bilan o‘ralgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, mustaqillikdan so‘ng olib borilgan ta‘mirlash, obodonlashtirish ishlaridan keyin inshootning ichki va tashqi qismlarini ko‘rkamlashganini ko‘rshimiz mumkin.

Me’moriy obidaga mamlakatimiz hukumati hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizdagi boshqa tarixiy inshootlar singari Go‘ri Amir inshootining ham ta‘mirtalab qismlari qayta tiklandi. Gumbazi qayta tiklanib, xonaqoh va madrasa qoldiqlari kavlab topildi, ichki va tashqi bezaklar ta‘mir etildi. 1941-yilda musulmon odatiga zid ravishda Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek qabrlari ochib tekshirildi. Me’moriy majmuada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991-1996-yillarda ta‘mirlash ishlari olib borildi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, madrasa YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. Tarixiy yodgorliklarni saqlash va asrab-avaylashga oid davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Me’moriy obidaning nima vazifalarni bajarganligi haqida gapiradigan bo‘lsak, maqbaradan buyuk shaxslarning sag‘analari joy olgan. Me’moriy inshoot muqaddas qadamjolardan biri sifatida xalq tomonidan e’zozlangan.

Ulug‘bek madrasasi



Tarixiy obida Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan.

Asl ismi Muhammad Tarag‘ay bo‘lgan Ulug‘bek Amir Temurning kenja o‘g‘li Shohruhning to‘ng‘ich o‘g‘li, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniyah shahrida tug‘ilgan. U 1409-yil otasi Shohruhning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha

hukmronlik qilgan. U hukmdor bo‘lishi bilan birgalikda, buyuk olim bo‘lib, astronomiyaga oid “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarini, tarixga oid “To‘rt ulus tarixi” asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrda Temuriy shahzodalar o‘rtasida o‘zaro taxt uchun kurashlar kechayotgan davr edi. Shunday sharoitda Temurning kichik o‘g‘li Shohruh 1409-yil Xuroson va Movarounnahrni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Ulug‘bek esa Movarounnahrning hukmdori sifatida siyosiy faoliyatini boshladi. Ulug‘bek hukmronligi davrida Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, binokorlik yuksak darajada rivojlandi.

Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi XV asrning birinchi choragida, 1417-1420-yillarda bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning qurilishida bir qator ashyolar ishlatalgan: g‘isht (xom va pishiq), loy, yog‘och (tut va yong‘oq)lardan keng foydalanilgan. Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, 2 qavatli, to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli (56x81 m), bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravot (balandligi 16,5 m), uning 2 yonida guldastalar (balandligi 32 m) mavjud bo‘lgan.



Guldasta tepasi muqarnas, sharafalar bilan yakullangan. Peshtoq ravog‘i cheti morpech shaklida. Peshtoqi, gultastasi va tashqi devorlarida girrix naqshining turli namunalari aks etgan. Moviy va ko‘k koshin hamda sopol g‘ishtlar vositasida Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi geometrik naqshlar bilan bezatilgan devor sathi yozuvlar bilan o‘zaro uyg‘unlashib,

ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Peshtoq orqali hovliga o‘tiladi. Hovli atrofi 2 qavatlari hujralar (48 ta) bilan o‘ralgan. Madrasaning shimoliy va janubiy tarzları o‘rtasida tashqi tomondan alohida peshtoqlar bor. Madrasaning 4 tomonini darsxona va ayvon egallagan. Masjid janubiy-sharqiy tomonga cho‘zilgan. Tashqi to‘rt burchagida 4 ta baland minora bor. Xonaqoh va ba’zi hujralar ichkarisi naqshin bezaklar bilan pardozlangan. Bezaklari orasida kufiy va suls yozuvlari uchraydi.

Madrasa qo‘sminorali, Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, gumbazli, arkli, “Chor” uslubida qurilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, madrasa Registon maydonidagi birinchi qurilgan inshoot.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapirsak, vayron bo‘lgan, 2-qavati qiyshaygan guldastasi, devorlaridagi o‘chib ketgan bezaklari qayta tiklangan (1936), V.Shuxov va M.Mauerlar loyihasi asosida shimoli-sharqiy minorasi ta’mirlangan (1932). E.Gendel qiyshaygan minorani o‘z holiga keltirgan (1965). Tamirlashda A.Umarov, Sh.G‘afurov, K.Jalilov, I.Shermuhammedov, A.Quliev kabi ustalar ishlagan.

Me’moriy obidaga O‘zbekiston hukumati hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizdagi boshqa me’moriy inshootlar qatorida Ulug‘bek madrasasi ham ta’mirlandi, bundan tashqari Samarcand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, madrasa YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga

kiritildi. Hozirda Registon maydoni yurtimiz va chet el sayyoohlarining doimiy ziyyaratgohiga aylangan.

Ulug‘bek rasadxonasi



Rasadxona Mirzo Ulug‘bek tashabbusi va homiyligida bunyod etilgan.

Mirzo Ulug‘bek Amir Temurning kenja o‘g‘li Shohruhning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug‘ilgan. U 1409-yil otasi Shohruhning yordamida Mavarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo‘lib, astronomiyaga oid “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarini, tarixga oid “To‘rt ulus tarixi” asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan.

Rasadxona rivojlangan o‘rta asrlarning so‘nggi davrida, XV asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri bo‘lib, Mirzo Ulug‘bek farmoyishi bilan 1424-1429-yillarda bunyod etilgan.

Uning geografik joyini G‘iyosiddin Jamshid tanlagan bo‘lib, Samarqanddagi Ko‘hak (Cho‘ponota) tepaligidagi, Obirahmat anhori bo‘yida bunyod etilgan. Me’moriy obida bunyod etilgan davrda Temuriylar hukmronlik qilar edi. Bu davrda mamlakatda madaniyat, savdo-sotiq, ilm-fan rivojlandi.

Mavarounnahrda nisbatan osoyishtalik o‘rnatilgan bo‘lsa-da, Ulug‘bek 1425-yilining erta bahorida otasining roziligi bilan Mo‘g‘uliston ustiga yurish qiladi. Issiqko‘l yaqinida sodir bo‘lgan jangda Ulug‘bek mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonadi va mamlakatning sharqiy chegaralarini mustahkamlab oladi. Ulug‘bek hukmronligi davrida mamlakatda ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq rivojlandi. Savdoni rivojlantirish maqsadida u 1428-yili mamlakatda fulusiy pullarni zarb qildirdi. Xalq orasida ular “fulusi adliya”, ya’ni “adolatli chaqa” nomi bilan shuhrat topgan. Ulug‘bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko‘paytirish maqsadida tamg‘a solig‘ini birmuncha oshirdi, bu esa mamlakat iqtisodini rivoj topishiga xizmat qilgan.

Ulug‘bek rasadxonasi qurilishida xom va pishgan g‘isht, loy, taxta va shu kabi ashylardan foydalanilgan.

Rasadxona ulkan silindr shaklida bunyod etilgan; ayrim qo‘lyozmalarga ko‘ra, balandligi 31 m dan iborat 3 qavatlil qilib qurilgan. Ulug‘bek rasadxonasing arxeologik qoldiqlari 1908-yil V.L.Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari asosida topildi. Xususan, bu yerda diametri 48 m keladigan, qalinligi bir g‘isht bo‘lgan aylanma devor borligi va uning markazida qo‘shaloq yoydan iborat bosh qurilmaning qoldig‘i mavjud bo‘lganligi aniqlangan. Uning katta zallari, turli katta-kichik xonalari bo‘lgan. Boburning yozilishicha, Ulug‘bek rasadxonaning sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan.

Ulug‘bek rasadxonasi me’morchilikning o‘ziga xos, teng diametrli yumaloq uslubida bunyod etilgan.

Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m.li qo‘shaloq yoydan iborat kvadrat qurilma

hisoblanadi. Kvadratning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimoliy tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga to'g'ri keladi. Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari – ekvator va ekleptika orasidagi burchakni o'lhash, yillik protsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergen. Mirzo Ulugbekning eng yirik astronomik asari “Ziji jadidi Ko'ragoniy” ham rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulugbek taklifi bilan yig'ilgan mashhur olimlar G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog'liq.

Rasadxona o'z davrida yirik astronomik kuzatuv majmuasi vazifasini o'tagan.



Unda mavjud bo'lgan asbob-uskunalar yordamida quyosh, oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo'lsak, mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizdagi boshqa me'moriy obidalar singari ta'mirtalab qismlari qayta tiklandi. Bundan tashqari Samarcand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan ko'pgina ishlar amalga oshirildi.

Shayboniyxon madrasasi.

Shayboniyxon madrasasi Mehr Nigor xonim madrasasi deb ham ataladi. Chunki bu madrasani Shayboniyxon suykli xotini Mehr Nigorga atab bunyod ettirgan.

Me'moriy obidani bunyod ettirishga homiylik qilgan Sulton Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) Movarounnahrdagi shayboniylar sulolasi asoschisi, Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog' sultonning o'g'li. Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo'ygan. Otasining erta vafotidan so'ng bobosining qaramog'ida qolgan Sulton Muhammad Shaybon Boyshayx otalig'ida voyaga yetgan. U XV asrning 80-yillarida Abulxayrxon vafotidan so'ng Dashti Qipchoqning asosiy hududida o'z hukmronligini o'rnatmoqchi bo'lgan. U 1490-yillardan o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan Temuriylar hududi bo'lgan Movarounnahrda ham o'z hukmronligini o'rnatish uchun harakat boshlagan. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahrga qilgan yurishlari natijasida hokimiyat boshqaruvi uning qo'liga o'tgan. U o'zbek, fors tillarida g'azal, ruboiylar ham bitgan. Uning ana shu g'azal, ruboiylaridan ayrimlari va “Baxr-ul xudo” nomli dostoni, o'g'li Muhammad Temur sultonga atab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitobi (yagona nusxasi Turkiyada saqlangan) bizgacha yetib kelgan. Shayboniyxon Turkistonning Sig'noq, Sabron, Yassi shaharlarini ham o'z qo'l ostiga kiritgan. 1504-yil Hisor,

Qunduz, Badaxshon, 1505-yilda Xorazm, 1507-yilda Hirot ham Shayboniyxon qo‘l ostiga o‘tgan. Keyinroq Eronning Mashhad va Tuya shaharlarini ham egallagan. 1510-yilda Marv yaqinidagi Tahrirobod qishlog‘ida Eron shohi Ismoil Safaviyning 12 ming kishilik askari bilan Shayboniyxon qo‘smini o‘rtasidagi jangda uning qo‘sishinlari mag‘lubiyatga uchragan va Shayboniyning o‘zi halok bo‘lgan. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan. Baland Sufa Registon maydonida, Tillakori va Sher dor madrasalari o‘rtasidagi burchakda joylashgan bo‘lib, bu yerga keyinchalik boshqa shayboniylar ham dafn etilgan.

Me’moriy obidaning bunyod etilgan sanasi haqida yagona bir to‘xtamga kelinmagan bo‘lsa-da, uning qurilishi Shayboniylar sulolasiga davrida, XVI asrning boshlarida boshlangan, bitgan sanasi 1515-yil ekanligi ayrim manbalar orqali bizga yetib kelgan.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagisi xom va pishgan g‘isht, yog‘och, qum, tosh va shu kabi ashylardan foydalanilgan.

Me’moriy obidaning uslubini yoritar ekanmiz, inshoot Sharq me’morchiligi an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning nima vazifalarni bajarganligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘z nomidan ham ma’lumki, inshoot ta’lim maskani bo‘lib xizmat qilgan.

Shayboniylar daxmasi



Samarqanddagi o‘rta asr me’moriy yodgorligi hisoblangan Shayboniylar daxmasi XV asrda shayboniylar sulolasiga mansub hukmdorlar tomonidan bunyod etilgan qabr-maqbaralar majmuidan iborat.

Shayboniyxon 1510-yil Eron shohi Ismoil I Safaviy bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgach, Samarqandga olib kelinib, o‘zi qurgan madrasada marmar supa ostiga dafn etilgan. Supa ostiga Shayboniyxonidan tashqari boshqa shayboniy sultonlar va malikalar: Mahmud Sulton (1503-1504-yillar oralig‘ida o‘ldirilgan), Maxdiy Sulton, Hamza Sulton (1511-yil o‘ldirilgan), Muhammad Temur Sulton (1511-yil vafot etgan), Qutlug‘ Muhammad Sulton (1545-yil v.e.), Abulkayr Sulton (1511-yil o‘ldirilgan), Yodgor Sultonim (1526-yil v.e.), Shahribonu xonim (1535-yil v.e.), Shoh Sulton xonim (1530-yil v.e.), Suyunch Muhammad Sulton (1586-yil v.e.)lar dafn etilgan.

Sher dor madrasasi



Me’moriy obidaning kim tomonidan bunyod etilganligiga to’xtaladigan bo‘lsak, inshoot Yalangto’shibiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan.

Me’moriy obidani bunyod ettirgan shaxs haqida gapiradigan bo‘lsak, Yalangto’shibiy Bahodir Saidqul o‘g‘li, Yalangto’shibiy otaliq (1576-yil Nurota – 1656-yil Samarqand) Ashtarxoniyalar davrida olchin qabilasidan bo‘lgan harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik

vakili, Samarqand hokimi (1626-yildan). Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan. 1611-yili Imomqulixonni taxtga o‘tqazishda faol qatnashgan. Shundan so‘ng Yalangto’shibiy Bahodirning mavqeい ortgan, u Samarqandni 1626-yildan amalda mustaqil idora eta boshlagan va unga otaliq unvoni berilgan. Yalangto’shibiy Bahodirning o‘z qo‘smini bo‘lib, atrofdagi tumanlarga bosqinchilik yurishlari natijasida juda katta moddiy mablag‘ to‘plagan. Yalangto’shibiy Bahodir obodonchilik, qurilish ishlariga katta e’tibor bergen, jumladan, Samarqandda Sherdor madrasa, Tillakori madrasa, Maxdumi A’zam masjidi, xonaqosi (1618) va boshqalarni qurdirgan. Abu Tohirxojaning «Samariya»sida yozishicha, “Yalangto’shibiy Bahodirning qabri Samarqand yaqinidagi Dahbedda, Maxdumi A’zamning oyog‘i ostida, sufa ustida, mozor devorining ichidadir”. Yalangto’shibiy Bahodir haqidagi xalq orasida ko‘plab rivoyatlar, afsonalar (“Yalangto’sh botir” hikoyasi) to‘qilgan.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy sharoit haqida gapiradigan bo‘lsak, Imomulixon davri: Amirlar taxtga Boqi Muhammadning o‘g‘li Imomqulixonni (1611-1642) o‘tqazadilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo‘sishlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoladi. Vali Muhammad asir olinib, qatl qilinadi. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o‘z tasarrufiga kiritdi. O‘g‘li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko‘paytirib, aholiga qattiq zulm o‘tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo‘zg‘olon ko‘tarildi va Iskandar sulton o‘ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo‘sish tortdi. Qo‘zg‘olonchilar ayovsiz jazolandilar. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixonidan keyin Nodir Muhammad (1642-1645) davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi.

Sherdar madrasasi Imomqulixon hukmronligi davrida, 1619-1636-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning qurilishida bir qator ashyolar ishlatilgan, shulardan: turli xil o‘lchamdagи g‘ishtlar, loy, yog‘och, tosh, maxsus “qir” qotishmasi va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab ashyolardan keng foydalanilgan.

Madrasanining dizayni, ichki va tashqi ko‘rinishi: Sherdor madrasasining koshinlari va bezaklari faqat o‘zigagina xos, betakrordir. Madrasa tarhi to‘rtburchak, 2 qavatli bo‘lgan. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg‘ali gumbaz va minoralar joylashgan. Binoning serhashamligi shu peshtoqida, peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar (54 ta) va oldi ravoqli ayvon

bo‘lgan. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o‘tagan. 1960-1964-yillarda peshtoq qanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan. Shuningdek, Sher dor madrasasining Peshtoq ravog‘i tepasi diqqatga sazovor: qizg‘ish zarhal sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko‘zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusli yog‘du bilan hoshiyalangan.



Madrasa hovlisi va undagi hujralar ham o‘z me’moriy yechimlari bilan Ulug‘bek madrasasidan farq qiladi. Sher dor madrasasining devorlarida uni qurgan ustame’mor Abdul Jabborning va me’morchilik bezaklarini yaratgan mohir usta Muhammad Abbaslarning nomlari abadiy muhrlanib qolgan.

Memoriy obidaning uslubi haqida gapirar ekanmiz, O‘rta Osiyo me’morchiligida ko‘p uchraydigan gumbazsimon, qo‘sh va “Chor” uslubidan keng foydalanilgan.


Madrasaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, me’moriy inshoot Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida bir o‘q chizig‘i bo‘ylab joylashgan. Madrasa masjid vazifasini o‘tagan, hozirgi kunda esa muqaddas qadamjolarimizdan hisoblanadi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, madrasa o‘z davrida qurilgan boshqa madrasalardan me’moriy yechimi bilan ajralib turgan.

Mustaqillik yillarida me’moriy inshootda bir necha bor ta’mirlash ishlari olib borildi. Ayniqsa, Samarcand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan Samarcanddag‘i boshqa me’moriy obidalar qatorida Sher dor madrasasi ham ta’mirlandi. Madrasaning atroflari ko‘kalamzorlashtirilib, o‘zgacha chiroy kasb etdi.

Me’moriy obidaga hukumatimiz tomonidan hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, u ko‘pgina xalqaro sayyoohlarning e’tibor-markazida. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. Mamlakatimiz tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini avaylab-asrash to‘g‘risida”gi qonun va shu kabi huquqiy-me’yoriy hujjatlar me’moriy inshootning huquqiy kafolatidir.

Madrasada tarixchi-arxeologlar, arxitektorlar tadqiqot ishlari olib borishdi va u haqida bir qancha ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar yozildi. Hozirda madrasa davlat himoyasiga olingan tarixiy-moddiy yodgorlik hisoblanadi.

Tillakori madrasasi



Samarqandning Registon maydonida joylashgan Tillakori madrasasi Yalangto‘sbiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan.


Me’moriy obidani bunyod ettirgan shaxs haqida gapiradigan bo‘lsak, Yalangto‘sbiy Bahodir Saidkul o‘g‘li, Yalangto‘sbiy otaliq (1576-yil Nurota – 1656-yil Samarqand) Ashtarxoniyalar davrida olchin qabilasidan bo‘lgan harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili,

Samarqand hokimi (1626-yildan). Nurota hokimi oilasida tug‘ilgan. 1611-yili Imomqulixonni taxtga o‘tqazishda faol qatnashgan. Shundan so‘ng Yalangto‘shbiy Bahodirning mavqeい ortgan, u Samarqandni 1626-yildan amalda mustaqil idora eta boshlagan va unga otaliq unvoni berilgan. Yalangto‘shbiy Bahodirning o‘z qo‘shini bo‘lib, atrofdagi tumanlarga bosqinchilik yurishlari natijasida juda katta moddiy mablag‘ to‘plagan. Yalangto‘shbiy Bahodir obodonchilik, qurilish ishlariga katta e’tibor bergen, jumladan, Samarqandda Sherdor madrasa, Tillakori madrasa, Maxdumi A’zam masjidi, xonaqosi (1618) va boshqalarni qurdirgan. Abu Tohirxojaning «Samariya»sida yozishicha, «Yalangto‘shbiy Bahodirning qabri Samarqand yaqinidagi Dahbedda, Maxdumi A’zamning oyog‘i ostida, sufa ustida, mozor devorining ichidadir». Yalangto‘shbiy Bahodir haqidagi xalq orasida ko‘plab rivoyatlar, afsonalar («Yalangto‘sh botiri» hikoyasi) to‘qilgan.

Yalangto‘shbiyning buyrug‘i bilan ikkinchi yirik madrasa Tillakori 1646-1660-yillar mobaynida qurilgan.

Uning qurilishida pishgan va xom g‘isht, loy, yog‘och, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan.

Me’moriy obidaning dizayni: peshtoq chuqur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2 qavatli hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta mezanalar egallagan. Madrasa xonaqohi ($10,8 \times 10,8$ m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko‘zga tashlanib turadi. Uning gumbazi oxiriga yetkazilmagan. Xonaqoh to‘riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O‘z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonini oldi ravoqli, gumbaz tomli ayvon (yo‘laklar) egallagan. Peshtoq ravog‘idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659-1660-yillarda bajarilganligi yozilgan. Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serhashamligi, peshtoq qanosi va tokchasidagi iroqi kashtani eslatadigan bezaklar, bo‘rtma yozuvlar o‘ziga xosdir. Ravoz burchaklari, bezakli toqilarni to‘ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarni qo‘llashgan. Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sarg‘ish yaproqchalar va feruza poyalar aks ettirilgan. Xonaqoh izorasi koshin namoyon, devori, gumbazi va bag‘ali kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy.



Mehrob ravog‘i va bag‘ali muqarnas kosachalar bilan to‘ldirilib, zarhal berilgan hamda Qur‘on oyatlaridan olingan bo‘rtma yozuvlar bilan hoshiyalangan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog‘och o‘ymakorligida pardozlangan. Hovli sahni (50×50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobodonlariga panjaralar ishlangan.

1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilib, koshinlarning qadimiy rangini topish yo‘lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Inshootning uslubiga keladigan bo‘lsak, Sharq me’morchiligini o‘zida mujassamlashtirgan, gumbazsimon, “Chor” uslubida qurilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, dastlab u Yalangto‘shbiy Bahodirning kichik maqbarasi nomi bilan atalganligiga qaramay xalq

orasida Tillakori nomi bilan mashhur bo'lgan. Bundan tashqari, dastlab madrasaning o'rniда Mirzoyi karvonsaroyi bo'lgan.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo'lsak, inshoot mamlakatimiz mustaqilligi davrida va undan oldin ham bir necha bor ta'mirlangan. Jumladan hozirgi kunda me'moriy inshoot muzey vazifasini o'tamoqda.

Me'moriy inshoot ko'pgina xalqaro sayyoohlarning e'tibor-markazida. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

Madrasada tarixchi-arxeologlar, arxitektorlar tadqiqot ishlari olib borishdi va u haqida bir qancha ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar yozildi. Hozirda madrasa davlat himoyasiga olingan tarixiy-moddiy yodgorlik hisoblanadi.

Ishratxona arxitekturaviy yodgorligi



Rivoyatlarga ko'ra, bu inshootni Amir Temur xotinlaridan biriga atab maqbara sifatida qurdirgan.

Maqbarani ko'rgani kelgan Amir Temur uni muhtashamligidan hayratlanib, mahbubasiga bu maqbara emas, balki shod-hurramlik uyi – ishratxona bo'lishi lozim degan. Boshqa rivoyatlarga ko'ra, Bibixonim bunyod ettirgan. Maqbaraning nomi Ishratxona emas, Ashratxona (arabcha – o'nta xonali) degan fikr ham bor.

Biroq tarixiy hujjatlar bu inshootni Amir Temur vafotidan keyin bunyod etilganligidan dalolat beradi. 1464-yili Sulton Abu Saidning xotini Xabiba Sultonbekha tomonidan bevaqt vafot etgan qizi Sohib Davlatbeka sharafiga qurilgan. Inshoot vaqt o'tishi bilan qattiq shikastlangan: asosiy gumbazning yuqori qismi va yon tomlari qulab tushgan, koshinlarining ko'p qismi tushib ketgan. 1903-yilgi zilzilada gumbaz tamomila qulagan.

Yodgorlik bir-biriga bog'liq bir nechta murakkab binolardan iborat. Umumiy rejasi to'rtburchak shaklda. Markaziy qismda bir vaqtlar bezakdor muhtasham zal bo'lgan. Zalning janubi-sharqiy qanotiga miyonsaroy xonalari yondashib turgan. Shimoliy-g'arb tarafida ularga simmetrik bo'lib masjid tushgan. To'rtta aylanma zinapoyadan ikkinchi qavatga chiqilgan. Bu yerda bir qancha hujralar bo'lgan.

Markaziy zaldan pastga sakkiz qirrali keng xonaga tushiladi. U yerda sag'analar bor. Qachonlardir xonaning devorlari rang-barang naqshlar va toshlar bilan ziynatlangan; o'ymakor marmar sag'analar turgan bu xonaning zamini oq marmar bilan qoplangan.

Ishratxonaning janubiy-g'arbga qaragan qismi o'z mutanosibligi jihatdan aniq qubbasimon peshtoq bilan ajralib turadi. Peshtoqning quyi qismi bo'yiga ketgan qambar ravoqchalarga bo'lingan, ikki yonida esa ikki qavatli ayvoncha bor.

Ishratxonaning shimoli-sharqiy tarafi bezakli ravoqlardan iborat bo'lib, ular chetdagi ayvonchalarydan boshlanib, markaziy devor ravog'iga qarab ko'paya boradi. Ziynat berishda pushti rang va sayqallangan pishiq g'ishtdan foydalanilgan. Ayrim

g‘ishtlar orasidagi choklarga lojuvard yoki ko‘k sirli koshinlar ishlatilgan. Inshootning turli joylaridagi hoshiyalarga rang-barang naqshli, yumaloq yoki tuxumsimon bezaklar bilan jilo berilgan.

Ishratxona Markaziy Osiyoda yangi uslubda barpo etilgan inshootlardan. Uning konstruksiyasida bir-biri bilan kesishadigan to‘rtta ravvoq kabi yangi uslub qo‘llanilgan. Bu uslub gumbazli binolarni yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlagan. Turli qismlarida yangi qurilish uslubining o‘nlab variantlari ishlatilgan. Bunday katta inshootni bezash, pardozlash, ziynatlashda ham yangi usullardan foydalanilgan. Devoriga naqsh solishda kundal uslubi birinchi bor shu yerda ishlatilgan.

XIVA ME'MORCHILIGI

Ichan qal'a



Ichon qal'ada me'moriy va shaharsozlik kompozitsiyalarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ichon qal'a Xivaning ichki qal'a qismidir. U Dishan qal'adan kungurador devor bilan qisman ajratilgan. Dishan qal'adan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rindi. Ichon qal'aga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan darvozalaridan kirilgan.

Ichon qal'aning yaratilish tarixi uch davrga bo'linadi: mo'g'ullar istilosidan keyingi tiklanish (Sayd Alovuddin maqbarasi va boshqalar), XVI-XVII asrlardagi tiklanish (Anushaxon hammomi, 1657-yil; peshayvonli Oq masjid, 1675-yil; Xo'jamberdibek madrasasi, 1688-yil; xonning qabulxonasi, 1686-1688-yillar), XVIII-XX asrlardagi tiklanish.

Uchinchi davrda mahalliy me'morchilik an'analari asosida masjid, madrasa, tim va toqlar qurilgan, Ota va Polvon darvozalari orasida katta yo'l o'tkazilgan, masjid qayta qurilgan, minoralar qad rostlagan. Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqlar qurilgan. Muhammad Rahimxon (1806-1825-yillar), Olloqulixon (1825-1842-yillar), Muhammad Aminxon (1845-1855-yillar) hukmronligi yillarda bu yerda qurilish avj olib ketgan. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etilgan. Toshhovli saroyi qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'targan. Kalta Minor yuzaga kelgan va hokazo.

Ichon qal'a qurilishida Markaziy Osiyoda qadimdan qo'llanib kelingan uslub – inshootlarni yuzma-yuz qurish uslubi (qo'sh)dan foydalanilgan.

Binolarning alohida ansambl holida qurilishi ham Xiva me'morchiliginining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Juma masjid yonida ikkita kichik madrasa, Muhammad Amin Inoq va Muhammad Amin Atpanoboy minorasi hamda Matniyoz Devonbegi madrasasi qurilishi ancha yirik ansamblni tashkil etgan. Polvon darvoza oldida bir necha masjid va madrasalar, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyini barpo etilishi o'ziga xos ansamblni tashkil etgan. Qutlug' Murod Inoq bilan Olloqulixon madrasasi, Tosh hovli bilan Oq masjid o'rtasidagi maydoncha shu ansamblning kompozitsion markaziga aylangan. Xiva yodgorliklari yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqa rang-barang naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan.

Shaharning vertikal dominanti – koshinlari quyoshda yaltirab turuvchi Islom hoji minorasidir. Minora bilan uning yaqinidagi Pahlavon Mahmud maqbarasining gumbazi bilan birgalikda tevaraklaridagi pastroq inshootlarni yaxlitlikka keltirib turadi. Maqbara ro'parasida supa tarzli Sherg'ozixon madrasasi qurilgan.

Ichki shaharning asosiy ko'chalari Xivaning rabotida – tashqi shaharda, **Dishan qal'ada** davom etib, to'rt tarafidagi boshqa shahar va qishloqlarga olib boradi. Dishan

qal’ada jami o‘nta darvoza bo‘lib, ulardan shimol tomondagi Urganchga olib boradigan ochiq qiyofali Qo‘s sh darvoza o‘ziga alohida e’tiborni tortadi.

Kalta Minor



Kalta Minor Muhammad Aminxon madrasasi yonida 1855-yilda qurila boshlangan. Xonning fikricha, bu minora Markaziy Osiyodagi minoralarning eng go‘zali, eng kattasi va eng balandi bo‘lishi kerak edi, lekin uning xotinining bevaqt o‘limi tufayli minora oxirigacha qurilmay chala qolgan; Kalta nomi ham ana shundan qolgan. Inshootning hozirgi balandligi 26 m, asosining diametri 14,2 m ni tashkil etadi. O‘z salobati, ko‘lami, oq, yashil, feruza rangdagi koshinli naqshlari bilan minora jozibadordir. Uning bezagida ko‘k-feruza rangli koshinlar ko‘p ishlatalgan, shu tufayli u Ko‘k Minor deb ham ataladi.

Pahlavon Mahmud maqbarasi



Xiva arxitektura yodgorliklaridan biri Pahlavon Mahmud maqbarasidir. U moviy gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyoratxonadan iborat kompleksdir. Maqbara Pahlavon Mahmud daxmasi ustida, 1664-yilda qurilgan kichik sinch imorat o‘rnida 1810-1835-yillarda bunyod etilgan. Unga peshtoqli darvozaxona orqali kiriladi, so‘ng kichik hovliga o‘tiladi. Qarshida buyuk peshtoq va gumbazli xonaqoh, maqbara, g‘arbda qorixona, sharqda nafis o‘ymakor ustunli ayvon joylashgan. Hovli sahnida “muqaddas” quduq bor.

Xonaqoh peshtoqining yuzasi g‘ishtin; gumbazi moviy rang sirkor koshinlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichkarisi ham gumbaz qubbasigacha moviy rang sopol bilan juda nozik va nafis ishlangan. Bezak gullar orasidagi so‘zlar Pahlavon Mahmud ruboiyalaridan keltirilgan.

1913-yilda Pahlavon Mahmud maqbarasi hovlisining g‘arbiga ikki qavatli qorixona, uning qarshisiga ayvon qurilgan. Kompleks Xiva me’morchiligining noyob namunasi bo‘lib, unda XIX asrdagi badiiy san’at uslubi yorqin aks etgan.

Sherg‘ozixon madrasasi



Me’moriy obida Xiva xoni Sherg‘ozixon tomonidan bunyod etilgan.

U (?), Buxoro – 1727 yil Xiva, – Xiva xoni: 1714-1728) Jonto‘raxonning o‘g‘li bo‘lib,

1714-yil Yodgorxon vafotidan so'ng, Buxorodan keltirilib Xiva taxtiga o'tqazilgan. Sherg'ozixonga qarshi Orol bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar Ishimxon boshchiligidagi isyon ko'tarishgan. Sherg'ozixon ular ustiga qo'shin tortib katta o'ljalari, ko'plab asirlar bilan qaytgan. 1715-yilda Sherg'ozixon Xurosonga yurish qilib Mashhadni egallagan, Nishopurni qamal qilib egallay olmagan (1716). Sherg'ozixon davrida Pyotr I tomonidan yuborilgan Bekovich-Cherkasskiy josuslik ekspeditsiyasi qirib tashlangan (1717). Rossiya imperiyasi Xiva xonligini o'z ta'sir doirasiga kirta olmagach, har ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan. Rossiya hukumati Xiva xonligi orqali O'rta Osiyoga kirib kelish fikridan voz kechmagan, bu paytda Rossiyada Buxoro xonligining Qulibek boshchiligidagi elchilar bor edi. Rossiya hukumati F. Benevenini ularga qo'shib Buxoroga jo'natgan va Buxoro xonligini Xivaga qarshi gijgijlagan. Qalmiqlar xoni Ayuqaning Sherg'ozixonga yuborgan ma'lumotiga ko'ra (1723-yil may), rus qo'shinlari Saratovda to'planib, 1724-yilning bahorida Xivaga yurishga tayyorgarlik ko'rishgan. Sherg'ozixon Orol bo'yidagi isyonkor qabilalar ruslarni Xivaga boshlab kelishidan va o'rniga Buxorodan keltirilgan (1721) Temur sultonni xon qilib ko'tarishlaridan xavotirda edi. Temur Sultan xonlikdagi Vazir, Gurlan, Shohobod, Bag'lon, Uyg'ur, Yangi Urganch, Xonqa va Hazoraspni olgan bo'lsa-da, butun xonlikni egallay olmagan. Xonlikdagi ichki urushlar Sherg'ozixon vafotiga qadar davom etgan. Sherg'ozixon Xivadagi Madrasa (Sherg'ozixon madrasasi) qurilishi chog'ida mashhadlik g'ulomlar tomonidan o'ldirilgan. Munisning yozishicha, Sherg'ozixon odil, ma'rifatparvar hukmdor bo'lib, ko'p vaqtini ilm ahli bilan suhbatda o'tkazgan. Uning davrida ilm-fan va she'riyat rivojlangan.

Xivadagi Ichan qal'a me'moriy obidalari tizimida joylashgan Sherg'ozixon madrasasi so'nggi o'rta asrlar davrida, 1719-1726-yillar oralig'ida bunyod etilgan.

Xiva shayboniylari sulolasiga hukmronligi davrida qurilgan bu inshoot Xiva xoni Sherg'ozixonning Xurosonga yurishi (1718) chog'ida qurila boshlangan.

Me'moriy obidaning bunyod etilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, loy, yog'och, maxsus "qir" qotishmasidan va shunga o'xshash ashyolardan keng foydalanilgan.

Madrasaning bosh tarzi 2 qavatli. Ulkan peshtoq orqali kiraverishda gumbazli miyonsaroy, uning 2 burchagida chortoq tarhli, gumbazli masjid va darsxona joylashgan. Miyonsaroy tepasidagi kichik hujralar talabalar uchun yotoqxona bo'lgan. Devorlariga tokcha, taxmon, kosamonlar ishlangan. Hovli atrofidagi 1 qavatli qator hujralar oldi ayvonli bo'lib, hovli o'rtasida hovuz joylashgan.

Madrasa Sharq me'morchiligi an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, to'rburchak tarhli, "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, uning ichki qismida maqbara ham bunyod etilgan. Maqbara madrasaning bosh tarziga tutash qilib qurilgan. Madrasaning g'arbida qurilgan kichik xonaga xon jasadi dafn etilgan.


Madrasa bir vaqtning o'zida maqbara vazifasini ham o'tagan.

Sherg'ozixon madrasasi mamlakatimizning mustaqilligiga qadar va undan keyin bir necha marotaba ta'mirlandi. Bundan tashqari, Xiva shahrining 2500 yilligi

munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Sherg'ozixon madrasasi ham ta'mirlandi.

Madrasa Ichan qal'a me'moriy obidalari tarkibida YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

Muhammad Amin Inoq madrasasi



Xiva shahrida, Ichan qal'a markazida joylashgan Muhammad Amin Inoq madrasasi qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan Xiva xoni Muhammad Amin inoq tomonidan bunyod etilgan.

Mardasa qurilishiga homiylik qilgan Muhammad Amin inoq (taxminan 1730-1790-yillar) – Xiva xonligini idora qilgan va inoqlardan bo'lgan qo'ng'irot sulolasasi asoschisi. Muhammad Amin inoq 1761-yilda inoqlik lavozimiga ko'tarilgan. Turkmanlarning yovmut va chovdур

qabilalariga qarshi kurash olib borgan, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab Buxoroga, Doniyolbiy otaliq yoniga ketgan. Xorazmni butunlay egallab olgan yovmutlar Xiva taxtiga G'oyibxonning o'g'li Jahongirxonni ko'targanlar. Uning davrida (1769-1770) besh qal'a (Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va Shohobod)da ocharchilik va vabo tarqalib o'zbeklar Orol va Buxoroga ketganlar. 1770-yilda Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib yovmutlarni Xorazmdan quvg'in qilgan, taxtga Abulxayrxonning o'g'li Bo'lakayxonni o'tqazgan. Muhammad Amin inoq xon avlodidan bo'limgani uchun taxtga qo'g'irchoq xonlarni o'tqazib, hokimiyatni ular nomidan boshqara boshlagan. Muhammad Amin inoq 20 yil mobaynida 13 marta Xiva xonini almashtirgan. Xorazmlik tarixchilar (Munis, Ogahiy, Bayoniy va boshqalar) Muhammad Amin inoq hukmronligi davri xususida ancha iliq fikr bildirganlar. Uning davrida Xiva shahrida Muhammad Amin Inoq madrasasi qurildi (1765), shaharning Nodirshoh bosqinida vayron bo'lgan devori va darvozalari qayta tiklandi (1785), Xivaning Jome' masjidi qayta qurilib, uning yonida chiroyli minora qad ko'targan (1789).

Muhammar Amin Inoq madrasasi so'nggi o'rta asrlarda, 1765-yilda bunyod etilgan.

Madrasani bunyod etishda har xil o'lchamdagи g'isht va toshlardan, loy, yog'och, tunuka, sement, marmar, har xil qimmatbaho toshlar va shunga o'xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan.

Me'moriy obidaning umumiy ko'rinishi haqida gapiradigan bo'lsak, madrasa bosh tarzi maydonga qaragan. Janubiy peshtoqdan 3 gumbazli miyonsaroy orqali to'g'ri to'rtburchak tarhli hovliga (25,4x24 m) kiriladi. Hovli atrofida bir qavatl


hujralar va qarama-qarshi joylashgan 2 ayvon bor. Hovlining kesik burchaklaridan hujraga kirish uchun tor yo'laklar ishlangan. Uning gumbazlari o'zaro ravoqlar orqali bog'langan. G'arbdagisi kengroq hajmda bo'lib, ayvon vazifasini o'tagan. Unga masjidning gumbazli zali tutashgan. Peshtoqining 2 qanotida 1 qavatli, 2 qatorli hujralar va burchaklarida guldastalar, darsxona va masjid joylashgan. Inshoot so'nggi o'rta asrlarning ilm maskani sifatida faoliyat yuritibgina qolmay, hilxona vazifasini ham o'tagan. Bu yerga Muhammad Amin inoq va uning o'g'li dafn qilingan deb taxmin qilinadi.

Me'moriy inshoot Sharq me'morchiligining yorqin na'munasi hisoblanadi. U "Chor", gumbazsimon uslubda bunyod etilgan.

Me'moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta'mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Muhammar Amin Inoq madrasasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari ko'kalamzorlastirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko'rinishini Ichan qal'a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo'lib, 1990-yilda Xivadagi "Ichan qal'a" Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

Toshhovli saroyi



Xiva shahrida joylashgan Toshhovli saroyining asosiy qismi Xiva xoni, qo'ng'irotlar sulolasining yirik vakillaridan biri Ollohqulixon tomonidan bunyod etilgan.

Ollohqulixon (taxm. 1794-1842) – Xiva xoni (1825-1842) – Muhammad Rahimxonning o'g'li. Uning davrida Xivada karvonsaroy, tim, 111 xona va bo'limali Toshhovli saroyi, Ichan qal'a sharqiy darvozasiga tutashtirib qurilgan

Ollohqulixon madrasasi, Oq masjid, Saitboy masjidi, Toshhovuz qal'asi (1835-1836) va boshqa inshootlar qurilgan. Yangi kanallar qazdirib sug'oriladigan yerlarni kengaytirgan. Xiva shahrining obodonchiligi uchun ko'p mehnat sarf qilgan. Ollohqulixon davrida koshinpazlik (koshinkorlik) san'ati yuksak cho'qqiga chiqqan. Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko'hna Ark koshinlar bilan bezatilgan. Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa ko'pgina tarixiy obidalar ta'mirlandi. Arabxon va Muhammad Amin Inoq madrasalari qaytadan qurildi. Xiva shahrining atrofi mudofaa

devori bilan o‘rab olingan (1842). Ichan qal'a tashqarisida yashayotgan aholini himoya qilish maqsadida Dishan qal'a (Tashqari qal'a) qurilgan. Ollohqulixon 1842-yil Chorjo‘yga yurish qilib, qal'ani qamal qilgan paytda og‘ir kasalga duchor bo‘lib, orqaga qaytishga majbur bo‘lgan va 23 noyabrda vafot etgan. Uni o‘zi hayot vaqtida tayyorlab qo‘ygan Pahlavon Mahmud maqbarasida dafn etishgan.

Ollohqulixon dastlab aholining xatlari va arzlarini ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanuvchi dargoh – Arz hovlini 1830-1832-yillarda (darvozasi g‘arbgan), uning yonida qabulxona – ishrat hovlini (janubga qaragan) 1837-yil, o‘ziga dam olish maskanini tashkil etish maqsadida 1835-1837-yillarda haram (darvozasi g‘arbgan qaragan)ni qurdirgan.

Me’moriy inshoot so‘nggi o‘rta asrlarning oxirlarida, 1830-1838-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Toshhovli Sharq an'analarini o‘zida mujassamlashtirgan, Xorazm mahalliy turar-joy me'morligiga xos uslubda, shahar tashqarisidagi qo‘rg‘on-hovli ko‘rinishida bo‘lganligi uchun Toshhovli deb nomlangan.

Uning qurilishida har xil o‘lchamdagisi xom va pishgan g‘isht, tosh, loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasidan va shunga o‘xhash ashyolardan foydalanilgan.

Toshhovli 3 hovli, 111 ta xonadan iborat. Atrofi balant devor (qalinligi 1,2-1,5 m.) bilan o‘ralgan. Devor tepasi kungurali, darvoza yonlari guldstiali. Tarhi 80x42 m., hovlisi 49x15 m janubiy qismida 5 ta alohida-alohida ayvon bor, ulardan xonalarga dahlizlar orqali kiriladi. Qabulxona (ishrat hovli tarhi 43x36,5 m) haramning janubiy-sharqi qismida qurilgan. 3 yildan so‘ng janubiy-g‘arbiy burchagida arz hovli (tarhi 35x40 m) qad rostlagan. Har bir hovlida alohida xizmatchilar xonasi, xo‘jalik xonalari, otxona bo‘lgan. Hovlilarda ayvonlar o‘ziga xos uslubda joylashgan. Haramning janubida 2 qavatli bino oldiga baland qilib 1 ustunli ayvon ishlangan, arz hovli va ishrat hovlidagi binoning faqat 2-qavatida 1 ustunli, panjara to‘sqli ayvon bor. Hovli markazidagi doira shaklli supaga chodir o‘rnatilib mehmonlar kutilgan. Toshhovlining tashqi tarzi bezaksiz, yaxlit devorli. Hovli atrofidagi ayvon va xonalar milliy me'morchilik an'analarini asosida pardozlangan. Devordagi ustungo‘shalar oralig‘iga namoyonlar ishlanib, choksiz ko‘k va oq koshin qoplab, girrix parchinlardan naqsh hosil qilib terilgan. Ishrat hovli va arz hovli devorlari namoyonlarga ajratilib, ko‘k, oq va havo rang koshindan gilam nusxa mujassamot yaratilgan. Ayvon devorlaridagi girrix va islimiylar naqshlar orasidagi doira shakllar ichida arabiy yozuvlar uchraydi. Marmar poyustun va o‘ymakori yog‘och ustunlardagi doira shakllarda Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga oid she’rlari, xon ayvonidagi sharqiy poyustunda 1832-yil va ishrat hovli katta ayvon poyustunida, arz



hovli katta ayvon bezaklari orasida 1838-yil hamda usta Abdulla jin nomi saqlangan. Toshhovlidagi xonalar tomi to‘sini, haram va ishrat hovli ayvonlari hovuzakli, xo‘jalik xonalari tomiga qamish bostirib loysuvoq qilingan, ba’zilari vassa shiftli. Xona ichki bezaklari ancha sipo, devor hoshiyalarida, shakldor taxmonlarda, shift osti sharafasi, muqarnas kosachalari ganchkori bezakda, mevali daraxt shoxi va gullar qora, ko‘k va qizil tusda ifodalangan.

Inshootning o‘ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, me’moriy obida xon va uning 4 xotiniga mo‘ljallangan bo‘lib, Xalq ustalari Nurmuhammad, usta Toji va usta Qalandar Xivaqiy tomonidan bunyod etilgan. Toshhovli me’morchiligi qadim zamonlarda toshdan ishlangan hovuz va uning atrofida yuzaga kelgan qal’a qurilishi bilan bog‘liq.

Ollohqulixon davrida qal’a kengaytirilgan va Xiva xonligidagi eng mustahkam qo‘rg‘onlardan biriga aylantirilib, saroy barpo etilgan. XIX asr oxiriga kelib turli urushlar natijasida qal’aning saroy qismi vayronaga aylangan. Muhammad Rahimxon II (1864-1910) davrida saroy qayta tiklangan. XIX asr oxirlarida shaharda 3 darvoza (sharqiy, janubiy va saroy), 300 ga yaqin do‘kon va ustaxona, karvonsaroy, 6 masjid va madrasa bo‘lgan. Biroq saroy va boshqa imoratlardagi ko‘plab nafis bezaklar, devoriy naqshlar tushib ketib, qayta tiklanmagan. Inshoot mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar va undan keyin bir necha bor ta’mirlangan. Me’moriy obida atroflari ko‘kalamzorlashtirilib o‘zgacha chiroy kasb etgan. 1990-yil me’moriy obida Ichan qal’a me’morchilik yodgorliklari bilan birgalikda YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

Davlatimiz tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘grisida”, 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida” qabul qilingan qonunlar madaniy meros obyektlarining huquqiy kafolatidir. Bundan tashqari, inshoot yurtimizdagи madaniy meros obyektlariga qiziquvchi ixlosmandlarning hamda yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyoohlarning diqqat-markazida.

Ollohqulixon madrasasi



Xiva shahrida Ollohqulixon madrasasi Xiva xoni, qo‘ng‘irotlar sulolasining yirik vakillaridan biri Ollohqulixon tomonidan bunyod etilgan.

Ollohqulixon (taxm. 1794-1842) – Xiva xoni (1825-1842) – Muhammad Rahimxonning o‘g‘li. Uning davrida Xivada karvonsaroy, tim, 111 xona va bo‘lmali Toshhovli saroyi, Ichan

qal'a sharqiy darvozasiga tutashtirib qurilgan Ollohqulixon madrasasi, Oq masjid, Saitboy masjidi, Toshhovuz qal'asi (1835-1836) va boshqa inshootlar qurilgan. Yangi kanallar qazdirib sug'oriladigan yerlarni kengaytirgan. Xiva shahrining obodonchiligi uchun ko'p mehnat sarf qilgan. Ollohqulixon davrida koshinpazlik (koshinkorlik) san'ati yuksak cho'qqiga chiqqan. Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko'hna Ark koshinlar bilan bezatilgan. Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa ko'pgina tarixiy obidalar ta'mirlandi. Arabxon va Muhammad Amin Inoq madrasalari qaytadan qurildi. Xiva shahrining atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan (1842). Ichan qal'a tashqarisida yashayotgan aholini himoya qilish maqsadida Dishan qal'a (Tashqari qal'a) qurilgan. Ollohqulixon 1842-yil Chorjo'yga yurish qilib, qal'ani qamal qilgan paytda og'ir kasalga duchor bo'lib, orqaga qaytishga majbur bo'lgan va 23 noyabrda vafot etgan. Uni o'zi hayot vaqtida tayyorlab qo'ygan Pahlavon Mahmud maqbarasida dafn etishgan.

Madrasa so'nggi o'rta asrlarning oxirlarida, 1834-1835-yillar oralig'ida bunyod etilgan.

Bu davrda Ollohqulixon Buxoro bilan sulk tuzilganligiga qaramay 7 marta Buxoro xonligi hududiga yurishlar qilib, qishloqlarni talab qaytgan. Xurosonga 5 marta yurish qilgan. Qoraqalpoq va Turkmanlarning qo'zg'olonlarini beshafqat bostirgan (1828-yil). Rossiya bilan elchilik va savdo munosabatlarini mustahkamlagan (1840-1841-yillar). Bundan tashqari, Ollohqulixon hukmronligi davrida ko'pgina obidalar qad rostladi. Borlari ta'mirlandi. Bir so'z bilan aytganda, me'morchilik, san'at va ko'pgina sohalar rivojlandi.

Me'moriy obida qurilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, loy, tunuka, sement, ganch yog'och, maxsus "qir" qotishmasidan va shunga o'xshash ashylardan foydalanilgan.

Ollohqulixon madrasasi to'g'ri to'rtburchak tarhli (62,45x47,0 m), peshtog'i g'arbga qaragan inshoot bo'lgan. Bosh tarzini miyonsaroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning qurilgan sanasi saqlangan. Hovli (34,6x29,4 m) tomoni o'ziga xos, undagi 2 qavatli qator hujralar Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman tim gumbazlari chekkasiga joylashgan. Masjid va darsxona (4,8x4,8 m) tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Devorlaridagi chuqur ravoqlar hisobiga xona keng ko'rindi. Ayvon (5,5x5,5 m) madrasa g'arbida joylashgan, mehrobi ganchli muqarnasdan "iroqi" uslubida bezatilgan. Hujralar (99 ta)ning har birida bittadan eshik, tobagoniga panjaralar o'rnatilgan.

Me'moriy inshoot Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan. O'rta Osiyo me'morchiligida keng tarqalgan qo'shmadrasha va "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, u Ko'kaldosh madrasasi kabi sun'iy tepalikda (balandligi 3 metr) joylashgan. Shu tufayli qo'shni binolardan ancha baland ko'rindi. Inshoot so'nggi o'rta asrlarning ilm maskani sifatida faoliyat yuritgan.

Oollohqulixon madrasasi mustaqillikka qadar va mustaqillikdan so'ng bir necha bor ta'mirlangan. 1967-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi hukumatining 616-sonli qarori bilan Xiva shahridagi 26 hektar maydondagi Ichan qal'a devorlari chegarasida joylashgan 51 dona me'moriy yodgorliklar, majmualar negizida "Ichan qal'a Davlat me'moriy qo'riqxonasi", 1969-yilda esa Dishan qal'a hududidagi yodgorliklarni qo'shib "Ichan qal'a Davlat tarixiy me'moriy-muzey qo'riqxona" deb e'lon qilinib, shaharning Bosh rejasida uning muhofaza qilish chegaralari va shaharning rivojlanishining asosiy yo'naliishlari belgilangan. Bundan tashqari, Xiva ashahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Oollohqulixon madrasasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari ko'kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko'rinishini Ichan qal'a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo'lib, 1990-yilda Xivadagi "Ichan qal'a" Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

Oollohqulixon karvonsaroyi



Xiva shahrida Oollohqulixon karvonsaroyi Xiva xoni, so'ng'irotlar sulolasining yirik vakillaridan biri Oollohqulixon tomonidan bunyod etilgan.

Oollohqulixon (taxm. 1794-1842) – Xiva xoni (1825-1842) – Muhammad Rahimxonning o'g'li. Uning davrida Xivada karvonsaroy, tim, 111 xona va bo'limali Toshhovli saroyi, Ichan qal'a sharqiy

darvozasiga tutashtirib qurilgan Oollohqulixon madrasasi, Oq masjid, Saitboy masjidi, Toshhovuz qal'asi (1835-1836) va boshqa inshootlar qurilgan. Yangi kanallar qazdirib sug'oriladigan yerlarni kengaytirgan. Xiva shahrining obodonchiligi uchun ko'p mehnat sarf qilgan. Oollohqulixon davrida koshinpazlik (koshinkorlik) san'ati yuksak cho'qqiga chiqqan. Pahlavon Mahmud maqbarasi va Ko'hna Ark koshinlar bilan bezatilgan. Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa ko'pgina tarixiy obidalar ta'mirlandi. Arabxon va Muhammad Amin Inoq madrasalari qaytadan qurildi. Xiva shahrining atrofi mudofaa devori bilan o'rabi olingan (1842). Ichan qal'a tashqarisida yashayotgan aholini himoya qilish maqsadida Dishan qal'a (Tashqari qal'a) qurilgan. Oollohqulixon 1842-yil Chorjo'yga yurish qilib, qal'ani qamal qilgan paytda og'ir kasalga duchor bo'lib, orqaga qaytishga majbur bo'lgan va 23 noyabrda vafot etgan. Uni o'zi hayot vaqtida tayyorlab qo'ygan Pahlavon Mahmud maqbarasida dafn etishgan.

Karvonsaray so'nggi o'rta asrlarning oxirlarida, 1832-1833-yillar oralig'ida bunyod etilgan.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrda zulm, talonchilik, o'zaro urushlar kuchaygan. Ollohqulixon Buxoro bilan sulk tuzilganligiga qaramay 7 marta Buxoro xonligi hududiga yurishlar qilib, qishloqlarni talab qaytgan. Xurosonga 5 marta yurish qilgan. Qoraqalpoq va Turkmanlarning qo'zg'olonlarini beshafqat bostirgan (1828-yil). Rossiya bilan elchilik va savdo munosabatlarini mustahkamlagan (1840-1841-yillar). Bundan tashqari, Ollohqulixon hukmronligi davrida ko'pgina obidalar qad rostladi. Borlari ta'mirlandi. Bir so'z bilan aytganda, me'morchilik, san'at va ko'pgina sohalar rivojlandi.

Me'moriy obidani bunyod etilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, tosh, tunuka, sement, qum, loy, yog'och, maxsus "qir" qotishmasidan va shunga o'xshash ashylardan foydalanilgan.

Karvonsaroy to'g'ri to'rtburchak tarhli (69,0x58,0 m), burchaklariga guldasta – minoralar ishlangan. Karvonsaroyga shimol va janubdag'i peshtoq orqali kiriladi. Uning keng hovlisi (46,3x42,4 m) va hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar (4,6x2,9 m) bir xil hajmda 105 tani tashkil qiladi. Hujralar hovli sahniga qaratilgan. Burchaklaridagi 8 ta hujralar (5x5 m) gumbazi baland qilib ishlangan, ular eshik tepasidagi tobodon panjaralari orqali yoritiladi. Tomi balxi gumbazli. Hovliga kiriladigan yo'lak 2 tomondan peshtoq bilan chegaralangan. Peshtoq qanotlari ichida 2-qavatga olib chiqiladigan aylanma zinalar bor.

Karvonsaroy Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Karvonsaroyning tashqi va ichki tuzilishida o'ziga xos tomonlar bor. Masalan, shu tipdag'i binolarda ichkariga maxsus xonalar orqali aylanib o'tilsa, bu yerda ichkariga yuklar bilan 2 gumbaz ostidan to'g'ri o'tish mumkin. Hovli o'rtasi ot aravaga mol yuklashga qulaylashtirilganligi bilan karvonsaroy talablariga javob bergen va o'z davrida chet davlatlardan keladigan savdo karvonlariga maishiy xizmat ko'rsatilgan hamda karvonsaroy pastidagi xonalarda yuk saqlangan, yuqoridagilaridan mehmonxona sifatida foydalanilgan joy vazifasini bajargan.

Ollohqulixon karvonsaroyi mustaqillikka qadar va mustaqillikdan so'ng bir necha bor ta'mirlangan. 1967-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi hukumatining 616-sonli qarori bilan Xiva shahridagi 26 hektar maydondagi Ich'an qal'a devorlari chegarasida joylashgan 51 dona me'moriy yodgorliklar, majmualar negizida "Ich'an qal'a Davlat me'moriy qo'riqxonasi", 1969-yilda esa Dishan qal'a hududidagi yodgorliklarni qo'shib "Ich'an qal'a Davlat tarixiy me'moriy-muzey qo'riqxona" deb e'lon qilinib, shaharning Bosh rejasida uning muhofaza qilish chegaralari va shaharning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilangan. Bundan tashqari, Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Ollohqulixon karvonsaroyi ham ta'mirlandi. Me'moriy

obida atroflari ko‘kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko‘rinishini Ichan qal’a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo‘lib, 1990-yilda Xivadagi “Ichan qal’a” Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

Muhammad Aminxon madrasasi.



Xiva shahrida, Ichan qal’aning g‘arbida joylashgan Muhammad Aminxon madrasasi qo‘ng‘irotlar sulolasidan bo‘lgan Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan bunyod etilgan.

Mardasa qurilishiga homiylik qilgan, Ollohqulixonning o‘g‘li Muhammad Aminxon (1817-1855) 1846-1855-yillarda Xiva xoni bo‘lgan. U atrofidagi barcha isyonkor turkman qabilalarini bo‘ysundirdi va xonlik daromadini oshirdi. Muhammad Aminxon o‘z hukmronligi davrida Xuroson va Marvga

10 martadan ko‘proq qo‘sishin tortib bordi. Xonlik poytaxti bo‘lgan Xiva shahrida va uning atrofida keng miqyosda qurilish va obodonlashtirish ishlarini olib bordi. Xiva shahrida qurilgan Muhammad Aminxon madrasasi va uning yonidagi hashamatli Ko‘k (Kalta) minora shular jumlasidandir. Hali bitmagan minorani shu davr shoirlari «Falak ayvoniga qo‘yilgan ustundek» deb ta’rifladilar. Muhammad Aminxon Xorazm poytaxtini Ko‘hna Urganch (qad. Gurganj)ga ko‘chirish uchun u yerda ham ko‘p qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdi. Muhammad Aminxon Saraxs (Turkmaniston)da turkmanlar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi.

Uning nomi bilan atalgan inshoot so‘nggi o‘rtalarning oxirida, 1851-1855-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Madrasani bunyod etishda har xil o‘lchamdagagi g‘isht va toshlardan, loy, yog‘och, tunuka, sement, marmar, turli xil qimmatbaho toshlar va shunga o‘xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan.

Madrasaning umumiyligi ko‘rinishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u ikkidan iborat ko‘rinishda bo‘lgan. Birinchi qavatidagi hujralar dahlizli, ikkinchi qavatdagilari esa ayvonli bo‘lgan. Bu uslub Xiva madrasalari me’morchiligidagi ilk bor shu binoda qo‘llanilganligi bois uning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Ayvonlarning qurilishi sodda, hovlining umumiyligi me’morligiga mos. Ikki qavatli ayvonlardagi qanoslar va qarama-qarshi qo‘yilgan peshtoqlar sirkor parchinlar bilan naqshlangan. Hujralar tomi balxi gumbaz bilan berkitilgan. Sharqiy qanotidagi masjid va g‘arbiy qanotidagi darsxonaning gumbazlari burchaklaridan chiqarilgan toqili qiya sath bag‘alga qo‘yilgan. Peshtoqining 6 qirrali ko‘rkam ravog‘i ham sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Masjidning baland gumbazi peshtoqidan ancha yuqori ko‘tarilib turadi.


Madrasaning baland va bezakdor peshtoqi o‘ziga xos mayda ravoqchalarga bo‘lingan, burchaklaridagi mezanali guldastalar binoga salobat va go‘zallik bag‘ishlaydi. Binoda Xiva me’morchilik maktabiga xos uslublarning eng yaxshi namunalari qo‘llangan. Bosh tarzidagi miyonsaroy 2 oshyonli, 5 gumbazli bo‘g‘imlarga ajratilgan. Yog‘och o‘ymakorligida ishlangan eshik va panjaralar noyob san’at asari hisoblanadi. Umumiy tarhi – 77x60 m; hovli 38x38 m; masjid 9,4x8,4 m; darsxona 5,6x5,6 m. Inshoot o‘z davrida dastlab madrasa, keyinchalik shahar devonxonasi vazifasini o‘tagan.

Me’moriy inshoot Sharq me’morchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. U “Chor”, gumbazsimon uslubda bunyod etilgan.

Me’moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta’mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Jahan yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me’moriy obidalar qatorida Ollohqulixon karvonsaroyi ham ta’mirlandi. Me’moriy obida atroflari ko‘kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko‘rinishini Ichan qal’a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo‘lib, 1990-yilda Xivadagi “Ichan qal’a” Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

Muhammad Rahimxon madrasasi



Kattaligi jihatdan Muhammad Aminxon madrasasidan keyingi o‘rinda Muhammad Rahimxon madrassasi turadi. U qo‘ng‘irotlar sulolasiga mansub bo‘lgan Xiva xoni Muhammad Rahim II tomonidan Ko‘hna arkning sharqi darvozasi qarshisida 1871-yil bunyod etilgan. Muhammad Rahimxon (1847-1910) Xivaning ma’rifatparvar xonalaridan biri bo‘lib, 1864-1910-yillarda hukmronlik qilgan, “Feruz” taxallusi bilan she’rlar yozgan.

Uning nomi bilan atalgan madrasa yozgi va qishki masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iboratdir. Binoning old tomoni ikki qavatli, qolgan tomonlari bir qavatli. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiy tuzilishi Xivaning boshqa madrasalaridan biroz farq qiladi. Xushqad peshtoqning ikki yonida besh ravoqli galereyalari bor. Darvozaxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Binoning ichki tuzilishi ham boshqa madrasalardan biroz farq qiladi. Hovli 76 ta bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan, tashqi ayvonning ko‘cha tomoni past devor bilan to‘silgan. Janubida gumbazli ayvon va boshqa qo‘sishmcha xonalar bor. Keyinroq, madrasaning old tomoniga bir qavatli

savdo rastalari qatoridan iborat hovli qurilgan. Madrasaning umumiy tuzilishi va ichki tarhi an'anaviy Xiva madrasalari me'morchiligidan biroz farq qiladi.

Uning umumiy tarhi – 62,4x49,7 m; hovli – 28,3x28,8 m; darsxona – 5,4x5,4 m; masjid – 7,0x7,0 m; savdo qatorlari – 25,0x50,0 m; hovli – 16,9x42,5 metrni tashkil etadi.

Madrasani bunyod etishda har xil o‘lchamdagagi g‘isht va toshlardan, loy, yog‘och, tunuka, sement, marmar, turli xil qimmatbaho toshlar va shunga o‘xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan.

Me’moriy inshoot Sharq me’morchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. U “Chor”, gumbazsimon uslubda bunyod etilgan.

Me’moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta’mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me’moriy obidalar qatorida Muhammad Rahimxon madrasasi ham ta’mirlandi. Me’moriy obida atroflari ko‘kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko‘rinishini Ichan qal’a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo‘lib, 1990-yilda Xivadagi “Ichan qal’a” Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

Islomxo‘ja minorasi



Xiva shahrida, Ichan qal’a markazida joylashgan Islomxo‘ja minorasi qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Vaziri Akbar Islomxo‘ja tomonidan bunyod etilgan.

Islomxo‘ja (1872-1913, Xiva) – Xiva xonligining bosh vaziri. Xorazmda jadidchilik harakatining o‘ng oqimi rahbarlaridan biri bo‘lgan. Islomxo‘ja Muhammad Rahim II va Asfandiyorxon hukmronligi davrida Xiva xonligi delegatsiyasi tarkibida Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida bir necha marta bo‘lgan (1907-1912). Ilg‘or yevropa madaniyatini targ‘ib qilgan. Xudoybergan Devonovga Xorazmda kino va surat olish ishiga asos solishida homiylik qildi. Uning tashabbusi bilan Xiva va boshqa shaharlarda Islomxo‘ja minorasi va madrasasi, Nurullaboy saroyi, kasalxona, elektrostansiya qurildi, jadid maktablari va hatto rus maktablari ochildi. Asfandiyorxon hukmronligi davrida bosh vazir (1910-1913) bo‘lib, xonlikning janubiy qismini idora etgan hamda xorijiy davlatlar bilan bo‘ladigan aloqalarni boshqargan. Xonlikni idora etishdagi xizmatlari uchun “vaziri akbar”

Devonovga Xorazmda kino va surat olish ishiga asos solishida homiylik qildi. Uning tashabbusi bilan Xiva va boshqa shaharlarda Islomxo‘ja minorasi va madrasasi, Nurullaboy saroyi, kasalxona, elektrostansiya qurildi, jadid maktablari va hatto rus maktablari ochildi. Asfandiyorxon hukmronligi davrida bosh vazir (1910-1913) bo‘lib, xonlikning janubiy qismini idora etgan hamda xorijiy davlatlar bilan bo‘ladigan aloqalarni boshqargan. Xonlikni idora etishdagi xizmatlari uchun “vaziri akbar”

unvoni berilgan. 1910-yil u xonlikda islohot o'tkazish to'g'risidagi farmonni ishlab chiqishda faol ishtirok etdi. Sug'orma dehqonchilikka asoslangan Xorazmda dehqonlarning ahvolini yengillatish uchun yer solig'ini kamaytirishga harakat qiladi. "Yosh xivaliklar" partiyasining asoschisi Polvonniyoz Hoji Yusupovning yozishicha, taraqqiyparvarlik g'oyalari uchun o'z kuyovi Asfandiyorxonning buyrug'i bilan vaxshiyona o'ldiriladi.

Islomxo'ja minorasi yangi davrning dastlabki davrlarida (mustamlaka davrida), 1908-1910-yillarda bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning qurilishida pishgan g'isht, sement va yog'ochdan foydalanilgan.

Islomxo'ja minorasi yonida shu nomdagi madrasa bo'lib, uning (42,8x32,5) bosh tarzi ikki qavatli. Kichik hujralar (42 ta) bilan o'ralgan. Bosh tarzining hovliga qaragan ikkinchi qavatida ayvon bor. Madrasaning janubiy-sharqidagi masjid gumbazli, mehrobi koshin va ganjkorin naqshlar bilan bezatilgan. Old tomonida Xivadagi eng baland minora (44,6 m) qad ko'targan. Asosining diametri – 9,5 m. Yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Ko'k, yashil rangdagi naqshlar bilan belbog'lar ishlangan. Qafasasiga panjaralar o'rnatilib, yuqorisi muqarnasli sharafa va qubba bilan yakullangan. Minora shaharning deyarli hamma tomonidan ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Islomxo'ja minorasi va madrasasini qurishda me'mor Xudoybergan hoji, naqqoshlar – Eshmuhammad Xudoyberdiyev, Bolta Voisov va boshqalar qatnashgan.

Me'moriy inshoot uzoq yillar muazzin azon aytuvchi joy vazifasini o'tagan bo'lsa, keyingi yillarda undan harbiy maqsadda ham – kuzatuv obyekti vazifasida foydalanilgan

Inshoot Xorazm me'morchiliginining minora uslubida qurilgan. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, inshoot shaharning deyarli hamma tomonidan ko'rinishi va shahardagi baland me'moriy inshootlardan biridir.

Me'moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta'mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Juhon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Islomxo'ja majmuasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari ko'kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Minora afsonaviy ko'rinishini Ichan qal'a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo'lib, 1990-yilda Xivadagi "Ichon qal'a" Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuni asosni yaratdi.

Nurullaboy saroyi



Nurullaboy saroyi Asfandiyorxonning sobiq rasmiy qabulxonasi (XX asrda). Bu saroy-bog'ni qo'ng'irotlar sulolasiga mansub Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o'g'li Asfandiyorxon uchun qurdirgan (Nurullaboy degan shaxsning bog'i o'rniqa qurilgani uchun Nurullaboy saroyi deb ataladi).

Nurullaboy saroyi yangi davrning dastlabki davrlarida (mustamlaka davrida), 1904-1912-yillarda bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning qurilishida pishgan g'isht, sement, tosh, tunuka va yog'ochdan foydalanilgan.

Nurullaboy saroyi 9 ta katta-kichik xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, Madrasa, xizmatchilar uchun turar-joy, bog', gulzorli hovlilardan iborat. Majmuaga (185,6x143,0 m) janubdagagi ariq ustiga qurilgan ko'prik orqali darvozadan kiriladi. Darvozaxonaning dalonida bir necha xonalar bor. Saroy to'g'ri to'rtburchak tarqli (87,1x65,0 m), 4 hovlili, qal'aband devor (bal. – 7,5 m) bilan o'ralib, burjlar ishlangan. 3 hovlida 2 qavatli, janubiy-g'arbiy hovlida 1 qavatli xonalar joylashgan. Bosh tarzi darvozasi madrasa, turar-joy va arzxona bilan o'zaro bog'langan. Saroy shimolidagi 2 hovli ayvonlarning tomi ikkinchi qavat uchun o'tish joyi vazifasini o'taydi. Katta hovli saroyning shimoliy-g'arbiy qismini egallagan. Hovlida quduq mavjud.

Qabulxona (27,5x32,1 m) saroyning shimoliy-sharqida, o'ziga xos yevropacha uslubda qurilgan. Bosh tarzi janubga qaratilgan. 1 qavatli, 7 xonasi bor. Old va orqa tomoni ayvonli.

Arzxona (82,0x71,0 m) saroyning sharqida joylashgan. Tarhi «Г» shaklida, janub qismi uch burchakli, shimol va g'arbga qaratilgan ayvonlari mavjud.

Madrasa bosh tarzi sharqqa qaragan. Janubiy-sharqi burchagida 4 ustunli 2 qavatli masjid, shimoliy-g'arbiya ayvon, hovli atrofida darsxona va hujralar joylashgan. Tashqi devorlari va 4 burchagidagi guldastalar pishiq g'isht va koshin bilan bezatilgan. Bog' saroya tushgan bo'lib, baland qal'aband devor bilan o'ralgan, burjlar ishlangan. Bog'ning 3 tomonida eshik bo'lib, 2 eshik saroy bilan, sharqdagisi arzxona, qabulxona bilan bog'langan. Bog' o'rtasida 8 qirrali hovuz bor.

Nurullaboy saroyining ganchkor devorlari oltin va kumush bilan zarhallangan, zalning «oltin shifti» nihoyatda ko'rkar, undagi murakkab girrix naqshlar o'ziga xos, ichki va tashqi darvozalari, eshiklari, ayvon ustunlaridagi naqshlar Xorazm yog'och o'ymakorligining yuksak namunasidir. Qabulxonadagi baland eshiklar, katta rangdor oynalar, parket pollar va koshinkor pechlar yevropa me'morchiligi bilan uyg'unlashgan. Tashqi tomoni silliq g'ishtlar va feruza rang koshinlar bilan shaxmat taxtasi shaklida bezatilgan.

Uni qurishda ganchkor ustalar Xudoybergan hoji, usta Nurmat, Ro'zimat Masharipov, yog'och o'ymakorligi va uni bo'yash ustalari Bobojon Qalandarov, Ota Shayx, Ismoil Abduniyozov, g'isht teruvchi Quryoz Bobojonov va b. qatnashgan.

Nurullaboy saroyi mujassamotida Xorazm milliy uy-joy qurilishining an’anaviy xususiyati o‘z ifodasini topgan.

Me’moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta’mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me’moriy obidalar qatorida Islomxo‘ja majmuasi ham ta’mirlandi. Me’moriy obida atroflari ko‘kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Minora afsonaviy ko‘rinishini Ichan qal’a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo‘lib, 1990-yilda Xivadagi “Ichan qal’a” Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

TOSHKENT ME'MORCHILIGI

Baroqxon madrasasi



Baroqxon madrasasi Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) tomonidan buniyod etilgan bo'lib, uning tug'ilgan yili ma'lum emas, 1556-yil Samarqandda vafot etgan. Baroqxon Shayboniyalar sulolasidan bo'lган xon Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchxo'jaxonning kichik o'g'li. Otasingin vafotidan keyin Toshkent hokimi (1525-1551), so'ngra Movarounnahr (1551-1556) xoni bo'lgan. Baroqxon yoshligida

Vosifiydan she'riyat, musiqa, vazn va nazmdan ta'lim olgan. Ayni vaqtida chavandozlik va harbiy mashqlar bilan ko'proq mashg'ul bo'lgan. Baroqxon o'z sultanatini kengaytirish maqsadida ko'pgina harbiy yurishlarni amalga oshirgan. U Abdulatifxon vafotidan keyin, 1551-yil Samarqand taxtiga o'tirgan va Baroqxon nomi bilan Movarounnahrni boshqargan. Uning nomi bilan tanga pullar zarb etilgan. Baroqxon ayniqsa, mamlakat obodonchiligiga katta e'tibor bergen. Mamlakatda uning hukmronlik davrida bir qancha masjid va madrasalar, karvonsaroylar buniyod etilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida qayd etilishicha, Baroqxon 1556-yilda Zarafshon daryosidan boshlangan Darg'om kanalining bosh inshooti – Ravotxo'ja to'g'onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to'satdan vafot etgan.

Inshoot so'nggi o'rta asrlar davri, XVI asrning 1-yarmiga taalluqli bo'lib, 1531-1532-yillar oralig'ida buniyod etilgan.

Baroqxon madrasasi Movarounnahrda shayboniyalar sulolasi hukmronlik qilgan davrda Toshkentning qadimiy manzillaridan biri bo'lmish Zarqaynar ko'chasida buniyod etilgan.

Uning buniyod etilishida xom va pishgan g'isht, loy, turli hajmdagi taxtalar, tosh, mis, sopol parchalari, tunuka, sement va boshqa ashyolardan keng foydalanilgan.



Madrasanining umumiyo ko'rinishi: madrasa devorlari toqlari va peshtoqlariga rang-barang koshinlar ishlangan, xonaqoh ichkarisi esa kundal uslubida bezatilgan va ustidan zarhal yuritilgan. Devorning to'q yashil rangli olti yoqli sirtiga parchin terib ishlangan, izorasiga zarhal yogurtirilib nafis bezaklar berilgan; shoir Vosifiyning she'rlari serjilo, naqshinkor usulda devorlarda aks etgan. Hujra derazalariga turli girrix naqshlar o'yilgan ganch panjaralar o'matilgan.

Inshoot Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan gumbazsimon, "Chor" uslubda buniyod etilgan.

Rivoyatlarga ko'ra, me'moriy obida bunyod etilgan joyda ilgari Xristian ibodatxonasi bo'lgan. Ko'p yillar avval shu yerdan Iso Xristos haykalchasi bilan bolalar oltin beshigining topilishi buni isbotlaydi. Inshoot o'z davrida qurilgan boshqa inshootlardan devorlarining qalnligi va nisbatan hashamatdan holiligi bilan ajralib turadi.

Inshoot o'z davrida ta'lim muassasasi, Ikkinci Jahon urushi yillarida ombor vazifasini bajargan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng uning vazifasi o'zgardi, hozirda inshoot muqaddas qadamjolarimizdan biri bo'lib kelmoqda.

Ikkinci Jahon urushi yillarida qarovsiz ahvolda qolgan madrasada bir necha bor ta'mirlash, tuzatish ishlari olib borilgan. 1904-1905-yillarda Toshkentlik usta Xoja Abdul Qosim tomonidan qilingan ta'mirdan so'ng hozirgi qiyofasiga keltirilgan. Bundan tashqari, inshootda 1946, 1949, 1951, 1967-yillarda va, ayniqsa, 2007-yilda ta'mirlash ishlari olib borildi. Suyunchxo'ja va egasi noma'lum bo'lgan maqbaralar ustidagi gumbazlar qayta tiklandi. Olib borilgan ta'mirlash ishlaridan so'ng, Baroqxon madrasasi avvalgi holatidan bezaklarining boyligi va me'moriy o'lchamlarining uyg'unligi bilan farq qiladigan bo'ldi. Madrasa yonidagi kam ahamiyat kasb etgan inshootlar buzib tashlanib, madrasa oldida yirik maydon barpo etildi. Uning umumiy o'lchami – 82x44 metr, hovlisi – 46x27 metrni tashkil etadi.

2009-yil Toshkent shahrining 2200 yilligi tantanalarining nishonlanishi munosabati bilan madrasada qisman ta'mirlash ishlari olib borildi. Bundan tashqari, AYSESKO tashkiloti tomonidan Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb nom berilishida ham inshootning o'mni alohida ahamiyatga egadir. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi hududida dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishida katta o'rin tutgan, asrlar davomida saqlangan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Marg'ilon, G'ijduvon, Vobkent, Termiz va boshqa tarixiy shaharlar, mavjud bo'lgan me'moriy va tarixiy obidalar davlat muhofazasiga olingan.

Ko'kaldosh madrasasi



Toshkentning qadimiylaridan biri bo'lmish Chorsu maydoni yonida joylashgan Ko'kaldosh madrasasi Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan 1551-1575-yillarda bunyod etilgan. Madrasani qurgan ustalar nomi ma'lum emas. Ushbu me'moriy obidaning qurilishi O'zbekiston tarixida so'nggi o'rta asrlarning dastlabki davriga to'g'ri keladi.

Madrasani bunyod etilishida rahnamolik qilgan Qulbobo Ko'kaldosh Abdullaxon II ning ko'kaldoshi bo'lib, u Buxoro xonligida xonning dushmanlari va do'stlari haqida

ma'lumot yig'gan hamda ularga oid tavsiyalarni xonga taqdim qilgan. Bundan tashqari, davlatning xavfsizligiga asosiy javobgar shaxs hisoblangan.

Madrasa shayboniylar sulolasini hukmronligi davrida bunyod etilgan bo'lib, uning qurilishida loy, pishgan va xom g'isht, yog'och, har xil hajmdagi toshlar, sopol parchalari, sement, tunuka, temir, shisha, maxsusus "qir" qotishmasidan va shu kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanilgan.

Ko'kaldosh madrasasining umumiyi o'lchami 62,7x44,9 metrni tashkil etadi. Bosh tarzi janubga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid va darsxonalarining tomi o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat. Miyonsaroy 7 gumbazli. Chorsu hovlisi (38x26,9 m) keng, hujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hovlining atrofidagi hujralar 38 ta bo'lib, darsxona va masjid bilan o'zaro bog'langan. Madrasa dastlab 3 qavatli bo'lgan. Me'morlar madrasani bezashda asosan, binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Peshtoqi bilan balandligi 19,73 metr bo'lib, sirkor parchin va girrih naqshlar bilan bezaklangan. Bosh tarzining ikki burchagidagi guldastalar tepasi qafasa bilan yakullangan.

Me'moriy obidaning uslubini yoritadigan bo'lsak, Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo'lsak, bu inshoot sun'iy ravishda qilingan maxsus tepalik ustida qurilgan va baland bo'lganligi uchun shahar tashqarisidan ham ko'rinish turgan. Madrasa g'ayritabiyy baland va katta bo'lganligidan Toshkentning boshqa inshootlaridan farq qilib turgan.

Mustaqillik yillarda madrasada bir necha bor ta'mirlash ishlari olib borildi. Madrasaning old tomoniga an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. 1998-yildan binoning muhandislik ustuvorligini ta'mirlash, tashqi va ichki tarzlarini asl holiga keltirish va atrofini obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, inshoot hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan madrasalardan biridir.

2009-yil Toshkent shahrining 2200 yilligi tantanalarining nishonlanishi munosabati bilan madrasada qisman ta'mirlash ishlari olib borildi. Bundan tashqari, AYSESKO tashkiloti tomonidan Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb nom berilishida ham inshootning o'rni alohida ahamiyatga egadir. 2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

Mo'yi Muborak madrasasi



Madrasa Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qo'shbegi tomonidan bunyod etilgan bo'lib, "Toshkent tarixi" asarining muallifining ma'lumot berishicha, Ahmad qo'shbegi asli Qo'qonlik bo'lib, tug'ilgan yili ma'lum emas. Uning otasi Amir Umarxon davrida Toshkentga yuborilgan mas'ul

shaxslardan biri bo‘lgan. Mirzo Ahmad 1830-1831-yillarda shu shaharning hokimi lavozimida faoliyat yuritgan. U Qo‘qon xonligidagi munosib xizmatlari va qipchoqlar qirg‘inidagi faol ishtiroki evaziga Xudoyorxon tomonidan Toshkent shahri hokimi lavozimiga tayinlangan. Muhammad Solihxo‘janing yozishicha, Mirzo Ahmad Chor Rossiyasining Toshkentga birinchi hujumi paytida 1864-yili halok bo‘lgan. Mirzo Ahmad qo‘shebegi mazkur madrasaning bekam-u ko‘st faoliyat olib borishi uchun o‘z hokimligi davridayoq eski Toshkent, Saroig‘och va Xonqo‘rg‘onda o‘zlashtirilgan yerlarni hamda boshqa turdagি mulklarni vaqf qilgan.

Me’moriy obida so‘nggi o‘rta asrlarning oxirlarida, ya’ni 1856-1857-yillarda Toshkentning Hazrati imom mavzesida, Qaffol Shoshiy maqbarasi janubida bunyod etilgan.

Me’moriy obida o‘rnida qurilgan dastlabki inshoot (XVI) nurab, tolibi ilmlar uchun yaramay qolganligi uchun bu madrasa o‘rnida yangi bir madrasani bunyod etish boshlanadi. Eng asosiysi, bu madrasada Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizning mуборак mo‘ylari (soch tolalari) saqlangan. Yangi madrasaning bunyod etilishi “Muborak mo‘y”ning saqlanishiga ham xizmat qilgan.

Mazkur inshoot bunyod etilgan davrda davlatda Minglar sulolasi hukmronlik qilgan.

Madrasaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagи xom va pishgan g‘isht, loy, yog‘och, koshin, temir va shunga o‘xhash mahsulotlardan foydalanilgan.

Madrasa tarhi ham, me’moriy yechimi ham o‘ziga xos bo‘lib, uning peshtoqi rangin, naqshinkor gullar bilan bezaklangan. Inshoot tashqi bezaklarida asosan ko‘k

rang ustunlik qiladi. Madrasa to‘rtburchak tarqli, gumbazli bo‘lib, uning 13 hujrasi mavjud. Me’moriy obidaning kiraverish eshiklarining yuqori qismi turli xil gulli kosinkori naqshlar bilan bezaklangan. Bezaklarning ikki chetki qismida gulli naqshlar chizilgan bo‘lib, u guldan boshqa naqshlar tarqagan. Me’moriy obidaga kiraverish qismi ham me’morchilik an’analarini o‘zida yaqqol namoyon etgan bo‘lib, madrasa ichkarisiga naqshinkor qilib ishlangan eshiklardan kiriladi.

Eshikdan kiraverishda dunyoga mashhur “Mus’hafi Usmon” tagkursi ustida turibdi. Madrasaning gumbaz osti naqshlari insonni beihtiyor o‘ziga jalb etadi, naqshlarda asosan yashil, moviy va tilla ranglar mahorat bilan ishlatalgan. Madrasaning boshqa hujralarida turli xil hajmli va turli davrlarda ko‘chirilgan va boshqa tillarga ko‘chirilgan Qur’on nusxalari saqlanmoqda. Madrasa eshiklari yog‘och o‘ymakorligining yorqin namunasi demakdir. Dastlab inshoot ta’lim maskani sifatida faoliyat yuritgan.

Madrasa Sharq me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida, eshiklari esa xotamkori uslubida bunyod etilgan.

Madrasani bunyod ettirgan Toshkent hokimi Mirzo Ahmad madrasa bitgach, unga Abdulmajidxon eshonni (sobiq muftiy Ziyovuddin eshon Boboxonning bobosi) mudarris etib tayinlangan. Kutubxonaning kitob fondi haqida gapirganda, marhum



muftiy Eshon Boboxon hazratlarining nomini tilga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi tashkil etilgan dastlabki yillardanoq (1943) uning raisi Eshon Boboxon hazratlari shaxsiy kutubxonalaridagi mingdan ortiq qo‘lyozma kitoblarni idora kutubxonasiga taqdim etgan. Ularning ishlarini, keyinchalik Nodirxon domla 1943-1970-yillarda xalqdan sotib olingan yoki hadya tariqasida yig‘ilgan qo‘lyozma va bosma kitoblar hisobiga boyitgan. Bu mo‘tabar maskanda xalifa Usmon davrida (644-656) kiyik terisiga hijoz xatida yozilgan qadimiyy Qur’oni Karim (Usmon Mus’hafi) saqlanmoqda. Bu muqaddas Qur’onning eng nodir qo‘lyozmalaridan hisoblanib, XIV asrda Amir Temur tomonidan Suriyadan olib kelingan.

Obidaning bugungi kundagi holati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, inshoot mustaqillik yillarida ta‘mirlandi. Jumladan, Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan shahardagi me’moriy obidalar qatorida Mo‘yi Muborak madrasasi ham ta‘mirlandi. Me’moriy obida atroflari ko‘kalamzorlashtirildi. Madrasa tomiga yangi gumbaz o‘rnatildi. Ganchkor bezaklar Nodir Hoshimov, Sharofuddin Ziyovuddinov, Bahodir Ashirov kabi iqtidorli ustalar qo‘lidan chiqdi.

Me’moriy obidaga hukumatimiz hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritlgan. 2007-yil AYSESKO tashkiloti tomonidan “Toshkent – islom madaniyatining poytaxti” deb e’lon qilindi. Bu esa nafaqat Toshkent, balki butun respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rniga o‘z hissasini qo‘shtay qolmaydi. Bundan tashqari me’moriy obidaga tashrif buyuruvchilarning also keti uzilmaydi. Madrasaga nafaqat O‘rta Osiyo davlatlaridan, balki Yevropa mamlakatlaridan ham tashrif buyurishadi. Bundan bilishimiz mumkinki, bizning milliy qadamjolarimiz chet davlat vakillarini ham befarrq qoldirmaydi.

Me’moriy obidaga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, inshootda bir necha bor ta‘mirlash ishlari olib borildi. Jumladan, 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me’moriy obida atrofidagi e’tiborga molik obidalar ham tamirlandi. Bundan tashqari, mamlakatimizda madaniy hamda me’moriy obidalarni huquqiy jihatdan himoyalash va ularni asrash maqsadida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” hamda 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qabul qilingan qonunlarning o‘zi ham buning yorqin dalilidir.

Tillashayx masjidi



Ushbu inshoot Toshkentlik mashhur shayx Tillashayx tomonidan bunyod etilgan.

Tillashayx haqida uning avlodlari orasida ayrim xotiralar saqlanib qolgan. Unga ko‘ra, Tillashayx Xo‘ja Ubaydulla Ahror avlodlaridan bo‘lib, Toshkentning Parchabof mahallasida tug‘ilgan. U

yoshligidan savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullangan va keyinchalik taqvodor savdogar bo‘lib yetishadi. U Xitoydan qo‘y olib kelib sotish bilan shug‘ullanib, bir yillik foydasidan ushbu masjidni bunyod ettirib, mo‘min-musurmonlarga in’om etadi. Tillashayx sho‘rolar davrida o‘z oilasi bilan Sharqiy Turkistonga ketishga majbur bo‘ladi va o‘sha yerda vafot etadi. Uning vafot etgan yili ma’lum emas.

Inshoot XIX asrning oxiri – XX asrning boshida, 1890-1902-yillarda bunyod etilgan bo‘lib, bu Chor Rossiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik davriga tog‘ri keladi.

Tillashayx toshkentlik shayxlarning maslahati bilan masjid buynod etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan va uning qurilishini 1890-yili boshlab yuborgan.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagи xom va pishgan g‘ishtlar, loy, yog‘och, tosh, sopol parchalari va shunga o‘xhash mahsulotlardan foydalanilgan.

Me’moriy obida o‘zining dizayni bilan o‘z davrida qurilgan boshqa masjidlardan ajralib turgan. Inshoot to‘rtburchak tarhli, gumbazsimon, masjidning ikki yonida uncha katta bo‘lmagan minoralar bo‘lib, masjidga arkasimon qilib qurilgan ayvon orqali kiriladi. Arkalar soni 3 ta. Masjidning tashqi tomoni bezaklardan holi bo‘lib, uning ikki yonida masjidga yorug‘lik tushishini ta’minalash uchun derazalar (18 ta) o‘rnatilgan. Masjidning ichki tarzi tashqi tarzidan mutlaqo farq qiladi, undagi ganch naqshlar, gulli bezaklar insonni beihtiyor o‘ziga jalg qiladi. Masjid ichidagi gumbazosti naqshlar ham o‘zining nafisligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Masjidni yoritish maqsadida qandillar ham o‘rnatilgan.



Masjid milliy me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubda, eshiklari esa xotamkor uslubida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, uning tashqi tarzida hech qanday bezaklarni ko‘rmaymiz, ammo masjidning ichki va tashqi qismi esa bezaklarga boyligi bilan ajralib turadi.

Masjidning bugungi kungacha va bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, Tillashayx masjidi biroz vaqt faoliyat yuritgandan so‘ng Chor Rossiyasi tomonidan yopib qo‘ylgan. Masjid 1945-yil 7-mayda qaytadan ochilgan. Masjid 1955-1963-yillarda usta Shirin Murodov tomonidan ta’mirlangan. 2007-yil Hastimom majmuasi bunyod etilgan davrda me’moriy obida atrofidagi e’tiborga molik obidalar ham ta’mirlandi.

Masjid YUNESKO tashkiloti tomonidan Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. Mamlakatimiz tomonidan esa, 2000-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” hamda 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qabul qilingan qonunlar majmua muhofazasining yorqin dalilidir.

Abulqosim Eshon madrasasi



Abulqosim Eshon madrasasi o‘z nomidan ham ma’lumki, Abulqosim eshon tomonidan bunyod etilgan.

Abulqosim eshon ibn Eshonto‘raxon (?-1892) – din arbobi, Toshkentning mashhur eshonlaridan bo‘lgan. Toshkentda tug‘ilgan. Otasi Eshonto‘raxon nafaqat Toshkent, balki butun Qo‘qon xonligi hududida katta nufuzga ega bo‘lgan. Rus tadqiqotchilari (V.N.Nalivkin, N.Likoshin, N.P.Ostromov va boshqalar) Abulqosim eshon zamonasining aqli, zukko, bilimli insonlaridan biri ekanligini e’tirof etishgan. Abulqosim eshon o‘z mablag‘iga madrasa bunyod etgan.

Me’moriy obida Beshyog‘och dahasida 1850-yilda qurdirilgan. Binoning eng eski qismi – xonaqohi Mo‘yi Muborak Abulqosimning otasi Eshonto‘raxon tomonidan 1820-yil bunyod etilgan.

Inshoot mang‘itlar sulolasiga davrida qurilgan so‘nggi o‘rta asrlarning noyob yodgorligi hisoblanadi.

Me’moriy obidaning qurilishida chorsu pishiq g‘ishtidan, loy, koshin va shunga o‘xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan.

Madrasani bezashda asosiy e’tibor bosh tarziga qaratilgan. U chorsu pishiq g‘ishtidan ikki qavatlari qilib, sharqqa qaratib qurilgan. Bosh tarzining o‘rta qismida madrasa devori sirtidan 1,82 m bo‘rttirib chiqarib, balandligi 16 metrli peshtoq ishlangan. Uning ikki yonida guldasta minora qad ko‘tarib, ularning tepe qismida XVI-XVII asrga xos mezana bor. Peshtoqning old va yon tomonlari (to dahana asosigacha) va devorning kungurador qismi chorsu pishiq g‘ishtidan tekis qilib ishlangan. Uning yuqori qismi esa sharafa hamda kitoba bilan bezatilgan.

Me’moriy obida o‘zida Sharq me’morhiligi an’analarini namoyon qilgan va “Chor” uslubida bunyod etilgan.

Madrasa o‘sha davrda qurilgan boshqa madarasalardan o‘zining me’moriy yechimi bilan ajralib turgan.

Abulqosim Eshon madrasasi 1919-yilda barcha diniy tashkilotlar qatorida yopilgan. Madrasa oldidagi hovuz va uning o‘ng tomonidagi hammom 1940-yilda chap tarafidagi ustunli masjid buzilgan. Bugungi holatiga 1982-1987-yillarda olib borilgan ta’mirlash ishlari natijasida shakllangan. Hozirda madrasa muqaddas qadamjolarimizdan biri hisoblanadi.

Abulqosim Eshon madrasasiga mustaqillik yillarida hukumatimiz qolaversa, Xalqaro tashkilotlar tomonidan munosib ravishda e’tibor qaratilmoqda. Madrasada tarixchi-arxeologlar, arxitektorlar tadqiqot ishlari olib borishdi va u haqida bir qancha ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar yozildi. Hozirda madrasa davlat himoyasiga olingan tarixiy-moddiy yodgorlik hisoblanadi.

Me’moriy obida 1983-yildan O‘zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish jamiyatining Toshkent bo‘limi, 1996-yildan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamg‘armasining Toshkent shahar bo‘limi va uning xalq amaliy san’atiga ixtisoslashtirilgan Ustoz-shogird yo‘nalishidagi maktab joylashgan.

QO'QON ME'MORCHILIGI

Madrasayi Miyon Hazrat

Madrasayi Miyon Hazrat inshooti Miyon Ahad deb atalgan taqvodor shaxs tomonidan bunyod etilgan.

Miyon Ahad asli Peshovar (Pokiston)lik bo'lib, evarasi Abdurahmonning hikoya qilishicha, u Abdusamadboy degan boy bilan tanishib, o'z oilasi bilan Qo'qonga ko'chib kelgan. Ahad o'zining o'tkir zehni, diniy bilimlarga boyligi bilan mahalliy aholi o'rtasida katta e'tibor qozongan hamda xon huzurida maslahatchi darajasiga ko'tarilgan. U Pokistondan olgan meros mulkiga shu madrasani qurdirgan.

Me'moriy obida so'nggi o'rta asrlar davrida, XVIII asrda bunyod etilgan.


Uning qurilishida har xil o'lchamdag'i xom va pishgan g'isht, loy, yog'och, maxsus "qir" qotishmasidan va shu kabi mahsulotlardan keng foydalanilgan.

Madrasa tarhiga ko'ra murakkab, 3 hovlili; 2 hovli sharq-g'arb o'qi bo'y lab, uchinchi hovlisi esa janubdan yondashgan. Madrasaga kiradigan asosiy yo'l janubiy hovlining g'arbidan peshtoq gumbazli darsxona orqali kiriladi. Yog'ochdan ishlangan darvozani mahalliy usta Iskandarxo'ja o'yma naqshlar bilan bezagan. Janubiy hovli (32x26) atrofida hujralar joylashgan, uning janubiy tomonidagi masjid ko'p ustunli, tarhi to'g'ri to'rtburchak, tekis tomli. Madrasa hovlisining janubi-shraqida uncha katta bo'limgan minora saqlangan. Sharqiy hovli (35x20 m) va g'arbiy hovli (23x11 m) atrofida ham hujralar joylashgan. Sharqida ayvon (saqlanmagan), g'arbida esa darsxona bor. Madrasa tomlari kulohiy, qubbali va to'sinli usullarda qoplangan. Tashqarisi sirkor pishiq g'ishtdan ishlangan, ichi esa ganj qorishmasida suvalgan. Uning bunday hovlilar tizimiga ajratilishi o'qitiladigan fanlarning guruhlarga bo'linishi bilan bog'liq deb taxmin qilinadi.

Me'moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo'lsak, inshoot Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubida bunyod etilgan.

Me'moriy obida ta'lim maskani vazifasini o'tagan. Unda diniy bilimlardan tashqari, boshqa fanlar ham o'qitilgan. Muqimiy ham shu madrasada ta'lim olganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan. Madrasayi Miyon Hazrat Qo'qonda minglar sulolasi hukmronligi davrida qurilgan ta'lim muassasasi bo'lgan.

Xudoyorxon saroyi



Xudoyorxon saroyi minglar sulolasiga mansub Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan bunyod etilgan.

Xudoyorxon (1831–1882) uch marta – 1845, 1862, 1865-yillarda

taxtga chiqib (1845–1875-yillarda tanaffuslar bilan: 1845–1858; 1862–1863; 1865–1875), umumiy hisobda chorak asr hukmronlik qilgan. Sheraxonning o'g'li. Qaynotasi Musulmonqul tomonidan taxtga o'tqazilgan. Ammo yosh bo'lganligi tufayli amalda davlat ishlarini Musulmonqul boshqarib borgan. Eng muhim lavozimlar qipchoqlar o'liga o'tadi va ular xohlaganicha beboshliklar qila boshlaganlar. Natijada ichki kurash kuchayib, 1853-yilda qipchoqlar qirg'ini boshlangan. Buning oqibatida 20 mingga yaqin qipchoqlar o'ldirilgan, Musulmonqul esa Qo'qonda dorga osilgan. Shu yildan Xudoyorxon davlatni mustaqil idora qila boshlagan. Ammo tajribasizligi tufayli ko'p xatolarga yo'll qo'ygan. Bundan foydalangan akasi Mallabek taxt uchun kurashni boshlab yuborib, 1858-yilda o'zini Qo'qon xoni deb e'lon qilgan. Xudoyorxon Buxoroga qochishga majbur bo'lgan. 1863-yilda Buxoro amiri Muzaffar yordamida Qo'qon taxtiga qayta o'tirgan. Ammo Musulmonqulning o'g'li mingboshi Alimqul xonzodalardan bo'lmish yosh Said Sultonmurodni xon deb e'lon qiladi va Xudoyorxonni yana Buxoroga qochishga majbur etgan. Alimqul amir ul-umaro bo'lib, amalda davlat ishlarini yakka o'zi boshqarib borgan. Qo'qon xonligidagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi xonlikka tegishli Turkiston, Chimkent (1864) va Toshkentni (1865) bosib olgan. 1865-yilda Qo'qon taxtiga Xudoyqul ("Belboqchixon" degan laqabi ham mavjud) o'tirgan. Ammo u 14 kundan so'ng xazinani o'zi bilan olib Qashqarga qochib ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon yana taxtga chiqqan. 1875-yil iyul oyida Po'latxon va unga ergashgan ukasi Sulton Murodbek, o'g'illari Nasriddin, Muhammad Aminbek, shuningdek, sobiq sarkardalari Iso avliyo, Abdurahmon oftobachilarining birlashgan qo'shinlariga tob berolmay Xo'jandga qochishga majbur bo'ladi. Oradan bir necha kun o'tgach, Turkiston general-gubernatori fon Kaufman chaqirig'i bilan Toshkentga kelib, o'sha yilning 12-avgustida: "Peterburgga, imperator huzuriga borasan", deb aldab, Rossiya ichkarisiga jo'natib yuboriladi. Imperatorning maxfiy topshirig'i bilan Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy tomonidan o'sha shaharda majburiy ushlab qolinadi va ikki yildan ziyodroq xonaband holda saqlanadi. Nihoyat, u 1877-yil Turdiali ismli harbiy bilan til topishib, uning yordamida avval Afg'oniston, so'ng Eron hududi orqali haj niyatida Makkaga boradi. Haj ziyoratidan so'ng Iroq, Hindiston va boshqa mamlakatlarda bo'ladi. Qaytishda Afg'onistonning Karrux manzilida 1882-yil dunyodan ko'z yumadi.

Xudoyorxon saroyining qurilishi songgi o'rta asrlarning oxirgi bosqichiga, Chor Rossiyasining O'rta Osiyonи zabt etilishining birinchi va ikkinchi bosqichi davriga to'g'ri keladi.

Saroy 1863–1870-yillar oralig'ida qurilgan.

U sun’iy tepalikka baland g‘ishtin poydevorli qilib qurilgan: xon qarorgohi, o‘rda ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda foydalaniladigan yuzga yaqin kattakichik xonalar, ichki-tashqi xonalardan iborat bo‘lgan. Saroy xonning oilaviy turarjoyi bo‘lishi bilan birga, davlatning bosh boshqaruv apparati ham shu yerda bo‘lgan.

Xudoyorxon o‘rdasi qurilgan davrda Qo‘qon xonligining shimoliy chegaralari Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olindi va bu hududlarda Yettisuv viloyati tashkil etildi. 1864-yil Chimkent va Turkiston, 1865-yil Toshkentning bosib olinishi bilan Qo‘qon xonligining shimoliy-g‘arbiy hududlari qo‘ldan chiqib ketdi va bu hududlarda dastlab Turkiston viloyati tashkil etilgan bo‘lsa, 1867-yil bu hududlar yanada kengaytirilib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrda Qo‘qon xonligida Minglar sulolasи hukmronlik qilar edi.

Me’moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g‘isht, marmar, quyma ganch, parket, tosh, yog‘och, tunuka, har xil qimmatbaho toshlar va boshqa ashyolar ishlataligian.

Saroyning bosh tarzi bir qavatli qilib bunyod etilgan, pishiq g‘ishtdan (26x26x5 sm) ganj suvoqda terilgan devorlarga bir g‘isht chuqurlikda ravoqlar ishlangan. Peshtoq o‘rda devoridan birmuncha bo‘rttirib oldinga chiqarib qurilgan, baland va hashamatli, peshtoqning ikki yoni va tarzlarining ikki burchaklarida gumbazli mezanalar bilan yakunlangan guldastalar bor. Peshtoqqa uzunligi 40 m bo‘lgan qiya yo‘lka (pandus) orqali o‘tiladi. Xudoyorxon o‘rdasi bosh tarzi ravoqlari, peshtoq va guldastalaridagi handasiy naqshlar koshinlar, sirkori parchinlardan mahorat bilan yaratilgan. Peshtoq orqali to‘rburchak tarhli darvozaxonaga o‘tiladi, darvozaxona gumbazi o‘zaro kesishgan ravoqli asos ustiga qo‘yilgan; gumbaz ubti, o‘z navbatida, qubbali mezana bilan yakunlangan, undagi panjarali darchalar orqali ichkariga yorug‘lik tushadi. O‘rdaning bosh tarzi, xonalar koshinlar, o‘yma ganchkori naqshlar bilan bezatilgan, shiftlari hovuzakli bo‘lib, ularga gullar solingan, xonalarning tepe qismi sharafalar bilan hoshiyalangan. Saroyning umumiy ko‘rinishi 3 qismdan iborat bo‘lgan. Birinchi qism xon saroyi, majlislar o‘tkaziladigan va davlat ishlari yuritiladigan xonalardan iborat bo‘lsa, ikkinchi va uchunchi qismlar (ichki qismlar) xon harami va istiqomat xonalaridan iborat bo‘lgan.

Me’moriy obida Sharq an’analari asosidagi gumbazsimon, to‘g‘ri to‘rburchak, “Chor” uslubida qurilgan.

Ushbu inshoot faqat bitta hukmdor tomonidan qurilgan va faqat shu hukmdorgina ushbu saroydan davlat boshqaruvida va boshqa jabhalarda faoliyat yurita olgan. O‘rdaning Farg‘ona vodiysidagi boshqa tarixiy inshootlardan farqli jihat shundaki, u davlat hukmdorining saroyi hisoblangan.

Xudoyorxon o‘rdasining 1998, 2002-yillarda ta’mirtalab qismlari tiklandi. 1924-yilda Xudoyorxon o‘rdasida Qo‘qon xonligi yutuqlari ko‘rgazmasi ochilgan. 1925-yildan saroyda Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, mustaqillik yillarida boshqa tarixiy yodgorliklar qatori Xudoyorxon saroyi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga

kiritildi. 2000-yil 30-avgustdagи “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunga binoan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi arxivlar Bosh boshqarmasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Mingoyim madrasasi

Mingoyim madrasasi minglar sulolasiga mansub bo‘lgan Qo‘qon xoni Olimxon tomonidan bunyod etilgan.

Olimxon (1762-1810) – Qo‘qon xoni (1798-1810), Norbo‘tabiyning o‘g‘li. Uning davrida sultanat hududini kengaytirish davom ettiriladi. U Ohangaron, Chimkent, Sayram, Toshkent viloyatining hammasini, Rossiyaga boruvchi karvon yo‘llaridagi muhim manzilgohlarni zabt etadi. U Buxoro amirligiga qarshi turishga kuchi yetishiga ishongan holda 1805-yil “xon” rutbasini qabul qiladi, davlati esa Qo‘qon xonligi deb atala boshlandi. Poytaxt — Qo‘qonning siyosiy ahamiyati oshgan. Olimxon tog‘li tojiklar: qorateginlar, sho‘g‘nonliklar, badaxshonliklar, eroniylar va boshqalardan iborat yollanma qo‘sish tuzgan. Bu qo‘sish hokimiyatni markazlashtirish uchun kurashda uning tayanchi bo‘lgan. Olimxon davrida Rossiya bilan Qo‘qon xonligining birinchi marta savdo aloqalari o‘rnatalgan. U diniy sohada ham o‘zgarishlar qilishga intilgan, xususan, diniy unvon hisoblangan «eshon»ni bekor qiladi, kambag‘al, bechoralarga va qalandarlarga yer maydonlari va chorva mollari beradi va shu bilan ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qiladi. Ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va yolg‘onchiligi fosh qilinganlarni jazolaydi. Ulamolar uning bu xatti-harakatlaridan norozi bo‘ladilar. Uning Toshkentdaligidan foydalanib fitna uyushtiradilar, u o‘ldirildi, deb mish-mish tarqatadilar. Taxtga uning ukasi Umarxon o‘tqaziladi. Olimxon xiyonatni bilib qolib, qisqa yo‘l bilan Qo‘qonga jo‘naydi va yo‘lda qo‘yilgan pistirma uni otib o‘ldiradi.

Olimxon onasi Mingoyimga atab dastlab xonaqoh qurdirgan (1800-yil). Xonaqohning orqa tomonida huddi shu nomda madrasa qurilishi boshlandi (1801-yil). Tarixiy manbalarda aytilishicha, qurilishga qo‘qonlik me’mor Siddiqhoji rahbarlik qilgan. Dastlab yotoqxona, so‘ng qaznoq, undan keyin madrasa qurildi. 1875-1876-yillarda Qo‘qon xonligida yuz bergan qo‘zg‘olonlar va Chor Rossiyasi armiyasining bosqinchilik yurishlari tufayli Mingoyim me’moriy obidasiga zarar yetadi.

Ushbu madrasa so‘nggi o‘rta asrlarning oxirlarida, 1800-1802-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g‘isht, marmar, quyma ganch, parket, har xil o‘lchandagi tosh, yog‘och, tunuka, qimmatbaho toshlar ishlatilgan.

Madrasa Sharq me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida, eshiklari esa xotamkori uslubida qurilgan.

Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, manbaalarda aytilishicha, madrasa har xil naqshlar, islimiy naqshlar bilan bezatilib uning ravoqlari, peshtoqlari nihoyatda mahorat bilan qurilgan. To‘rtburchak tarhli uning gumbaz qismi g‘isht o‘ymakorligi asosida bezatilgan bo‘lib, madrasa balandligi 13 metrni tashkil qiladi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, mustaqillik yillarida boshqa tarixiy yodgorliklar qatori Mingoyim madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining “Butun Jahon yodgorliklari” ro‘yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustdagи “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunga binoan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi arxivlar Bosh boshqarmasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar. 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Norbo‘tabiy madrasasi



Norbo‘tabiy madrasasi minglar sulolasiga mansub bo‘lgan Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy tomonidan bunyod etilgan.

Madrasaning bunyod etilishiga homiylik qilgan Norbo‘tabiy (taxminan 1749-1798) – Qo‘qon xoni (taxminan 1763-1798), Abdukarimbiyning o‘g‘li, xonlik taxtiga 14 yoshida chiqqan. Namangan beklarining separatizmini bostirgan. Qo‘zg‘olon ko‘targan Xo‘jand bekini yengib, shaharni o‘ziga bo‘ysundirgan. Ammo O‘ratepa nomigagina Buxoroga tobe bo‘lib qolgan. Norbo‘tabiy hukmronligining so‘nggi yillarida akasi Hojibek O‘ratepa va Qurama hokimlari yordamida isyon ko‘tarmoqchi bo‘lgan va To‘raqo‘rg‘on va Andijonni qo‘rg‘on tutgan. Norbo‘tabek Andijonga qo‘sish tortib, akasi bilan sulkh tuzgan.

Norbo‘tabiy madrasasi Qo‘qondagi Erdonaxon maqbarasi yaqinida, so‘nggi o‘rta asrlarning oxirlarida, 1798-yilda qurilishi nihoyasiga yetgan.

Me'moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g'isht, marmar, quyma ganch, parket, har xil o'lchandagi tosh, yog'och, tunuka, qimmatbaho toshlar va boshqa ashylolar ishlataligan.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoitga to'xtaladigan bo'lsak, Norbo'tabek davrida Farg'ona vodiysini birlashtirish jarayoni tugagan, iqtisod tiklangan, mo'l-ko'lchilik, arzonchilik bo'lgan. Bu esa Farg'onaga ko'chib kelishga imkon yaratgan. So'ngra u Qo'qon vodiyning madaniy-iqtisodiy markaziga aylangan.

Norbo'tabiy madrasasi bir qavatli, hovlili, to'g'ri to'rtburchak tarhli (52x72 m), 4 burchagiga minora guldastalar ishlangan. Hovli (38x38 m) atrofida qator ravoqli hujralar joylashgan. Peshtoqi shimolga qaragan. Miyonsaroyning ikkinchi tarafida peshtoq bo'ylab tutashgan gumbazli masjid va 12 ta derazali darsxona mavjud. Norbo'tabiy madrasasining asosiy qismi pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Xonalarning ichki qismi ganjsuvoq qilingan. Madrasaning gumbaz osti sharafasi va mehrobining yulduzsimon bezaklari serhasham ko'rinishda ishlangan. Eshiklari girrix naqshlar bilan bezatilgan, ichki qismida esa o'ymakori islimiylar qo'llanilgan.

Madrasa Sharq an'analarining gumbazsimon uslubida qurilgan. Norbo'tabek madrasasi o'z nomidan ham ma'lumki, ta'lim maskani sifatida faoliyat yuritgan.

Madrasa Norbo'tabiy tomonidan bunyod etilganligiga qaramay, u xalq orasida Mir nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, inshoot Qo'qonda qad ko'targanligiga qaramay, uning tashqi ko'rinishi Buxoro me'morchilik maktabi uslubiga xosligi insonni hayratga soladi.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holatiga to'xtaladigan bo'lsak, Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, yurtimizdagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Norbo'tabiy madrasasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari 2001-yilda ko'kalamzorlashtirilgan.

Me'moriy obida, yuqorida aytib o'tilganidek, mamlakatimiz mustaqilligi yillarida qayta ta'mirdan chiqdi, atroflari ko'kalamzorlashtirildi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda "Muzeylar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me'moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

KARMANA ME'MORCHILIGI

Mir Sayyid Bahrom maqbarasi



Mir Sayyid Bahrom maqbarasi Karmana shahri markazida joylashgan. U XXI asrlarga xos bo'lib, respublika hisobidagi obidalar qatoriga kiradi. Bino somoniylar davrida bunyod etilgan bo'lib, uning ichki qismi o'rtasida Mir Sayyid Bahrom dafn etilgan. Qabr yonida arabcha so'zlar bilan yozilgan ikkita qabr toshi ham saqlanib qolgan.

Maqbara bir gumbazli, to'rtburchak shaklida, hamma tomoni bir xil o'lchovdagi pishiq g'ishtdan tiklangan bo'lib, yonida ayvonlari bo'lgan. Bino ko'p ta'mirlanish natijasida deyarli dastlabki ko'rinishini yo'qotgan, uning old qismi juda ustalik bilan bezatilgan, g'isht turli usulda terilib, unga har xil shaklda bezak berilgan. Maqbaraning janubiy tomonida bitta eshik bor, uning tepa qismida kungurador, panjarali tuynuk ochilgan. Uning peshtoqi pishiq g'ishtdan qayta terilgan, unga geometrik naqshlar, kufiy usulda bitik yozilgan. Maqbaraning birinchi tadtiqotchisi A.K. Pisarchik hisoblanadi.

XX asrning 60-yillarigacha bu yodgorlik ko'pchilikning e'tiborini tortib kelgan. 1969-yilning qattiq qishida ko'p qor-yomg'ir yog'ishi natijasida maqbara binosi qisman cho'kib, devorlari va gumbazlarida yoriqlar paydo bo'lgan. U deyarli vayron bo'lish darajasiga kelib qolgan. Maqbaraning qayta ta'mirlanishi jarayonida unga yondosh ayvonli masjid buzilib ketgan.


Tarixiy manbalarda Mir Sayyid Bahrom shaxsi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. O'lkashunos A. Rahmonovning yozishicha: "U kishi ehtimol musulmon dinining yirik namoyandalaridan biri bo'lgandir yoki somoniylar sulolasi vakillaridan biridir, chunki maqbara qurilishi jihatidan Ismoil Somoniy maqbarasiga bejiz o'xshatib qurilmagan".

Abu Bakr Muhammad Narshaxiy "Buxoro tarixi" kitobining "Buxoro va unga qo'shiladigan joylar" bayoni qismida Karmana haqida ma'lumot berar ekan, shunday yozadi: "Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor, unda masjidi jome' barpo etilgan". O'yashimizcha, Narshaxiy bu bilan balki ana shu yodgorlikni yoki Hazora qishlog'idagi Deggaron masjidini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Olimning e'tirof etishicha, Somoniy va undan so'nggi amirlar o'zlari hukmronlik qilgan joylarda masjid, xonaqoh, karvonsaroy va qasrlar qurish, binolar barpo etishga katta e'tibor bergenlar.

Ma'lum muddat Karmanada yashab, 1874-yilda shu yerda vafot etgan Abu Tohirxoja o'zining "Samariya" kitobining "Samarqand shahrining oliy arkidan tashqarida bo'lgan serbarakot mozorlar" bobida 13-mozor Hazrat Bobo Xoja Safoning mozori shahar tashqarisida ekanligini eslatib, shu avlodga mansub qalandarlar avlodidan "u Mir Bug'royi qalandardan, u Sayyid Bahromdan..." kuloh va janda kiyganini eslatadi.

Mahalliy hokimlikning, Respublika yodgorliklarini ta'mirlash viloyat bo'limining sa'y-harakati bilan Mir Sayyid Bahrom maqbarasi bugungi kunda atrofi obodonlashtirilib, uning yonida katta "Yoshlik" bolalar istirohat bog'i tashkil etilgan. Bog'da 140 o'rinali yozgi kinoteatr, musiqa maktabi, o'quvchilar uyi faoliyat yuritmoqda. Karmanaliklar har yili Mustaqillik, Navro'z sayillarini ana shu maqbara qarshisidagi bog'da o'tkazishni odat qilganlar.

Raboti Malik



Raboti Malik karvonsaroyi Karmanadan 18 km g'arbda joylashgan, Cho'li Malikda barpo etilgan o'z davrining buyuk qasrlaridan biri bo'lgan. Rabotlar arablar Sharqqa qarab yurish boshlagan paytlardan boshlab, chegaralarda otliq soqchilarining turishlari va chegarani qo'riqlashlariga mo'ljallab qurila boshlangan. Dastlabki rabotlar VIII asrda Xurosonda vujudga kelgan. VIII asrda ummaviylar xalifasi Amros ibn Abdulloh

(727-729 yillar) birinchi rabotni qurdirgani haqida ma'lumotlar mavjud. Bular orasida Xurosondagi IX asr yodgorliklari – Raboti Sharif va Raboti Sulton eng mashhurlari bo'lgan. Keyinchalik rabotlar yo'llar ustida qurilib, ular mehmonxona vazifasini bajarib kelgan. Xuddi shuningdek, Cho'li Malikda qurilgan Raboti Malik ham Buyuk Ipak yo'li ustida qurilgan karvonsaroy – mehmonxona vazifasini bajargan.

Raboti Malik Markaziy Osiyodagi eng qadimgi monumental arxitektura yodgorligi hisoblanadi. U karvonsaroydan tashqari, atrof va chegarani qo'riqlash istehkomi vazifalarini ham bajargan. Shuningdek, Karmana va Tavois o'rtasida Buyuk Ipak yo'lidan o'tuvchi yo'lovchilar uchun muhim va zaruriy qo'nalg'a xizmatini ado etgan.

Raboti Malik 1069-1079-yillar orasida Buxoroda hukmronlik qilgan qoraxoniy sultonlardan bo'lgan Tamg'achxon Ibrohim (1046-1068)ning o'g'li Malik Shamsulmulk Nosir ibn Ibrohim (1068-1080) davrida qurilgan. Shamsulmulk Buxoroning mahalliy noiblaridan biri bo'lib, Buxoro va unga qarashli hududlar atrofida qator imoratlar qurdirgan.

Raboti Malik chorsu hovli va atrofini o'ragan xona – hujralardan iborat bo'lib, unga janub tomondagi peshtoqli darvoza orqali kirilgan. Bino tashqi kungurador devorlarining uzunligi 100 metrga yaqin bo'lib, balandligi 12 metrgacha bo'lgan. Devorning balandligi uning orqasidagi xonalar ikki qavatli bo'lganligidan darak beradi. Rabotning o'rtasida ulkan peshtoq bo'lib, uning bo'yi 18 metr, eni 12 metrnini egallagan. Darvoza qurilishi jihatdan Markaziy Osiyodagi qadimgi me'moriy bino hisoblanib, unda sakkiz qirrali yulduzlar, turli geometrik shakllar mavjud. Peshtoq chekkasida ikki burj yasalib, ular o'zarbo'yish devor bilan o'ralgan. Devor o'rtasida pil – tovar burjlar qatori tepasi kichrayuvchi ravoqlar bilan bog'langan.

Devor yuqorisida forscha yozuv bo‘lib, unda “Jahon Sultonini tomonidan qurilgan bu bino Allohnning ijobati bilan jannatga aylanur” so‘zлari bitilgan. Janubi-g‘arbdagi minora yozuvida esa Qur’oni Karimning 3-surasidan oyat bitilgan. Shuningdek, ko‘shk ostida ganchdan yasalgan ikki qator yirik sharafa kufiy xat halqasi ko‘zga tashlanadi.

Rabot devorlari o‘zagi xom g‘ishtdan (28x28x6,5 sm) terilgan, tashqarisi pishiq g‘isht (24x24x4 sm) bilan qoplangan.

Raboti Maliqda katta karvonsaroy bo‘lib, uning maydoni 400 kv.m atrofida bo‘lgan. Unda 10 qator qilib, oltitadan diametri 1 mm baland eshik ustunlar o‘rnatalgan. Ustunlar o‘rni hozirga qadar saqlanib qolgan. Oltmishesti ustunli bunday saroy Markaziy Osiyodagi eng katta karvonsaroylardan bo‘lib, taxmin qilinishicha, bu yerda tuya, ot va ularning yuklari saqlangan. Karvonsaroy devorlarining to‘rtta burchagida 18 metrli 4 ta minora bo‘lgan va “Guldasta” deb atalgan. Karvonsaroy ichida sopoldan yasalgan quvurlar orqali sardobadan vodoprovod o‘tkazilib, yo‘lovchilar suv bilan ta‘minlangan.

Raboti Malikdagi karvonsaroyda hududimiz aholisi ham o‘zining hunarmandchilik, zargarlik, tosh va marmar buyumlari orqali chet el savdogarlar bilan tovar ayirboshlab, savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Raboti Maliqdagi ba‘zi me’morchilik motivlari Arabota maqbarasi, Mog‘oki Attori masjidi (IX-X asrlar) bezaklarida ham uchraydi.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, 1238-yilda Raboti Malikda mo‘g‘ul istilochilari ustidan Mahmud Torobiya qozonganligi va keying janglarda o‘zining eng yaqin safdoshi Shamsiddin Mahbubiy bilan birgalikda shu yerda shahid bo‘lgan.

XIX asr oxirida Raboti Malikdagi saroylar ancha xarobaga aylanganligi N. Maev ekspeditsiyasi davomida aniqlangan.

1924-1925-yillar davomida Buxoro Xalq Respublikasi ixtiyorida bo‘lgan tarixiy yodgorliklar Sredazkomstaris ixtiyoriga o‘tadi. Sredazkomstaris 1925-yilning kuzida Raboti Malikning xarobalarini tekshirish uchun injener V.A.Krasilnikov va arxeolog V.R.Cheylitkoni safarga yo‘llaydi. Ular bu joyni ta‘mirlash haqida takliflar kiritadilar.

1926-yili arxeolog olim Muso Saidjonov, V.K.Kostkova, injener M.M.Loginov boshchiligidagi ekspeditsiya Raboti Malikda bir necha kun bo‘lib, bu joyni o‘rganish va ta‘mirlash rejalarini tuzadi. 1927-yilda B.N.Zasipkinning tavsiyasi bilan Raboti Malikda ta‘mirlash ishlari boshlangan.

1934-yil may oyida Karmana rayon ijroiya komiteti Raboti Malik tarixiy yodgorligining g‘ishtlarini olib, boshqa qurilishlarga ishlatish uchun ruxsat so‘rab, O‘zkomstaris (Yodgorliklarni asrash va himoya qilish Respublika tashkiloti)ga murojaat qiladi. Yaxshiyamki, tashkilot bu taklifni rad etib, Raboti Malikni buzishga qarshilik ko‘rsatadi. Shundan keyingi davrda Raboti Malikni o‘rganish va ta‘mirlash ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan. Faqat 1973, 1975, 1977-yillarda bir guruh arxeolog va arxitektorlar inshootni o‘rganishga muvaffaq bo‘ldi. Bryuxovetskaya boshchiligidagi Raboti Malikda arxeologik tadqiqotlar olib boradilar. Bu ishda O‘zbekiston Respublikasidagi Madaniyat vazirligiga qarashli Hamza nomidagi San‘atshunoslik institutining N.B.Nemseva boshchiligidagi olimlari ham ishtirok etadilar.

Keyingi paytlarda esa yo'l quruvchi tashkilotlarning tarixiy yodgorliklarga e'tiborsizligi natijasida Sardoba bilan Raboti Malik o'rtasini ikkiga kesuvchi avtomobil trassasi o'tkazildi va bu joyning xarobaga aylanishi tezlashdi.

Bugun Raboti Malik xarobalarida N.B.Nemseva boshchiligidagi bir guruh olim va tadqiqotchilar arxeologik tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Ular bu joy haqida yangi tarixiy ma'lumotlarni kashf etmoqdalar. Jumladan, mustaqillikning birinchi yillarida N.B.Nemseva, M.Xushnazarovlar boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi bu joydan Amir Temur davrida zarb etilgan tangani va eski asfalt yo'li qoldiqlari ostidan oziq-ovqat mahsulotlarini salqin saqlaydigan to'la omborxonani topdilar.

Demak, Raboti Malikning ulkan hududda qoraxoniylar davrida tashkil topishi, bir tomondan, Bolasog'un bilan uzoq va yaqin viloyatlar o'rtasida aloqalarning muttasil ravishda olib borilishiga hamda savdo-karvon yo'lining jonlanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xon va eloqxonlarning bunday yo'llar orqali yurishlarining uzlusiz bo'lib turishi karvon yo'lida nafaqat oddiy rabot-u karvonsaroylarning qad ko'tarishiga, balki yirik shaharlarga yaqin joylarda podshohlar uchun ham maxsus shohona, muhtasham rabotlar va sardobalar qurilishini talab etardi. Shularni nazarga olsak, Raboti Malik podshohlar qo'nalg'asi sifatida talqin etilsa shubhaga o'rinn qolmaydi. Chunki Raboti Malik toponimi etimologiyasining o'zi "Hukmdor Raboti" ma'nosini anglatadi.

Qosim shayx xonaqohi




Qosim shayx xonaqohi Navoiy viloyatining Karmana tumanida shayboniylar sulolasiga mansub bo'lgan Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan.

Memoriy obidaning bunyod etilishida rahnamolik qilgan shaxs – Markaziy Osiyo tarixida alohida mavqega ega bo'lgan, shayboniylar hukumronligi davrida chuqur iz qoldirilgan shaxslardan biri Abdullaxon ibn

Iskandarxon ibn Jonibekxondir. Buxoro xoni Abdullaxon o'zining mashhur Jo'ybor shayxlaridan (xo'jalaridan) bo'lgan pirlaridan biri Qosim Shayx Azizonga atab ushbu xonaqohni bunyod ettirgan. Qosim Shayxi Azizon (XVI asr boshi – Karmana – 1578) – tasavvuf tariqatining yirik namoyandası, shayx. Abdullaxon II ning piri. U tasavvufning jahriya sulukiga mansub. Uning kamolga yetishida Shayx Xudoydod Valiyning ta'siri katta bo'lgan. "Abdullanoma" asarida yozilishicha, Qosim Shayx shayboniy sultonlar o'rtasidagi o'zaro urushlarni to'xtatib, Turkistonni yagona davlatga birlashtirish g'oyasini oldinga surgan hamda bu yo'lida qat'iy siyosat yuritayotgan Abdullaxon II ni faol qo'llab-quvvatlagan. U shayboniy sultonlarni bir necha marta o'zaro yarashtirgan va sulh tuzishga erishgan (1554, 1558, 1569 va b.).

Abdullaxon II hokimiyat tebasiga kelgach (1557), Karmanada shayx uchun muhtasham xonaqoh qurdirgan (1558). Zamondoshlari tomonidan Qosim Shayxga “Hazrati Eshon”, “Qutb ul-avliyo”, “Shayxi Azizon” kabi unvonlar berilgan.



Xonaqoh so‘nggi o‘rtalarning boshlarida, 1558-yil bunyod etilgan.

Me’moriy obidanı bunyod etilishida har xil o‘lchamdagı xom va pishgan g‘isht (“Abdullaxon g‘ishti”), loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasidan va shunga o‘xhash mahsulotlardan foydalaniłgan.

Qoshimshayx xonaqohi gumbazli bo‘lib, uning balandligi 14 metrni tashkil etadi. Qosim Shayxning sag‘anasi xonaqohining sharqiy tomonida joylashgan.

Sag‘ana atrofi 5-6 metr bo‘lib, pishiq g‘isht bilan terib chiqilgan. Balandligi 1,5-2 metr. U marmar toshlar va “Abdullaxon g‘ishti” deb ataluvchi g‘ishtlar bilan terib chiqilib, ayrim joylari Qur’oni Karim oyatlari yozilgan marmar toshlar bilan qoplangan. Hozir ham bu toshlarning ba’zilari saqlanib qolgan. 1910-yilda inshoot atrofi devor bilan o‘ralib hazira tarzida qo‘srimcha binolar (ziyoratxona, masjid, ayvon va boshqa xonalar) qurilgan.

Xonaqoh Sharq me’morchilik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, “Chor” uslubida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, inshoot gumbazi, uning qafasasining ulug‘vorligi va o‘ziga xos balandligi bilan ajralib turadi.

Inshoot 1975-yilda qayta ta’mirlangan va ayni paytda yodgorlik ichida muzey tashkil etilgan.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizning barcha tarixiy obidalari qatoriga Qosim shayx yodgorlik majmuasi O‘zbekiston tarixiy yodgorliklarini asrash tashkiloti muhofazasiga olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1999-yil 27-mayda “Navoiy viloyati tarkibida Karmana tumanini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonida Karmananing bir qancha yodgorliklari qatori Qosim Shayx me’morchilik majmuasini ham qayta ta’mirlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘rsatilgan. Navoiy viloyat va shahar hokimliklari tashabbusi bilan Karmana shahri fuqarolari ishtirokida Qosim shayx yodgorlik majmuasi qisman ta’mirlanib, bu joy ancha obodonlashtirildi.

Inshoot YUNESKO tashkiloti tomonidan Butun jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

SHAHRISABZ ME’MORCHILIGI

Oqsaroy



Oqsaroy me’moriy majmuasi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan bunyod etilgan.

Uning qurilishiga homiylik qilgan Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani)da tug‘iladi. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos urug‘ining oqsoqollaridan, onasi Takina xotun esa Kesh yurtining obro‘li bekalaridan

hisoblangan. Uning yoshligi Keshda kechadi. Keying hayot davri ikkiga bo‘linadi. Birinchi davri (1360-1370) Movarounnahrni mo‘g‘ullardan ozod qilib, o‘zaro urushlarga barham berish va markazlashgan davlad tuzish bilan o‘tadi. Ikkinci davri esa (1370-1405) 3 yillik, 5 yillik, 7 yillik deb ataluvchi yurishlari bilan xarakterlanadi. U 1370-yilda Movarounnahr amiri bo‘ldi. Mamlakat boshqaruviga oid “Temur tuzuklari” nomli asar yaratadi. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Xitoyga yurishi chog‘ida, O‘trorda vafot etadi.

Me’moriy obidaning qurilishida bir qator ashyolar: xarsang tosh, marmar, taxta, loy va turli o‘lchamdagisi pishiq g‘ishtlar ishlatilgan. Inshoot o‘scha davrda qurilgan boshqa me’moriy inshootlardan o‘zining me’moriy yechimi bilan ajralib turgan. Koshinkor va parchinkor naqshlari insonni beixtiyor lol qoldiradi. Yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, inshoot peshoqining gul dor naqshlari orasiga “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq”, degan so‘zlar bor. Shuningdek, saroyning bosh peshtoqidagi koshinkor morpechida eronlik koshinpaz usta Muhammad Yusuf Tabriziyning nomi ikki joyda zikr etilgani aniqlangan.

Oqsaroy rivojlangan o‘rtalarning so‘nggi davrida, 1380-1404-yillar oralig‘ida bunyod etilgan.

Me’moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot Sharqning “Chor” uslubida, dastlab maqbara, keyin saroy vazifasida va uslubida bunyod etilgan.

Obidaning o‘ziga xos tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Amir Temur o‘z davlatining shon-shuhrat uchun uning markaziy qismi bo‘lgan Movarounnahrning obodonchiligiga alohida e’tibor beradi. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g‘isht teruvchilar, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur ustahunarmandlari qatorida mahalliy ustalar ham mamlakatda go‘zal imorat-u inshootlar

barpo qiladilar. Bundan tashqari, manbalarda aytishicha, obida Amir Temur va temuriylar tomonidan bunyod etilgan me’morchilik odidalarining eng balandi bo‘lib, uning balandligi 70 metrni tashkil qilgan.

Kirish peshtog‘ining janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar, unga yondoshgan polning serhasham, naqshinkor koshin qoplama bezagini ochib berdi. Oqsaroymdan hozirda faqat peshtoqning ikki asosi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ular o‘lmas taassurot qoldiradi. O‘z davrida ular oralig‘ida eni 22 metrli ravoq qurilgan. Asoslari ikki chekkasi, osti ko‘p qirralik, yuqorisi aylana guldasta burjlar bilan tugallangan.

Bugungi kunda Oqsaroyning peshtoq, ark qismi mavjud emas. U XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 40-yillarida tushib ketgan va hozirgi holatdagi ko‘rinishga kelib qolgan. Hozirda Oqsaroyning ikkita tayanch qismi mavjud bo‘lib, uning balandligi 38 metrni tashkil qiladi. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Oqsaroy ro‘parasida Amir Temur haykali o‘rnatildi. Bu inshoot atrofi bugungi kunda obodonlashtirilgan, turli joylardan tashrif buyurgan sayohatchilarning diqqat-markazida bo‘lib kelmoqda. Me’moriy inshoot hozirgi kunda muqaddas sayirgohlardan biri hisoblanadi.



1973-yil 9-avgustdagagi O‘zbekiston Respublikasi hukumatining 339-sonli qarori bilan respublikamizdagagi madaniy meros obyektlariga boy 10 shahar – Toshkent, Buxoro, Samarkand, Xiva, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on, Karmana, Qo‘qon, Qarshi, G‘ijduvon tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritilgan va bu shaharlarning tarixiy markazlari va qo‘riqxonalari hududidagi barcha yangi qurilish, qayta qurish va boshqa ishlari

Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Fanlar Akademiyasi bilan kelishilgan holda rejalashtirish va amalga oshirish kerakligi belgilangan. Xuddi shu tartib 2002-yilda qabul qilingan “Shaharsozlik kodeksi”da ham o‘z aksini topgan. 2002-yil Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Oqsaroy atrofida ko‘pgina ishlari amalga oshirildi. 2000-yilda Shahrisabzning Amir Temur va temuriylar davri me’morchilik yodgorliklari (24-sessiya, Avstraliya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan. YUNESKOning “Umuminsoniyat merosi” kitobi ro‘yxatiga kiritilgan Oqsaroy yodgorligining tarixiy favvoralari maydonidagi gorizontal mozaika va mayolikalarini konservatsiyalash loyihasini tayyorlangan.

"Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunga binoan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi arxivlar Bosh boshqarmasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar.

Dorus-Saodat majmuasi



Dorus-Saodat majmuasi Amir Temur tomonidan bunyod etilgan Shahrisabzdagi yirik me’morchilik inshootlaridan biri hisoblanadi. Uning qurilishi 1379-yili boshlangan. Unda mahalliy ustalar bilan birga Xorazmdan olib kelingan ustalar ham qatnashganlar.

Amir Temurning maqsadi ona shahrida o‘zining hazirasini yaratish edi. 1376-yilda bevaqt halok bo‘lgan sevimli katta o‘g‘li Jahongirning qabri Shahrisabzga ko‘chirilib keltirilgan. Keyinchalik u yerga uning boshqa o‘g‘li – Umar Shayx ham ko‘milgan.

Inshoot rivojlangan o‘rta asrlarning oxirlarida, temuriylar davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning qurilishida pishgan g‘isht, marmar, tosh, yog‘och va boshqa ashylardan foydalanilgan.


Binoning bosh tarzida Oqsaroydan qolishmaydigan mahobatli peshtoq qurilgan, uning har bir asosida esa maqbara joylashtirilgan. Markaziy peshtoqdan mo‘jazgina hovliga kirilgan. Uning qarama-qarshisida markaziy o‘q bo‘ylab qachonlardir baland qumbazli maqbara bo‘lgan, hozirda uning faqat daxmasi saqlanib qolgan.

Dorus-Saodatning ikki yonida keng xonalar mavjud bo‘lganligi arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan. Ulardan birining ostida yana bir daxma ochilgan, uning ustida ham maqbara bo‘lgan. Maqbara va xonalarni bir-biri bilan bog‘lash vazifasini bajargan. Majmua XIV-XV asrlarga xos bo‘lgan va hukmdorlarning yirik alloma qabri yoniga ko‘milish sharaf hisoblanib quriladigan hazira turidagi inshootdir. Dorus-saodat majmuasida hozirda kirish peshtog‘ining Jahongir maqbarasi joylashgan chap asosi hamda binoning poydevor qoldiqlari saqlanib qolgan. Jahongir maqbarasining ichkarisi kvadrat tarhli bo‘lib, to‘rt tarafni ravoqli toqilardan iborat. Uning uch gumbazli tizimi o‘ziga xosdir: ganchdan qolibkori usulida qilinib, yog‘och bilan g‘isht qatlamiga mahkamlangan bezakli gumbaz, uning yuqorisida esa g‘ishtdan terilgan o‘rta gumbaz va yana uning ustiga baland qirrali asosga joylashgan va ichkarisidan qovurg‘alar bilan mahkamlanadigan tashqi kulohiy gumbazlardan qad ko‘targan. Maqbaraning peshtoq asosi bilan birgalikda qilingan bezagi kamtarona, asosan sirkor g‘ishtchalardan terilgan naqsh – yozuvlar bo‘lib, ba’zi yerlari koshinburush mayolika bilan to‘ldirilgan. Maqbara ostida daxma joylashgan.

Majmuaning markaziy o'qida joylashgan va yuqorida qayd etilgan daxmani Amir Temur o'zi uchun qurdirgan edi. Lekin taqdир taqazosi bilan u Go'ri Amirda dafn etilgan. Jahongir maqbarasining sharqidagi qazishmalarda yana bir daxma, sakkiz qirrali xona devorlari, qabr toshlar, pol qoplamlari topildi.

Daxma markazida marmardan yasalgan tobut joylashgan, uning og'ir qopqog'ining yonlari o'yma naqshlar bilan bezatilgan, ammo kelgusida tarix yoziladigan yoqori qismiga ishlov berilmagan. Daxmaning shifti "darbozi" usulidagi chodirsimon gumbaz ko'rinishida bajarilgan. Devorlardagi ravoqli toqilarning kungurasi arabi yozuvlar bilan nodir xattotlik usullarida o'yma qilinib bezatilgan, tokcha devorlari esa bodom shaklli medalon bilan to'latilgan.

Gumbazi Sayidon maqbarasi



Gumbazi Sayidon maqbarasi Shahrisabzning qadimiy me'morchilik yodgorliklaridan biri bo'lib, o'zi aks etgan yozuvlarga qaraganda temuriylar tomonidan 1437-1438-yillar oralig'ida bunyod etilgan.

Maqbaraning hajmi mutanosib nisbatlarga egadir. Tashqarisi kub shaklida bo'lib, gardish asosga tik gumbaz o'rnatilgan. Ichkarisida esa chorsu tarqli xonaning to'rt devori bo'ylab ravoqli tokchalar joylashtirilgan. An'anaviy sakkiz qirralik ustidagi ravoqli bag'allarga ichki tik gumbaz o'rnatilgan. Maqbaraning bosh tarzi g'arbga, hovliga qaratilib, peshtoq bilan belgilangan. Peshtoq va gumbaz asosida sirkor g'ishtin qoplamlarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Ichki bezagi esa Ulug'bek davriga xos: devorlari, gumbaz osti qurilmalari va gumbaz qubbasi oq asosga, ko'kish rangda tushirilgan naqshlardan iborat bo'lib, ba'zi yerlarida tilla suvi yuritilishiga tayyorlangan qizil kesakning qizg'ish rangi ko'riniq turadi. Bezakning asosiy naqshi girrix bo'lib, uning ko'p qirralik va yulduzsimon shakllari oralig'iga islimiy naqshlar, shoxlagan daraxtning tasviri tushirilgan. Xitoy chinnisiga monand oq asosdagi ko'kish naqshlar Temur davrining turfa rang, tilla suvi yuritilgan bezaklaridan farq qilib, XV asrning birinchi yarmiga xos bo'lgan bezaklarga o'xshashdir.


2002-yilda qabul qilingan "Shaharsozlik kodeksi"da ham u o'z aksini topgan. Bundan tashqari, 2002-yil Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan maqbara atrofida ko'pgina ishlar amalga oshirildi.

2000-yilda Shahrisabzning Amir Temur va temuriylar davri me'morchilik yodgorliklari (24-sessiya, Avstraliya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan. YUNESKOning "Umuminsoniyat merosi" kitobi ro'yxatiga kiritilgan

maqbara yodgorligining tarixiy favvoralari maydonidagi gorizontal mozaika va mayolikalarini konservatsiyalash loyihasini tayyorlangan.

“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunga binoan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi arxivlar Bosh boshqarmasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar.

Ko‘k gumbaz masjidi



Ko‘k gumbaz masjidi temuriylar hukmronligi davrida, 1435-yili Shahrисabzdagi Shamsiddin Kulol maqbarasining qarama-qarshisida qurilgan. U jome’ masjidi vazifasini o‘tagan.

Masjidning tarhi chorsu shaklida bo‘lib, yon devorlariga toqilar joylashtirilgan. Yuqorisiga qarab, tik devor, burchaklari qalqonsimon bag‘alli, bag‘allar qatori hamda 16 qirralik asosdan baland gumbazga o‘tilgan.

Inshootning qurilishida pishgan g‘isht, har xil o‘lchamdagи toshlar, yog‘och, marmar va boshqa ashyolardan foydalanilgan.

G‘arbiy devorida mehrob qilingan, uning tashqarisi esa, berk peshtoq ko‘rinishini olgan. Binoning birchak asoslariga tomga chiqadigan aylanma zinalar joylashtirilgan. Ichki gumbaz tashqarisidan, kvadratning ustidagi sakkiz qirralikda mahobatli asosga joylashtirilgan va moviy sirkor g‘ishtchalar qoplangan gumbaz ko‘rinishini olgan. Masjidning kirish qismi sharq tomonidan bo‘lib, u baland peshtoqli qilingan. Peshtoq bezagini asosan sirkor g‘ishtlardan terilgan girrix naqshlar tashkil qiladi. Uning burchagi nim ustunlariga, ravoq qanoslari va arabiy yozuvli hoshiyalariga mayolika ishlatilgan.

2002-yil Shahrисabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan inshoot atrofida ko‘pgina ishlari amalga oshirildi.

SURXONDARYO ME'MORCHILIGI

Jarqo'rg'on minorasi

Jarqo'rg'on minorasi Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon tomonidan bunyod etilgan. Minoraning qurilishiga rahbarlik qilgan arxitektor Ali ibn Muhammad Saraxsiy bo'lib, minora kitobasida uning nomi yozib qo'yilgan. U hozirda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Alisher Navoiy jamoa xo'jaligiga qarashli Minor qishlog'ida joylashgan. Mazkur inshoot nomi bilan u joylashgan qishloq ham Minor deb ataladi.

Arslonxon Qoraxoniylar sulolasiga mansub Movarounnahr hukmdori bo'lib, to'liq ismi Muhammad ibn Sulaymon Dovud Kuchtegin ibn Tamg'achxon Ibrohim. U 1102-yilda Arslonxon nomi bilan Movarounnahr taxtiga o'tirgan. 12 ming mamlukdan iborat qo'shin tuzib, Dashti Qipchoqqa bir necha bor yurishlar qilgan. Umrining oxirlarida falaj bo'lib qolganligi tufayli taxtni o'g'llari – Nasr, so'ng Ahmad bilan birga boshqargan. 1130-yil Samarqand Saljuqiylar tomonidan egallangach, Arslonxon Balxga jo'natilgan va o'sha yerda ko'p o'tmay vafot etgan. Arslonxon davrida madaniy hayot bir muncha rivojlangan. Movarounnahrning ko'plab viloyatlarida binolar qurilgan, shular ichida Jarqo'rg'on va Minorai Kalonlar mashhurdir.

Jarqo'rg'on minorasi rivojlangan o'rta asrlarda, XII asrning boshi, ya'ni 1108-1109-yillarda bunyod etilgan.

Xurosandan ko'chib kelgan musulmon diniga mansub aholi e'tiqodi uchun dastlab minora yonida masjid bunyod etilgan (yonida bir vaqtlar pishiq g'ishtdan qurilgan Jome' masjid bo'lgan, lekin u saqlanmagan) va atrof joylardan aholini namozga chaqirish qulay bo'lishi uchun, muazzin – azon aytuvchi uchun minora bunyod etilgan. Keyingi asrlarda harbiy maqsadda – kuzatuv obyekti vazifasida ham foydalanilgan.

Me'moriy inshoot qurilishida turli hajmda va shakl-shamoyili o'zgartirilgan pishiq g'ishtlardan, maxsus "qir" qotishmasidan, poydevori esa to'rburchar shakliga keltirilgan va xalq orasida "dev g'isht" deb atalgan pishgan g'ishtlardan ishlab chiqilgan.

Jarqo'rg'on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga g'ishtdan mavj shaklida terilgan 16 plitavor qobirg'adan iborat. 20 m balandlikda g'ishtin panjarali ravoqlar ishlanib, uning ustida kufiy yozuvli belbog' hoshiya bor. Belbog' ustida yana qirralar davom ettirilgan, lekin minora tepasi saqlanmagan. Arxeolog olim N.N.Karazin rasmida masjid va minora xarobasi aks ettirilgan (1879-y.). Minoraning hozirgi balandligi 21,6 m., asosi (diametri – 5,4 m)ning kitobasida me'mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va qurilgan sanasi yozilgan (V.A.Shishkin tomonidan o'qilgan). Ichki qismi esa bezaklarda holi ravishda odiiy pishgan g'ishlardan ishlangan va yuqoriga ko'tariladigan zinalarning har bir pog'onasi 30-40 sm ni tashkil qiladi.

Jarqo‘rg‘on minorasi islom me’morchiligining Xuroson me’morchilik maktabi an’analari uslubida barpo etilgan.

Minoraning o‘ziga xosligi shundaki, bunday inshoot O‘rta Osiyoning biror bir hududida uchramaydi. Chunki, boshqa minoralarning aylanasi tekis holda ishlangan bo‘lsa, Jarqo‘rg‘onda esa 16 ta o‘ziga xos qovurg‘alar mavjud. Bundan tashqari, boshqa minoralar singari baland qilib qurilmagan. Tadqiqotchilarning fikricha, inshoot ko‘rinishi jihatidan Italiyadagi Piza minorasini eslatadi.

Me’moriy obidaning janubiy tomonida dastlab masjid bo‘lganligi arxeologlar tomonidan aniqlandi. Lekin masjid XIX asr o‘rtalarida buzilib ketgan, minoraning yuqori qirra qismi esa saqlanmagan. Hozirda minora atroflaridagi eski masjidning devorlari tiklangan, minoraning o‘zi esa rekonstruksiyadan o‘tkazilgan, atroflari bog‘ va gulzorga aylantirilgan.

Me’moriy obidaga hukumatimiz hamda Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, inshoot YUNESKO tashkilotining “Butun jahon madaniy yodgorliklari ro‘yxati”ga kiritilgan, davlat muhofazasiga olingan. Suningdek, 2002-yil Termiz shahrining 2500 yillik yubeliyi munosabati bilan minora qafasasining tepe qismi ta’mirlandi. O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” hamda 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida” qabul qilingan qonunlar me’moriy obida muhofazasining huquqiy kafolatidir.

Sulton Saodat majmuasi



Termiz shahridagi ushbu me’moriy yodgorlik 20 ga yaqin maqbarani o‘z ichiga olgan. (X-XVII asrlar). Termizning sharqida joylashgan bu ziyoratgoh 7 asr davomida shakllangan. Unda Sayyidlar sulolasining maqbaralari joylashgan. Dastlab shu atrofdagi yerlar egasi, payg‘ambarimiz avlodlaridan bo‘lmish Hasan al-Amir (IX asrning 2-yarmida vafot etgan) maqbarasi bunyod etilgan.

Xalq orasida Sulton Saodat majmuasi nomi bilan mashhur bo‘lgan maqbaralar X asrda, qolganlari, asosan, XV-XVII asrlarda yonma-yon qurilib, uzun hovlining 2 tomonini egallagan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorus xonalar ($9 \times 9,05$ m va $10,15 \times 10,25$ m)dan iborat. Hovlining to‘ridagi peshtoq va ikki qanotidagi gumbazli maqbaralar bir xil tarhda, janubdagagi maqbara zinalar hisobiga kichikroq ko‘rinadi. Shimoliy-g‘arbidagi maqbaraning qurilma va bezaklari oddiy g‘isht ($27 \times 27 \times 5$ sm)dan juft-juft qilib terilib, mavjli bezak hosil qilingan. Ichki xona devorlariga g‘ishtdan hoshiyali bo‘rtma ravvoqlar ishlangan. Janubiy-g‘arbdagi maqbara shimoliy-g‘arbdagidan bir oz kichik, ko‘rinishi oddiy, ganch suvoqli. Mazkur 2 maqbara orasidagi peshtoqning supasi to‘rida mehrob joylashgan. Sirkor koshinlar binoga alohida husn bag‘ishlagan. XV-XVII asrlarda qurilgan maqbaralarda o‘sha davrga xos

yulduzsimon girrix naqshlar, ganchkor bezaklar keng qo‘llanilgan. Majmua mustaqillikdan keyin ta‘mirlanib, ziyoratgohga aylantirilgan.

2000-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekistan Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofazalash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida jahon talablariga mos qonuniy asosni yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishida katta o‘rin tutgan, asrlar davomida saqlangan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Qo‘qon, Marg‘ilon, G‘ijduvon, Vobkent, Termiz va boshqa tarixiy shaharlar, mavjud bo‘lgan me’moriy va tarixiy obidalar davlat muhofazasiga olingan. Inshoot YUNESKO tashkilotining “Butun jahon madaniy yodgorliklari ro‘yxati”ga kiritilgan. Me’moriy obidaga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2002-yil Termiz shahrining 2500 yillik yubeliyi munosabati bilan inshootning hozirgi qiyofasi shakllantirildi.

ME'MORCHILIK BO'YICHA ATAMALAR LUG'ATI

Ayvon (fors) – yon tomonlarining barchasi yoki ba'zilari ochiq usti bostirilgan (yopilgan) inshoot.

Antresol (fr.) – qavatlar o'rtasida joylashgan yoki xonani hajmini ko'paytirish uchun unga yopishtirib qurilgan yarim qavatli joy.

Ark – feodal davlatining qal'a ichida mudofaa qilingan joyi.

Arka (it., lot.) – prolyotni yon tomonga bosim beruvchi alohida elementlar (toshlar, g'ishtlar) bilan yopilishi; hozirgi talqinida har qanday egri chiziqli prolyot yopmasi. Farqlanadi: konstruksiyasi bo'yicha – ponali, yashirin; shakli bo'yicha – yarim sirkulli ko'p markazli; vazifasi bo'yicha – yuk ko'taruvchi, yukni kamaytiruvchi va hokazo. Shakli bo'yicha – strelkali arka bir-biri bilan burchak ostida kesishadigan ikkita yoydan tashkil topgan; milliy me'morhilik tarixida to'rt markaz strelkali arka uchraydi. Yarim sirkulli arka yarim aylana shaklida bo'ladi. Ikki markazli arka bir xil radiusli ikkita yoydan tashkil topadi. Nurli arka – yopiladigan prolyot yarim aylanadan kichik arka.

Arkada (fr.) – ustun yoki tayanchga o'rnatilgan arkalar qatori.

Arkbutan – gumbaz tortqich kuchini kontrofosga uzatadigan yarim arka.

Axta – naqsh tarhi igna bilan chekilgan andoza.

Bazilika (grek.) – 1) ustunlarning bo'ylama qatori bilan xonalari qismlarga (nef, naos) ajratilgan bino; yon tomonlaridan ko'ra o'rtadagi xona odatda keng va baland bo'ladi, yon tomondan yoritiladi; 2) qadimgi rimliklarda – sud, savdo, birja binolari; 3) erta xristian cherkovi.

Balkon – perila bilan mustahkam to'silgan va xona bilan bog'langan, fasadda chiqib turuvchi maydoncha.

Baraban – binoning tomida (cho'qqisida) joylashgan silindrik yoki ko'p qirrali shaklga ega bo'lган qismi, yuk ko'taruvchi gumbaz; yorug'lik barabanida derazalar ham bo'ladi.

Vassa – ayvонни yopishda bolorlar (to'sinlar) ustidan teriladigan yarim silindr shaklidagi taxtacha

Galereya – bo'yi enidan ancha katta bo'lган yopilgan yorug' xona, odatda bo'ylama devorlardan bittasi ustunlardan iborat bo'ladi.

Ziyoratxona – marosimlar o'tkaziladigan katta xona.

Islimiyl – o'simlik shoxlari ko'rinishidagi naqsh turi.

Lavh – kitobni qo'yib o'qish uchun yasalgan moslama.

Qal'a – o'rta asrlar davridagi shahar qo'rg'oni.

Karvonsaroy – shahar va savdo yo'llaridagi savdogarlar va yo'lovchilar turadigan joy.

Karniz – devorning tugallanish joyi, tepa qismi (devorni yomg'irdan asraydi).

Kromlex – aylana bo'ylab yoki tutashmagan aylana shaklida joylashtirilgan tosh ustunlar guruhi.

Kundal – ichki devorlarda bo'rtiq yuzaga zarhal berib ishlangan naqsh turi.

Mavzoley yoki maqbara – daxma (o'lган insonning tanasi ko'milgan joy) ustida tiklangan monumental inshoot, yodgorlik.

Madrasa (arab.) – musulmon diniga mansub oliy maktab.

Masjid (arab.) – musulmoncha diniy inshoot.

Mehrob – masjid ichida uning qibla tomonidagi taxmonga o'xhash joy, namoz shu tomonga qarab o'qilgan.

Muazzin – azon aytib, namozga chaqiruvchi.

Palata – ko'p xonalardan iborat bo'lgan toshli turar-joy binosi.

Pandus (fr.) – yengil qiyalashtirilgan zinani almashtiruvchi sirt.

Panno (fr.) – devor, eshik yoki shift sirtining ramkaga olingan va odatda, badiiy tus berilgan bir bo'lagi.

Parus – to'rtburchakli asosdan gumbazli yopmaga o'tishni ta'minlaydigan konstruksiya; ular konstruksiyasi bilan farq qiladi: to'sin-kansolli (balkali, zinateshikli, kansolli, stalaktitli-dekorativ); arka-gumbazli (voronkasimon, voronkasimon zinapoyali, konxovli, gumbazli, arkali, zinapoyali-arkali, arkali-gumbazli, to'rli).

Peshtoq – masjid, madrasa yoki karvonsaroyga kirish eshigi – darvozaxona joylashgan, baland arkasimon portal.

Pillapoya – tagkursi, zinapoya.

Portal (lot.) – jamoat binosi, saroy, masjid va shunga o'xhash binolarning me'moriy bezatilgan darvozaxonasi.

Poygumbaz – gumbazning ostki, ichkari qismi.

Prizma – ikki teng parallel asosda, yon tomonlari parallelogrammdan iborat bo'lgan ko'p yoqlik.

Rabot – shahar tevaragi, shaharning hunarmandchilik qismi.

Ravoq – binoning old tomonidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan ko'r kam qismi.

Tim – savdo inshooti.

Fasad (fr.) – bino yoki uning qismini tashqi ko'rinishi.

Xonaqoh – darveshlar uchun qo'nalg'a bo'lib xizmat qiladigan katta xonasi mavjud masjid binosi.

Xavzak – tekis shiftda mehrobdor naqsh bilan to'ldirilgan bezakli chuqurlik.

Sahn – binoning yuzi, maydoni.

Shatyor – to'rt yoki sakkiz qirrali piramida shaklidagi baland yopma.

Sharafa – shift bilan devorni tutashtirib turuvchi mehrob.

DAVLATLAR TARIXINI YOZISH BO'YICHA NAMUNA

Davlat: G'aznaviyalar davlati.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib Somoniylar davlatida ichki nizolar, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari avj olib ketdi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo'ldi. Mamlakatda sodir bo'layotgan bunday og'ir vaziyatda turk hojiblari (harbiy boshliqlar) tashkil topgan saroy gvardiyasining nufuzi nihoyatda kuchaydi. Chunki harbiy va mudofaa ishlari to'liq ularning qo'lida edi. Turkiy sarkardalarning xizmatlari evaziga somoniylar hukmdorlari aksariyat iqtidorli lashkarboshilarni "hojib ul-hojib" (hojiblar hojibi) yoki "hojib ul-buzruk" (katta, ulug' hojib) kabi oliy harbiy mansablarga tayinlab, ularga hatto ayrim viloyatlarni boshqarish huquqini bergenlar. Shunday hojiblardan biri Alpteginaga G'azna viloyatini boshqarish vakolati beriladi. U bu viloyatni 962-963-yillarda boshqargan. Alptegin G'azna va Qabul viloyatlarini mustaqil idora etishga intilib, G'aznaviyalar davlatiga asos soladi. Mana shunday tarixiy shart-sharoit tufayli yangi bir turkiy davlat tashkil topdi. Bu davlat 962-1186-yillarda hukm surgan va o'zining eng qudratli cho'qqisiga ko'tarilgan paytda uning chegarasi g'arbda Erondagi Ray va Isfahon shaharlari, Kaspiy dengizi, shimoliy-g'arbda Xorazm va Orol dengiziga cho'zilgan. Sharqda esa Shimoliy Hindistonning kattagina qismini o'z ichiga olgan va Janubiy Belujistongacha yetgan edi. Somoniylar sulolasibarham topgach, Mahmud G'aznaviy ularning Xurosondagi hududini, so'ng Xorazm davlatini ham o'z saltanatiga qo'shib olgan. Bu qudratli davlatning poytaxti G'azna (hozirgi janubiy-sharqi Afg'onistonda) shahri bo'lgan va davlatni shu shahar nomi bilan ataluvchi G'aznaviyalar sulolasiboshqargan.

G'aznaviyalar sulolasida 14 hukmdor bo'lgan. Bular: Alptegin (962-963), Sobuqtegin (977-997), Ismoil (997-998), Mahmud G'aznaviy (998-1030), Muhammad (1030), Mas'ud (1030-1041), Muhammad (ikkinchi marta) (1041), Mavdid (1041-1048), Mas'ud II, Ali abul Hasan (1049-1051), Abdurashid (1051-1099), Mas'ud III (1099-1115), Sherzod, Arslon, Bahromshoh (1117-1153), Xusravshoh (1153-1160), Xusrav Malik (1160-1186)lardir.

G'aznaviyalar davlati hukmdorlaridan faqat eng buyuklarininggina shaxsiy fazilatlari haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, davlatning bиринчи va ikkinchi hukmdorlari, ya'ni Alptegin va Sobuqtegin asli turk g'ulomi (qul) bo'lgan va somoniylar oldidagi sadoqatli xizmati hamda harbiy-siyosiy iste'dodi tufayli hukmdorlik darajasiga yetib borgan. Tarixiy manbalarda (Abul Fazl Bayhaqiy) Sobuqtegin iste'dodli sarkarda, somoniylarga Hindistonni zabit etib bergen fotih, oqko'ngil va odil inson deb ta'riflangan. Sobuqtegindan keyin taxtga chiqqan uning kichik o'g'li Ismoil mamlakatni 7 oy boshqargan. U tabiatan tartibsiz, tor fikrlovchi, takabbur bo'lgan. Lekin undan keyin taxtga chiqqan ukasi Mahmud G'aznaviy adolatli, fuqaroparvar, tadbirkor, sermulohazali va kelajakni oldindan ko'ra biladigan, har qanday murakkab muammolarni aql bilan odilona hal etadigan hukmdor bo'lgan. Uning metindek intizom, qattiqqo'lllik va talabchanlik siyosatiga asoslangan harbiy yurishlariga uncha-buncha kuch bas kela olmagan. Uning o'g'li Mas'ud esa biroz xotirjam, harbiy san'atda otasi darajasida bo'la olmagan va uning davrida

mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqqa boshlagan. Sulolani keyingi vakillarining shaxsiy fazilatlari haqidagi ma'lumotlar manbalarda nihoyatda kam uchraydi.

G'aznaviyalar davlatining ijtimoiy ahvoli Somoniylar davlatidagi singari bo'lgan. Aholining asosiy qismini turkiy va forsiy tilda so'zlashuvchi aholi tashkil qilgan. Davlat bosharuvida bir necha devonlar bo'lib, shulardan muhtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni ijtimoiy masalalar bilan shug'ullangan. Masalan, muhtasib devoni xizmatchilari zimmasiga shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni himoya qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslik kabi ishlar yuklangan. Vaqflar devoni vaqf xo'jaligining yuritilishi ustidan nazorat qilgan bo'lsa, qozilik ishlari devoni mamlakat miqyosidagi sud – shariat ishlarining adolatli olib borilishi ustidan nazorat qilgan.

G'aznaviyalar davlati aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qilgan. Ayniqsa, mamlakatning markaziy o'lkalari, ya'ni G'azna, Balx, Nishopur, Lohur va boshqa shaharlarda aholi e'tiqodi uchun ko'plab masjidlar, xonaqohlar bunyod etilgan edi. Mamlakatning sharqiy hududlari (Shimoliy-g'arbiy Hindiston)da yashovchi aholining ko'pchilik qismi buddaviylik diniga e'tiqod qilar edi. G'aznaviy hukmdorlari o'zlarini islom dini homiylari deb hisoblaganlar. Xususan, Sobuqtegin qoraxoniylarga qarshi kurashda somoniy amirlarga bergen ko'magi uchun "Nosir ud-din ud-davla" (din va davlat homiysi), o'g'li Mahmud esa "Sayf ud-din" (din shamshiri) degan unvonlarga ega bo'lgan. Arab xalifasi Qodir Mahmudni islom dini homiysi ekanini e'tirof etib, "Yamin ud-davla va amin al-milla" (davlatning o'ng qo'li va dindorlik jamoasining ishonchli vakili) unvonini bergen.

G'aznaviyalar davlatining iqtisodiy hayoti O'rta Osiyoning boshqa davlatlaridan deyarli farq qilmagan. Davlatda iqtisodiy masalalarni boshqarish Moliya ishlari devoni zimmasida bo'lgan. Davlatning asosiy daromad manbai dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bo'lgan. Yerning asosiy qismi davlat yeri (mulki sultoniy) bo'lgan. Bundan tashqari, yirik harbiy sarkardalar va sayyidlarga tegishli "mulki xos", davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilinadigan "mulk yerlari" (iqto') hamda diniy muassasalar – masjid, madrasa, xonaqoh, qabristonlar ta'minoti uchun "vaqf" yerlari mavjud bo'lgan. Davlatda xiroj, ushr, jiz'ya, zakot singari soliqlar bo'lgan. Davlat soliqlari yer egasidan ham, yerda ishlovchi qo'shchi dehqondan ham alohida-alohida olinar edi. G'aznaviyalar davrida Markaziy Osiyoda "Buyuk ipak yo'li" orqali karvon savdosi katta ahamiyat kasb etgan. Karvon savdosi Markaziy Osiyo orqali Janubiy-sharqiy Yevropa mamlakatlarini Xitoy, Hindiston bilan bog'lab turar edi. Xitoy va Hindiston bilan bog'laydigan yo'l eng gavjum va serqatnov karvon yo'li bo'lgan. Bu yo'l Bag'doddan boshlanib, Hamadon, Nishopur, Marv, Niso, G'azna, Lohur orqali Hindistonga borar edi.

Davlatda ishlab chiqarish munosabatlari ancha rivojlangan edi. G'aznaviyalar davlati hududi asosan qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lganligidan hatto hunarmandlar ham bu soha bilan shug'ullanar edilar. G'azna, Multon, Qandahor, Bust, Panjob vohalarida bug'doy, arpa, sholi, tariq, g'o'za va boshqa ekinlar ekib dehqonchilik qilingan. Bundan tashqari, beda, zig'ir, kanop ekish ham aholi dehqonchiligidagi qo'llanilgan. Zig'ir va kanopdan olingan yog'lar o'sha davrda katta shuhrat topgan.

Mamlakatda chorvachilik va yilqichilik rivojlanganligi bois mayin gazlamalar, joynamoz gilamlar, har xil matolar, egar-jabduqlar, charm va charm mahsulotlari, chodirlar, chakmonlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

G'aznaviy hukmdorlari qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Xususan, Sobuqtegin 996-yil Movarounnahrga bostirib kirgan qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o'rtasida shartnomaga tuzilib, unga muvofiq Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Sobuqtegin esa Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmdor bo'lib oladi. Uning o'g'li Mahmud G'aznaviy G'arbiy Qoraxoniylar davlati (poytaxti Samarqand) va Sharqiy Qoraxoniylar (poytaxti Bolasog'un) hukmdorlari o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalangan. 1025-yil Mahmud Sharqiy Qoraxoniylar tamg'achxoni Qodir bilan Samarqand yaqinida uchrashgan. Ana shu uchrashuvda Mahmud G'aznaviy Qodirxonning siyosiy diplomatiyada savodsizligi, qo'polligini ko'rgach, uni o'zining muomalasi, mehmondo'stligi, boyligi va zeb-ziynatlari bilan lol qoldirmoqchi bo'lган. U bezatilgan chodir tayyorlatib, uni hayratomuz yasattirgan, qimmataho sovg'alar bilan bezagan. Ziyofatni haddan ortiq darajada quyuq qilgan. O'z qarorgohiga qaytgan Qodirxon Mahmud oldida uyalmaslik uchun g'aznaviy sultonga katta miqdorda pul, oltin bilan bezatilgan egar-jabduq, yuganli dul-dul otlar, oltin belbog'li turk g'ulomlari, turli mo'ynalar va boshqa turdag'i boyliklarni yuborgan. Bu Mahmudning diplomatik g'alabasi edi. Mahmudning tashabbusi bilan ikki qoraxoniy davlat o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan va undan sulton unumli foydalangan. Mahmud Xorazm hukmdori Ali ibn Ma'mun va uning ukasi Ma'mun ibn Ma'munlarga o'z singillarini bergen va nikoh orqali diplomatik aloqalar mustahkamlangan. Keyinchalik (1017), Alitegin ismli lashkarboshining ma'muniylarga bosh ko'tarib, ularni taxtdan ag'darishi Mahmudning Xorazmga yurish boshlashiga bahona bo'lган. U arab xalifasi Qodir bilan ham tinchlik va do'stlik aloqalarini o'rnatgan. Ayrim hind rojalariga sovg'a-salomlar berib, ularni o'ziga bo'ysundirgan. Uning o'g'li Mas'ud davrida qo'shni davlatlar bilan, xususan, saljuqiylar bilan urush kelib chiqadi va Dandanakon degan joyda (1040) g'aznaviy sultonni saljuqiylardan mag'lubiyatga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, barcha g'aznaviy hukmdorlari Arab xalifaligi bilan elchilik aloqalarini yo'lga qo'ygan.

G'aznaviylar davlatining boshqaruvi shakli cheklanmagan monarxiya bo'lib, u diktaturaga asoslangan edi. Davlat tuzilishi azaldan rivojlanib kelayotgan turkiy davlatchilik asosida qurilgan bo'lsa-da, biroq u o'ziga xos mustamlakachilik xususiyatiga ega edi. Davlat boshlig'i sulton deb yuritilgan. Bosh vazir tizimida harbiy, elchilik, rasmiy tadbirlar, moliya, qozilik ishlari va xabar-pochta devonlari faoliyat ko'rsatgan. Viloyat hokimlari voliy, shahar hokimi rais deb yuritilgan. Viloyatda boshqaruvi ishlari amid, shahrlarda qutvol tomonidan amalga oshirilgan.

Davlatning harbiy holati esa ancha shakllangan edi. Davlat qudratli qo'shinga ega bo'lган. Qo'shining bosh qo'mondoni – sipohsolor, lashkarboshilar – solor, harbiy qismlar esa sarxang deb atalgan. Manbalarda yozilishicha, Mahmud G'aznaviyning 300 mingga yaqin otliq va piyoda lashkari bo'lган. Bundan tashqari, qo'shin tarkibida harbiy kemalar (daryo va dengiz floti), 500 ta harbiy fillar bo'lган. Harbiy qo'shin kamon, nayza, qilich, gurzi va boshqa qurollangan.

Davlat hukmdorlarining ayrimlari amalga oshirgan ishlari va islohotlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojini ta'minlagan. Xususan, Sobiqtegin turk g'ulomlaridan iborat 20 mingdan iborat muntazam yollanma qo'shin tuzdi, o'z nomidan tanga zarb qildirdi. Uning o'g'li Mahmud davrida harbiylarning nufuzi yanada oshdi. U qo'shin tarkibiga harbiy fillarni ham olib kirdi, G'azna va Qobul shaharlarida o'z nomidan kumush dirham zarb qildirdi. Ilm-fanga homiylik qilib, saroyda ijod muhitini yaratgan. U 1025-yil saljuqiylardan jabr chekkan 4 ming o'tovdan iborat turkman qabilalarini Abiverd, Niso va Farova tumanlariga ko'chirib, ularga yer ajratib berdi. Uning vorislardan Xusravshoh taqdir taqozosi bilan poytaxtni G'aznadan Lohurga ko'chirdi.

G'aznaviyalar davlatida ilm-fan, madaniyat, xususan, adabiyot rivojlangan. Hatto, Mahmud G'aznaviyning o'zi turkiy ona tili bilan bir qatorda fors, arab va pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'rlar yozgan. Poytaxt saroyda 400 dan ortiq olim, shoir va san'atkorlar ijod qilgan. G'aznaviyalar davlatida qurilish va me'morchilikka ham jiddiy e'tibor berilgan. G'azna, Balx, Nishopur, Lohur va boshqa shaharlarda ko'plab madrasalar, masjid, xonaqoh va saroylar bino qilinib, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan.

Bu yerda yashab faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxslar Abul Fazl Bayhaqiy, Gardiziy, 1017-yil Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingach, u yerdan poytaxt G'aznaga keltirilgan buyuk mutafakkirlar – Abu Rayhon Beruniy, Nosir Husrav va ma'lum muddat G'aznaviyalar saroyida yashagan Abul Qosim Firdavsiylardir. Beruniy "Qonuni Mas'udiy", Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy" asarlarini Sulton Mas'udga bag'ishlaganlar. Firdavsiy 34 yillik ijod mahsuli bo'lgan, nazmda (she'riy), masnaviy (ikkilik) janrida yozilgan mashhur "Shohnoma" asarini sulton Mahmudga taqdim etgan.

G'aznaviyalar tarixini o'rganishga oid bir qancha manbalar mavjud. Bular Nizomulmulkning "Siyosatnoma", muallifi noma'lum bo'lgan "Chahor maqola" (XII asr), "Jome ul-hikoyat", "Lubob ul-albob" (XIII asr), "Miftox ul-adl" (XIV asr) hamda eng ishonchli manbalar hisoblangan Gardiziyning "Zayn ul-ahbor", Bayhaqiyining "Tarixi Mas'udiy" (Tarixi Bayhaqiy), Beruniyning "Qonuni Mas'udiy", "Hindiston", "Osorul boqiya", Abu Nasr Utbiyning "Tarixi Yaminiy" (Yamin ud-davla tarixi) asarlari shular jumlasidandir. Mustaqillik yillarda o'zbek davlatchiligiga oid juda ko'plab asarlar yaratildiki, ularni nomma-nom sanab o'tishning hojati bo'lmasa kerak.

G'aznaviyalar davlatining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, u kuchli harbiy qo'shin hisobiga qudratga erishgan imperiya edi. Uning qo'shinida boshqa turkiy davlatlarda bo'lmanan harbiy fillar mavjud bo'lgan. Davlatning poytaxti esa ilgari hech qaysi bir davlatning ma'muriy markazi vazifasini bajarmagan. Tashqi tomonidan qaraganda qudratli bo'lgan bu imperiya (hududi kattaligi jihatidan) ich-ichidan yemirilib bordi. Bu davlatning boshqa davlatlardan farqlanadigan asosiy jihat esa unga asos solgan hukmdorlar oddiy qullikdan sulton darajasiga ko'tarilgan edi.

G'aznaviyalar davlati qisqa muddat yashagan bo'lsa-da, insoniyat sivilizatsiyasiga munosib ta'sir ko'rsatdi, albatta. Sultonlar islom dini bayrog'i ostida qo'shni davlatlarni fath etdi va buning natijasida Shimoliy Hindiston aholisining ko'pchiligi islom dinini, madaniyatini qabul qildi. Yuqorida aytganimizdek,

imperianing markaziy shahlarida masjidlar, madrasalar bino qilindi. Jahon ilm-faniga katta hissa qo‘sishgan, Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘quv yurtlarida foydalanilayotgan va tadqiqot ishlari olib borilayotgan shoh asarlar – “Hindiston”, “Menerologiya”, “Osorul boqiya” (Beruniy), “Shohnoma” asarlari G‘aznada yaratilgan edi. Mahmud G‘aznaviy Xorazmni zabit etgach, Ma’mun akademiyasining aksariyat olimlari G‘aznaga ko‘chirildi va ma’lum ma’noda bu akademiyaning faoliyati shu yerda davom ettirildi. G‘aznaviyalar davlati esa turkiy imperiya sifatida Markazi Osiyo davlatchiligi tarixida alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo‘llanilgan tarixiy atamalar:	Qo‘llanilgan tarixiy sanalar:
Hojib, hojib ul – buzruk, devon, muhtasib, vaqf, qozilik, shariat, xonaqoh Nosir ud-din ud-davla, Shams ud-din, Yamin ud-davla va amin al-milla, mulki sultoniy, sayyid, mulki xos, mulk yerlari, iqto’, xiroj, ushr, jiz’ya, zakot, Buyuk ipak yo‘li, tamg‘achxon, lashkarboshi, xalifa, roja, diktatura, mustamlakachilik, sulton, voliy, rais, amid, qutvol sipohsolor, solor, sarxang, flot, gurzi, nazm, masnaviy, sivilizatsiya, imperiya, akademiya.	X asr, 962-963-yillar, 962-1186-yillar, 962-963, 977-997, 997-998, 998-1030, 1030, 1030-1041, 1041, 1041-1048, 1049-1051, 1051-1099, 1099-1115, 1117-1153, 1153-1160, 1160-1186-yillar, 996-yil, 1025-yil, 1017-yil, 1040-yil, 1025-yil.

Boburiylar davlati

Boburiylar davlati 1526-1858 yillarda, ya’ni 332 yil yashagan. Boburiylar davlatining hududi Bobur davrida Afg‘onistonning sharqiy viloyatlari, hozirgi Pokiston va shimoli-g‘arbiy Hindistondan iborat bo‘lgan. Uning vorislari zamonida davlat hududi Hindiston yarim orolining to‘liq bo‘ysundirilishi evaziga Hind okeanigacha bo‘lgan yerlar hisobiga kengaydi. Boburiylar sultanati shimolda Himolay tog‘lari bilan, g‘arbda Shayboniyalar va Eron safaviylari davlati bilan, janub va janubiy-g‘arbda Arabiston dengizi bilan, janubiy-sharqda esa Hind okeani bilan chegaradosh bo‘lgan.

Bu davlatning poytaxti Agra shahri bo‘lgan. Ushbu davlatning asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur Mirzo barcha temuriyzodalar kabi bobosi Amir Temur davlatini tiklash orzusida bo‘lgan. Lekin Movaraunnahrдagi siyosiy vaziyat bunga yo‘l qo‘ymadi. Sababi bu davrda Shayboniyalar va Safaviylar, shuningdek, Bobur o‘rtasidagi vaziyat ancha murakkab bo‘lib, Bobur Mirzo Movaraunnahrдан chiqib ketishga majbur bo‘lgan va Afg‘onistonda o‘z davlatiga asos solgan. Bobur Mirzo Qobul hukmdori bo‘lib, Dehkot qishlog‘ida turgan paytda bir kampirdan Amir Temurning Hindistonga yurishi haqidagi hikoyasini tinglab, bobosi kabi Hind yurtini bosib olishga kirishadi. Bu vaqtga kelib Hindistonda ham siyosiy vaziyat ancha murakkab edi. Bu vaqtda Hindiston mayda-mayda knyazliklarga bo‘linib ketgan edi. Ibrohim Lo‘diy Dehli va Agra sultoni edi, lekin u Shimoliy Hindistonda to‘la hukmronlik qila olmasdi. Bu

payda Ibrohim Lo'diyga ham o'z qarindoshlari tomonidan taxt da'vosi bor edi. Beharlik amakisi Olamxon Lo'diy Dehli taxtiga da'vogarlik qilar edi. Panjob hokimi Davlatxon Lo'diy esa o'zi mustaqil siyosatni yurgizar edi. Bu paytda Mirzo Boburga Olamxon va Davlatxon Lo'diylar yordam berdilar. Rona Sanga Singx ham Ibrohim Lo'diyga qarshi yurishda o'z yordamini taklif qilgan. Bunday siyosiy vaziyatdan Bobur Mirzo mohirlik bilan foydalandi va Boburiylar davlatiga asos soldi.

Davlatni Boburiylar sulolasidan bo'lgan hukmdorlar boshqargan. Ularning soni 17 ta bo'lgan. Bular: Zahiriddin Muhammad Bobur (1526-1530), Humoyun (1530-1556), Akbarshoh (1556-1605), Jahongir (1605-1628), Shoh Jahon (1628-1658), Avrangzeb Olamgir (1658-1707), Bahodirshoh I (1707-1712), Jahondorshoh (1712-1713), Farruh Siyar (1713-1719), Muhammadshoh (1719-1748), Ahmadshoh (1748-1754), Olamgir II (1754-1760), Shoh Olam I (1760-1788), Bedorbaht (1788), Shoh Olamgir II (1788-1806), Akbar II (1806-1837), Bahodirshoh II (1837-1858) edilar.

Hukmdorlarning shaxsiy fazilatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida yozilishicha, Bobur behisob olijanob hislatlarga ega bo'lgan, uning mardligi va saxovatpeshaligi hamma hislatlaridan ustun bo'lgan. U jismonan baquvvat bo'lib, qal'a devorlari ustida ikki kishini qo'ltilqlab, to'siqlardan bemalol suzib o'tib, 80 milcha masofani dam olmay bir kunda otda bosib o'tardi. Bobur olim shoh bo'lgan. U turkiy tilni mukammal bilishdan tashqari, arab va fors tillarini ham yaxshi egallagan. Turkiy nasrda asar yaratish borasida uning zamondoshlaridan birortasi unga teng kela olmagan. "Boburnoma" deb atalgan uning xotiralar to'plami dunyoda yaratilgan avtobiografik asarlar ichida eng yaxshisi hisoblanadi. Uning musiqa sohasidagi qobiliyati ham yuqori bo'lib, u ixtiro qilgan "G'ijjagi Boburiy", "Xatti Boburiy"lar bunga misol bo'la oladi. U "Devon" yaratgan bo'lib, turkiy she'riyatda Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Hind tarixchisi S.R.Sharma uni "ajoyib chavandoz, mohir mengan, chaqqon qilichboz va tolmas ovchi" deb ta'riflaydi. Sulolaning 2-chi hukmdori Humoyun bolaligidanoq turk, arab va fors tillarini yaxshi o'rgangan va bu tillarda bemalol yoza olgan. Diniy e'tiqodiga ko'ra musulmon bo'lsa-da, e'tiqodida diniy fanatizm sezilmas edi. Otasi sunniy, onasi shia mazhabidaligi uchunmi, diniy mazhablarga befarq qarar edi. Humoyun jismonan qaddi-qomati kelishgan, baquvvat va og'ir mehnatga chidamli bo'lgan. Xumoyun 1556-yilda saroy kutubxonasidan yiqilib, fojiali o'lim topgan. Sulolaning 3-chi humdori Akbar tolerant (bag'rikeng) shaxs bo'lgan. Hindistonda e'tiqod erkinligi yaratganligi uchun unga "Imomi Odil" unvoni berilgan. Abulfazlning "Akbar nomma" asarida keltirilishicha, Akbarshohning bo'yi o'rtabo'ydan sal yuqoriroq, yuzi bug'doyrang, qo'sh-ko'zi qora arslon kelbatli kishi bo'lgan. Burnining chap yonida no'xatning yarmicha keladigan xoli bo'lgan. Sulolaning 4-chi hukmdori, asli ismi Salim bo'lgan Jahongirshohni otasi ancha ulg'ayganda o'g'illi bo'lganligi uchun erkalatib "Shayx Bobo" deb ham atar edi. U insofli va xudojo'y inson bo'lgan. Sulolaning 5-chi humdori asli ismi Hurram bo'lgan Shoh Jahonning shaxsiga kelsak, tarixchilar uni madaniyatli, bilimdon, qat'iy irodali inson va odil shoh, adabiyot san'atining zukko bilimdoni deb ta'riflaydilar. U san'at ixlosmandi edi, juda yaxshi hofiz bo'lgan, musiqa, tasviriy va me'morchilik san'atini sevgan. Shu bilan birga, uning hayotida johillik va shafqatsizlik namoyon qilingan ko'rinishlar ham bo'lgan.

Buni otasi tirikligi paytida unga qarshi qo'zg'olon ko'tarilganligidan ko'rish mumkin. Sulolaning 6-chi humdori Avrangzeb (taxt bezagi) arab, fors, turkiy va hind tillarini yaxshi bilgan, arab alifbosining "shikasta" va "nasta'liq" usullaridan yozishda mohir qattot bo'lган. U qurol ishlatishni va jang olib borish san'atini yaxshi egallagan. Avrangzeb Olamgir nihoyatda takabbur bo'lган va biroz mutaasiblikka ham yo'l qo'ygan. Iste'mol qiladigan taomlari ham, kiyadigan liboslari ham juda sodda, ortiqcha hasham va zeb-ziynatlardan xoli bo'lган. Manbalarda yozilishicha, u umrida biror marta ham sarhush qiladigan ichimlik ichmagan. Uning xotinlari bir vaqtning o'zida to'rttadan oshmagan.

Boburiylar davlati iqtisodiy hayoti Movaraunnahrdağı kabi edi. Boburiylar xazinasining boyish manbalari savdo solig'i, sultanatda zarb qilingan pullar, musodara qilingan egasiz mollar, tuz solig'i, davlat ixtiyoriga keladigan yillik o'lpon to'lovlari, urushlardan olingan o'ljalarning beshdan bir qismi, sovg'alar hamda yer soliqlaridan iborat edi. Mahalliy soliqlar "ahbob" deb atalgan. Bobur davrida barcha yerlar jogir sifatida bo'lib berilgan. Akbar yer soliq tizimini ancha takomillashtirdi. 1580-yildan boshlab yer o'lchovi qilib "Gazi Iskandari", keyinchalik "Gazi Ilohiy" qabul qilingan. Bobur va Humoyun o'zlarining nomi bilan suratli tanga zarb qildirgan. Akbar davrida esa pul muomalasi ancha takomillashdi. U tilla, kumush va misdan tanga zarb ettirdi. Jami 26 xil tanga pullar zarb qilingan. Kumush tangalar "rupiy" deb, mis tangalar "dom" (paysa) deb atalar va u rupiyning 1/40 qismiga teng edi. Eng kichik mis tanga esa "jital" deb atalib, paysaning 1/25 qismiga teng edi. Boburiylar iqtisodiy hayotida pul muomalasi ancha rivojlangan edi.

Boburiylar davlatining ijtimoiy hayoti Movarounnahrni bilan o'xshash bo'lsada, jamiyatning poydevori hind jamoalari asosida qurilgan edi. Davlatda eng ko'p aholini hindlar tashkil qilsa-da, afg'onlar, turklar, forslar, o'zbeklar ham mamlakatdagi nufuzli xalq vakillaridan sanalgan. Hind qabilalari diniy jamoalarga bo'lingan va ularni diniy rahnamolar boshqargan.

Boburiylar davlatida asosiy din islom edi. Islom hindlarga boburiylardan ham oldin kirib kelgan. Naqshbandiya tariqati Bobur davrida keng yoyildi. Humoyun ham naqshbandiya tariqatini qo'llab-quvvatlagan. Akbar davrida bu harakat vakillari o'z mavqelarini tiklagan. U e'tiqod erkinligi joriy qilgan, 1564-yilda "jizya" solig'ini bekor qilgan. Mamlakatda islom bilan bir vaqtida nasroniylik, hinduizm va buddaviylik dinlari vakillari ko'pchilikni tashkil qilgan. Avrangzeb davrida jaholatparastlik avj oldi, islom dinida bo'limganlar ta'qib ostiga olindi, "Navro'z" bayrami taqiqlandi, raqqosa va sozandlar saroydan badarg'a qilindi. XVIII asr o'rtalarida janubiy-g'arbiy Hindistonga yevropaliklar kirib kelishi bilan xristianlik mazhablari ham paydo bo'ldi.

Davlatning boshqaruvi haqida to'xtaladigan bo'lsak, Boburiylar davlatining ma'muriy idora tuzilishi o'z tabiatiga ko'ra Amir Temur davlatida mavjud bo'lganidek, harbiy hokimiyat bo'lib, mamlakat markazlashgan yakka hukmdorlik tamoyili asosida podshoh tomonidan boshqarilgan. Podshoh hokimiysi mutloq bo'lib, qonun chiqarish ham ham, bosh harbiy sarkardalik ham shoh shaxsiyatiga mujassam bo'lган. Davlatda bir qancha yuqori mansablar bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etardi: *Vakil* - podshoh nomidan ish ko'rish vakolatiga ega bo'lган bosh vazirdir. Bu lavozim faqatgina Akbar taxtga chiqqan paytda mavjud bo'lib, u 14 yoshda taxtga chiqqanida

badaxshonlik amir Bayramxon unga otaliq – vakil etib tayinlangan. *Devonbegi* – bosh vazir hisoblanib, moliya ishlarida ham unga to‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysungan. *Mir Baxish* – sultanat xazinasidan sarf qilingan barcha xarajatlarni hisob-kitob qilib borgan. *Xoni-Zamon* – mamlakatdagi bosh ish boshqaruvchi hisoblangan. *Sadr us-sudur* – sultanatdagi diniy masalalar bo‘yicha bosh sardor hisoblangan. Bundan tashqari quyidagi mansablar mavjud bo‘lgan: *Mir Baxri* – soliq ishlarini rasmiylashtiruvchi kotib; *Axtabegi* – otxonalar va otlarning saqlanishi uchun mas’ul shaxs; *Mushrif* – kemachilik bo‘yicha bosh admiral, port boshlig‘i; *Mustavfi* – taftish hay’ati boshlig‘i va boshqalar.

Mamlakat viloyatlarga bo‘lib boshqarilgan. Humoyun davrida viloyatlar soni 12 ta bo‘lib, Akbar hukmronligi davrida 15 ta, Shoh Jahon davrida 22 tagacha yetdi.

Boburiylar sultanatining boshqaruv tuzulish shakliga ko‘ra, cheklanmagan monarxiya shaklida bo‘lgan.

Boburiylar sultanatida madaniy hayot yuksak rivojlangan. Davlatda ta’lim musulmon bolalari uchun maktab va madrasalarda – qizlar alohida, o‘g‘il bolalar alohida olib borilgan. Bolalar besh yoshida maktabga qabul qilingan. Hind bolalari “patshala” (maktab)da aralash tarzda o‘qitilgan. Bobur hukmronligi davrida Dehlida madrasa qurilgan va unga diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilgan. Akbar davrida musulmon va mahalliy hind bolalari bir xil maktablarda o‘qib, barcha fanlardan bir xil darslik va qo‘llanmalardan foydalanish tartibi joriy etildi. Ilm dargohi bitiruvchilarga o‘zlashtirgan fanlarni majmuasiga qarab 3 xil ilmiy daraja berilgan. Mantiq va falsafani o‘rganganlarga “Fozil”, diniy bilim sohiblariga “Olim” va adabiyot sohasida ilm olganlarga “Qobil” unvoni berilgan. Boburiy podshohlar o‘zlari ham ilm-ma’rifatli bo‘lgan va asarlar yozgan. Boburning “Boburnoma”, Jahongirning “Tuzuki Jahongiri”, Avrangzebning “Fatvom Olamgiri” asarlari bunga misol bo‘la oladi.

Me’morchilikda Humoyun maqbarasi, Shoh Jahon davrida qurilgan Agradagi Toj Mahal maqbarasi diqqatga sazovordir. Toj Mahal Shoh Jahonning 1630-yilda vafot etgan malikasi Mumtoz Mahal sharafiga qurilgan. Uning qurilishi 1647-yil tugallangan va eron-hind me’morchiligi uslubida qurilgan. Madaniy aloqalarning kengayishi natijasida ilm-fan, adabiyot, san’at, me’morchilik taraqqiy etgan, astronomiya yuksalgan. Dehli, Jaypur va boshqa shaharlarda rasadxonalar qurilgan. Adabiyotda xalq diniy-sektantlik harakati g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi “Bhatki” poeziyasi rivojlangan. Mazkur oqimning yirik namoyondalaridan biri Tulsidas (1532-1624) mashhur “Ramayana” dostonini yaratdi. Boburiylar davlatida musiqa san’ati ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Bu davrda mahalliy hind musiqasi Movaraunnahr va Eron musiqa san’ati an’analari ta’sirida yanada boyigan. Tarixchi Haydar Mirzo (1499-1551)ning “Tarixi Rashidiy” asarida aytlishicha, bu yerda Movaraunnahr musiqiy asboblaridan torli-kamonli sozlar ko‘proq tarqalgan.

Davlat hududida yashab faoliyat ko‘rsatgan tarixiy shaxslar, bular – Rana Sang – 1527-yil Bobur bilan kurashda Sikri jangida yengilgan, Mohim Begim – Boburning bosh xotini, shahzodalar tarbiyachisi bo‘lgan. Gulbadanbegim – Boburning ma’rifatli qizi, Sherxon Sur – Humoyunga qarshi kurashda afg‘on qabilasi yetakchisi, Bayramxon – Akbarshohning otalig‘i va bosh vaziri, Mumtoz Mahal – Shoh Jahonning suyukli xotini, Zebuniso Begim – Avrangzeb Olamgirning shoira va olima

qizi, Abulfayz Allomiy – Akbarshoh davrida ijod qilgan tarixchi olim, Nur Jahon Begim – Jahongirning xotini, davlat ishlarida faol ishtirok etgan.

Boburiylar davlati dastlab g‘arbda Eron Safaviylari davlati bilan diplomatik aloqalarini o‘rnatgan. Har ikki davlatning asoschisi bo‘lgan Bobur va Ismoil Safaviy o‘rtasidagi munosabatlар 1508-yilda o‘rnatilgan edi. Keyinchalik Bobur 1511-yil Samarqand taxtini egallaganida ham Ismoilning harbiy siyosiy ko‘magi nihoyatda katta bo‘lgan. Boburning o‘g‘li Humoyun ham Eron bilan aloqalarni yaxshilagan. 1540-yil Sherxon Surdan mag‘lub bo‘lgach, u Eronga shoh Taxmasp huzuriga panoh topgan va 1555-yil Eron davlati ko‘magida Hindiston davlatini qayta egallaydi. Akbarshoh davrida Movaraunnahr, ya’ni Shayboniylar davlati bilan diplomatik munosabatlар o‘rnatilgan. Shayboniy Abdullaxon II boburiylar hukmdori Akbarshoh huzuriga 4 marta (1572, 1577, 1585, 1588-yillar) elchi yuborgan. Birinchi elchilikda savdo aloqalari yo‘lga qo‘ylgan. Ikkinci elchilikda Abdullaxon II Akbarshohga Eronni o‘zaro taqsimlab olish takliflarini aytgan. Uchinchi elchilikda Abdullaxon Badaxshonni shayboniylar tomonidan bosib olinish maqsadlarini tushuntirish bo‘lsa, to‘rtinchisi o‘g‘li Abdulmo‘minning Akbarshohga nisbatan hurmatsizlik qilganligi uchun uzr so‘ragan. Abdullaxon II Akbarshoh saroyiga bir qancha miniaturachi rassomlar, xususan Muhammad Murod Samarqandiyni, 1585-yil o‘z elchilarini bilan birga shoir Mushviqiyni ham yuborgan. Akbarshohning o‘g‘li Jahongirshoh va Buxoro xoni Imomqulixon davrida ikki davlat o‘rtasidagi elchilik munosabatlari davom etgan. Lekin Jahongirshohning o‘g‘li Shoh Jahon davrida Hindiston-Buxoro munosabatlari yomonlashadi. Avrangzeb bilan Abulfayzxon hamda Subhonqulxon o‘rtasidagi elchilik aloqalari davom etgan. 1747-yil Afg‘oniston davlati tashkil topgach, boburiylardan Ahmadshoh va Olamgir II lar Afg‘oniston bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Olamgir II janubdan kirib kelgan ingliz va Portugal kompaniyalari bilan ham savdo aloqalarini o‘rnatgan.

Manbalarda yozilishicha, boburiylar davlati harbiy holatida qurolli kuchlar asosan besh toifaga bo‘lingan. Ular suvoriyalar, jangchi fillar kavaleriyasi, piyoda askarlar to‘pchi va o‘qchilar guruhidir. Shuningdek, ularda uncha ko‘p bo‘lmaseda harbiy dengiz va daryo floti qo‘smini bo‘lgan. Suvoriyalar qo‘smini quyidagi guruhlarga bo‘lingan: “Ahadu” navkarlari - eng oliy toifadagi askarlar bo‘lib, faqat poshoh farmonlariga bo‘ysungan. Oddiy askarga 12-15 rupiy haq to‘lansa, ahadu navkarlariga 500 rupiy haq to‘langan. “Barvardu” navkarlari – mamlakatning ichki politsiyasi vazifasini bajargan. “Ko‘maki” navkarlari – zaxira qo‘smini bo‘lgan. “Dohili” navkarlari – asosiy harakatdagi qo‘smini bo‘lgan. Jahongir va Shoh Jahon hukmronligi davrida qo‘smini soni 300 mingni tashkil qilgan. Akbar hukmronligi davrida jangovor fillarning soni 50 mingga yetgan. Bengaliya viloyatida maxsus jangchi fillar kavaleriyasi saqlangan. Boburiylar davlatida harbiy unvonlarning eng yuqorisи “xoni-xonon” deb yuritilgan. Bundan tashqari “mansabdor”, “amir”, “amiri a’zam”, “xoni jahon” harbiy unvonlari bo‘lgan.

Davlat hukmdorlari tarixda yorqin iz qoldirganlarining islohotlari va amalga oshirgan ishlari haqida manbalarda ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Bobur Hindistonda musulmonlardan olinadigan “tamg‘a” solig‘ini bekor qildi. Ayodhiya viloyatida va boshqa joylarda masjidlar qurdiradi. U mamlakatni markazlashtirib, o‘ziga “podshoh”

unvonini qabul qilgan. Bobur mamlakatda “gazi boburiy” deb nomlangan yagona uzunlik o'lchov birligini joriy qildi. O'zi bilan Hindistonda qolgan sarkardalarga “jogir” (yer) tarqatdi. Uning vorisi Humoyun ilm-fan sohasida islohotlar o'tkazib, poytaxtda “Din Panboh” deb atalgan ilm-fan markazini bunyod etgan. Uning vorisi Akbarshoh markaziy davlat apparatini mustahkamlash maqsadida bir qator islohotlar o'tkazdi. Xususan, yer solig'i, davlatni boshqarish tartibi xususidagi qonunlarni ishlab chiqdi. Qonunga binoan natural soliq pul solig'i bilan almashtirildi. Bu tadbir davlatning moliyaviy ahvolini yaxshiladi. Bundan tashqari u podshoh hokimi mutlaq hisoblanib, uning huzurida maxsus vakillik mahkamasi tashkil etildi. Akbar musulmon hukmdorlari orasida Hindistonda birinchi bo'lib e'tiqod erkinligini joriy qilgan, “jiz'ya” solig'ini bekor qilgan. Ma'muriy va harbiy idoralaridagi mansablarga musulmonlarga emas, balki mahalliy hindlardan ham tayinlanadigan bo'ldi. Akbarning vorisi Jahongir o'z nomi bilan o'yib yozilgan tanga pul zarb qildirdi. U zindondagi ko'p maxbuslarni ozod qildirdi, “tamg'a”, “mirbahri”, soliqlarini bekor qildirdi. Musallas va giyohvandlik moddalarini tayyorlash va ular bilan savdo qilish taqiqlandi. Uning vorisi Shoh Jahon Agrada dunyoga mashhur Toj Mahal maqbarasini qurdirdi. Manbalarda yozilishicha, bu bino 12 yilda qurilgan, uning qurilishida 50 lak rupiy mablag' sarflangan. Shoh Jahon Dehlida Qizil Qal'a, Jome' masjidi, Agradagi Moti masjidi, Devoni A'zam, Devoni Xos, Toj Mahal, Shish Mahal singari inshootlar qurdirgan. Avrangzeb esa taqvodor hukmdor bo'lganligidan 80 yaqin kichik, har xil soliqlarni bekor qildi, “jizya” solig'ini qayta tikladi. Musulmon dinida bo'lmaganlarni ma'muriyat idoralaridan olib tashladi.

Davlat tarixini o'rGANISHGA oid tarixiy manbalar quyidagilardan iborat: Boburning “Boburnoma”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixiy Rashidiy”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Humoyunning buyrug'i bilan Xondamir tomonidan yozilgan “Qonuni Humoyun”, Akbarning buyrug'i bilan yozilgan Javhar Oftobachining “Taziqat ul-vaeot”, Abulfay Allomiyning “Akbnaroma”, Xasan Alixonning “Tavfiri davlati Shershohi”, Jahongir davrida yozilgan Ahmad Yodgor qalamiga mansub “Tarixi Shohi”, shu davrda yozilgan Abdulloxning “Tarixi Dovudiy”, Xo'ja Nizomiddin Ahmadning “Taboqoti Akbariy”, Shoh Jahon davri tarixiga oid Amin Kazvining “Podshonoma”, Avrangzeb va undan keyingi davrlar tarixi haqida Muhammad Soqi Mustaiqxonning “Maasiri Olamgiri” asarlari shular jumlasidandir.

Davlatda ishlab chiqaruvchi xo'jalik, shaharlarda hunarmandchilikning keng tarmoqlari shaklangan. Ularga kulolchilik, zargarlik, naqqoshlik, etikdo'zlik, temirchilik, qurolozlik, to'quvchilik, tikuvchilik, qog'oz ishlab chiqarish, qandolatchilik va boshqalar taraqqiy etdi. Manbalarda gazlamalarning yuzga yaqin nomi keltirilganligi to'quvchilik yuksalganligidan dalolat beradi. Qishloq xo'jaligida asosan dehqonchilik va chorvachilik muhim ahamiyat kasb etgan. Dehqonchilikda arpa, bug'doy, sholi va boshqa dukkakli ekinlar, poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Bobur davrida bog'dorchilikka katta e'tibor qaratilgan.

Boburiylar imperiyasining o'ziga xos tomoni shundaki, XX asrning 90-yillariga qadar “Buyuk mo'g'ullar imperiyasi” deb ta'riflanib kelindi. Nihoyat Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan olib borgan tadqiqotlar hamda mustaqil

O‘zbekistonda tarixni haqqoniy yaratishga bo‘lgan e’tibor tufayli bu davlat o‘z nomi bilan “Boburiylar davlati” deb atala boshlandi. Bu imperiya 332 yil hukm surdi va u Hindiston tarixidagi boshqa davlatlardan ko‘ra markazlashgan hamda yirik imperiya edi. Ushbu davlatning hududi Shoh Jahon davrida bu huddudda ilgari mavjud bolgan Guptalar imperiyasi, Mauriya davlati, Dehli sultonligi hududlaridan ancha katta bo‘ldi.

Boburiylar davlati Hindiston sivilizatsiyasi tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan davlatdir. Boburiylar davrida Hindiston boshqa Sharq davlatlari bilan savdomadaniy aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Islom dini, yozuvi, an’analari Hindistonning markaziy hududlarida ham keng tarqaldi. Boburiy hukmdorlar Hindistondagi shaharsozlikka ham alohida ahamiyat bergen. Ular tomonidan qurilgan Humoyun va Toj Mahal maqbaralari butun dunyoga mashhurdir. Ular fors-hind, Movarounnahr an’analarining uyg‘unligi asosida bunyod etilgan. Shu va shu kabi me’morchilik namunalari bugungi kunda ham o‘z qiymati va e’tiboriga molikligi bilan dunyo sayyohlari, olimlari nazarida bo‘lib kelmoqda.

Ahamoniylar davlati

Ahamoniylar davlati mil.avv 558-330-yillar (Mil.avv VI asrdan mil.avv IV asrgacha) oralig‘ida mavjud bo‘lgan. Ahamoniylar davlatining chegaralari g‘arbda Bolqon yarim oroligacha, janubiy-g‘arbda Misrning Markaziy hududlarigacha, janubda Fors ko‘rfazigacha, sharqda Hind daryosi bo‘ylarigacha, shimolda Qora dengiz bo‘yi, Markaziy Kavkaz, Orol dengizi va hozirgi Janubiy Qozog‘iston yerlarigacha borgan edi. Bu davlatga Erondan tashqari, Kichik Osiyo, Yaqin Sharq, Misr, O‘rta Osiyo hududlari kirgan (Doro I davridagi chegarasi).

Ahamoniylar davlatining asoschisi Kir II hisoblanadi. Mamlakatning poytaxti hozirgi Eronning janubida, Sherozdan 50 km uzoqlikda joylashgan Persopol shahri edi. Persopol (qadimgi eroncha Parsa) ahamoniylar davri madaniyati va san’atining eng ajoyib yodgorligidir. U eramizdan avvalgi, taxminan 520-yildan boshlab to 450-yilgacha, jami 70 yil davomida qurilgan.

Fors davlatining asoschisi Kir II boshqa qo‘sni qabilalarni ham birlashtirib, Midiya zulmiga qarshi chiqadi va mil.avv 559-yilda Midiya davlatini bosib olib birinchi imperiyaga asos soladi. Mazkur davlatdagi sulola ahamon oilasi urug‘idan bo‘lib, davlat ahamoniylar sulolasi tomonidan boshqarilgan.

Ahamoniylar davlatida 13 ta shoh hukmronlik qilgan. Bular: Kir II (558-530), Kambiz (530-522), Doro I (522-486), Kserks (486-465), Artakserks (465-424), Kserks II (424), Sekudian (424-423), Doro II (423-404), Artakserks II (404-358), Artakserks III (358-338), Arses (338-336), Doro III (336-330)lardir.

Manbalarda ahamoniy shohlarning faqatgina eng buyuklarining shaxsiy fazilatlari haqida qayd etilgan. Kir II diplomat, mohir davlat arbobi bo‘lishi bilan birga, unda makkorlik, ayyorlik (qo‘sni davlatlarga nisbatan shafqatsiz choralar ko‘rgani bunga misol) uning fazilatlaridan edi. Uning avlodlaridan biri Doro I ham mohir diplomat, buyuk davlat arbobi va bobosi kabi ayyor shohlardan bo‘lgan. Doro I

vorisi Kserks esa harbiy san'at ustasi bo'lganligi bilan ahamoniy shohlaridan ajralib turadi.

Mamlakatning ijtimoiy ahvoli haqida to'xtaladigan bo'lsak, mil.avv VI asr oxiridan bu davlatda yashagan xalqlar hayotida muhim ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Urug' jamoalari orasida tabaqalanish boshlandi: yangi paydo bo'lgan urug' aslzodalar serunum yerlarni egallab oladilar, qo'l mehnati hamda erkin jamoa a'zolari zulm qilinish yo'li bilan boyib bordilar. Shu tariqa jamiyatda tabaqalanish kuchaydi. Bu sulola vakillari qo'shni qabilalarni o'ziga qaram qilib, aholisini qul qilib sotishni avj oldiradi. Quldorlikning asosiy manbai urush bo'lib qoladi. Mamlakatni Doro I 20 ta satrapliklarga bo'lgan bo'lib, imperiyada har xil xalqlar istiqomat qilgan. Bular orasida kaspiylar, forslar, baqtiriyaliklar, so'g'diyalar va boshqa xalqlar yashab kelganlar. Har bir xalqning o'ziga xos tomoni, o'ziga xos yashash tarzi va urf-odati bo'lgan.

Mamlakatning iqtisodiy hayotida shu narsa ko'zga tashlanadiki, o'sha 20 ta satrapliklarning har qaysi talant o'lchov birligida davlatga soliq to'lagan. Doro I davrida soliq miqdori odatda, kumush talantda belgilangan. Bir talant 34 g oltinga teng edi. Satrapliklardan soliq olishning yagona tizimi ishlab chiqildi. O'rta Osiyo 3 ta satraplikka bo'lingan. Baqtriya va Marg'iyona 12-satraplikni tashkil etib, shoh xazinasiga 360 talant miqdorida soliq to'lagan. Parfiya, Xorazm, Sug'd va Areya birgalikda 16-satraplikni tashkil etgan va shoh xazinasiga 300 talant miqdorida soliq to'lagan. Saklar va kaspiylar esa 15-satraplikni tashkil etib, shoh xazinasiga 250 talant miqdorida soliq to'lagan. Bundan tashqari, soliq hunarmandlar hunarmandchilik buyumlari bilan, chorvadorlar chorva mahsulotlari bilan, dehqonlar hosilni natural tarzda to'langani manbalarda qayd etilgan.

Imperianing davlat dini zardushtiylik bo'lgan. Markaziy va sharqiylar qismida zardushtiylik, g'arbiy qismida esa yunon xudolariga sig'inishgan, sharqida hinduilik va buddaviylik dini ham mavjud bo'lgan.

Mamlakat cheklanmagan monarxiya shaklida bo'lib, shoh cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Mamlakatni "shahanshoh" unvoniga ega bo'lgan shohlar boshqargan. Mamlakat satrapliklarga, ya'ni viloyatlarga bo'lingan. Satraplik tepasida hokim – satrap turgan. U cheklanmagan hokimlikka ega bo'lib, uning qo'lida harbiy va fuqarolik hokimiyati jamlangan. Satrap o'z viloyati doirasida sudyalik va xalqdan har xil soliqlarni undirib olish, o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb etish huquqiga ega edi. Odatda satraplik tepasida faqat ahamoniylar oilasiga mansub forslar turgan. Satraplar faoliyatini doimo nazorat etib turish uchun maxsus amaldor-ayg'oqchilar – noib tayinlangan.

Saroya ilm-u fan muhiti yaratilgan, Ktesiy va Ksenofon singari tarixchilar bo'lgan. Suza va Persopol shaharlarida naqshli Doro I va Kserksning 100 ustunli naqshli saroyidagi bezaklar davlatning moddiy madaniyat yuksalganidan dalolat beradi. Bunda afsonaviy qushlar hamda har xil hayvonlar, podsho va amaldorlarning qabul qilish marosimlari bo'rtma rasmlarda tasvirlanishi buning isbotidir.

Doro I ning Behustun bitiklarida quyidagi tarixiy shaxslar haqida ma'lumot uchraydi. Mil.avv 523-522-yillari ahamoniylar sultanatini larzaga keltirgan Gaumata (522-yil sentabrda vafot etgan), Marg'iyonada mil.avv 522-yil qo'zg'olon ko'targan

Frada (bu qo'zg'oltonni bostirgan Baqtriya satrapi, fors Dodarshish), hozirgi Janubiy Qozog'iston va Shimoliy O'zbekiston hududlarida yashagan saklar yo'lboshchisi Skunxalar haqida ma'lumot uchraydi.

Ahamoniylar davlati Sharq va G'arb bilan diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilgan. Masalan, Kir II va massagetlar malikasi To'maris o'rtaida og'zaki shaklda, ya'ni elchi orqali diplomatiya olib borilgan. Og'zaki deyilishiga sabab, u paytda hali massagetlarda yozuv bo'magan. Kir II To'marisdan unga turmushga chiqishini so'raydi, lekin massagetlar malikasi bunga rozi bo'lmaydi. Bundan ko'zlangan maqsad To'maris emas, balki massagetlar yeri edi. Ahamoniylar yunon shahardavatlari bilan ham diplomatik aloqalar olib borgan. Xususan, fors elchilar Afina va Spartadan yer-suv talab qiladilar. Shunda afinaliklar fors elchilarini qoyadan itarib yuboradi, spartaliklar esa fors elchilarini chuqur quduqqa tashlab: "Keraglicha yersuvni shu yerdan topasizlar", deb aytgan.

Davlatning harbiy holati juda qudratli edi. Har bir satraplik yurish paytida ancha qo'shin yetkazib berar edi. Xususan Marafon jangida yosh baqtriyalik jangchi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bunda tashqari, Salamin jangida qo'shin markazida sak qabilalari alohida jasorat ko'rsatganliklari Esxilning "Forslar tragediyasi"da yozib qoldirilgan. Bundan bilishimiz mumkinki, qo'shin bosib olingan barcha satrapliklardan yig'ilgan. Bundan tashqari, shahanshohning o'ziga tegishli bo'lgan maxsus gvardiyasi ham bo'lgan. Gerodotning ta'riflashicha, fors qo'shini tarkibidagi baqtriyaliklar kamon va nayza bilan, sak qabilalari esa xanjar va jangovor oyboltalar bilan qurollangani, sug'diyalar va xorazmlilar esa baqtriyaliklar kabi qurollangani ko'rsatilgan. Doro I davrida mamlakatda 300 mingga yaqin qo'shin, otliq va tuyakashlardan iborat bolib, uning tarkibida fillar ham bo'lgan. Mamlakatda harbiy flot mavjud bo'lgan. Kserks davrida qo'shin soni ko'pligidan uni hisobga oluvchilar doim adashib ketganligi manbalarda yozilgan.

Hukmdorlarning amalga oshirgan islohotlari quyidagilardir: Doro I oltin "dariq" tanga birligini ishlab chiqdi. Bir dariq 8,4 g oltinga, 20 kumush tangaga, bir tanga 5,6 g kumushga teng edi. Oltin dariqni faqat shahanshoh, kumush tangani esa viloyat hokimlari ham zabit etishi mumkin edi. Doro I mamlakatda "doroiy" tangalarini zarb ettirdi. U mamlakatda harbiy islohotlar ham olib bordi, xususan qo'shin tarkibiga fillarni olib kirdi. Podsho Kserks davrida diniy islohot o'tkazilib, Ahuramazda barcha xudolarning oliy xudosi hisoblanadigan bo'ldi.

Ahamoniylar davlati haqida ma'lumot beruvchi manbalarning eng ishonarlisi – davlat hukmdorlarining tosh bitiklaridir. Persopol yaqinidagi Husaynkuh qoyalarida Ahamoniylardan Doro I, Kserks I, Artakserks I va Doro II larning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan bitiklar bor. Mazkur yodgorlik sosoniy sarkardasi Rustam nomi bilan ham bog'liq va tarixda ko'pincha Naqshi Rustam deb ataladi. Shimoliy Eronda, Kirmonshoh shahri yaqinida daryo bo'ylab o'tgan karvon yo'li yoqasida Zagros nomli tik qoyaga, taxminan 100-105 metr balandlikda Doro I farmoni bilan yozilgan Behustun bitiklari alohida ahamiyatga ega. Bu yozuvlar uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m bo'lgan. Bu g'alaba, shon-shuhrat yodgorligi bo'lib, qadimiy fors, elam va bobil tillarida yozilgan. Bundan tashqari, Gerodotning "Tarix" asari, Diodorning "Tarixiy kutubxona", Ktesiyning "Tarixiy yilnomalar", Pompey Trogning

“Filipp tarixi”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlari orqali bu haqdagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Davlatda hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, yilqichilik, kemasozlik rivojlangan edi. Dehqonchilikda donli ekinlar ishlab chiqarilgan. Yilqichilikdan teri, go‘sht olingan. Kemasozlikda esa harbiy kemalar va qayiqlar ishlab chiqilgan. Osiyoda Yevropada bo‘lgani singari qulchilik klassik darajaga ko‘tarilmagan bo‘lsa ham, ahamoniylar davlatida qullar soni ko‘payishi natijasida ishlab chiqarish munosabatlariga qullar keng jalg qilina boshlandi.

Ahamoniylar davlatining o‘ziga xos tomoni, u dunyodagi 1-chi imeriyadir. Uning hududi uchta qit’ada tashkil topgan. Davlatdagi aholi ko‘p millatli ekanligi bilan boshqa imperiyalardan farq qiladi.

Ahamoniylar davlati insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasi to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, davlatda Behustun yozuvlari, Shoh yo‘li mavjudligidadir. Behustun yozuvlari qadimgi tarixni o‘rganishga oid muhim manba hisoblanadi. Shoh yo‘li orqali Sharq va G‘arb mamlakatlarining madaniy aloqalari rivojlandi. Bu yo‘l Buyuk ipak yo‘li rivojlanishi uchun asos bo‘ldi.

PREZIDENT ASARI HAQIDA YOZISH UCHUN NAMUNA

Prezident Islom Karimov asari (ma'ruzasi): “Asosiy maqsad – iqtisodiy yuksalishga erishishdir”.

Prezidentimiz Islom Karimovning “Asosiy maqsad – iqtisodiy yuksalishga erishishdir” nomli nutqi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisida 1997-yil 29-iyulda so‘zlangan. Ma’ruzaning asosiy mazmuni inson manfaatlari va iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirish bo‘lib, unda inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratmasdan, bu manfaatlarni faol bunyodkor kuch sifatida e’tirof etmasdan turib yangilanish va taraqqiyot yo‘lidan to‘g‘ri va izchil harakat qilib bo‘lmasligiga e’tibor qaratadi. Shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy manfaatlarini ta’minalash, oilalarning, har bir alohida kishining turmush sharoiti va farovonligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ma’ruzaning bosh g‘oyasi – islohotlarning maqsadi va amalga oshirilishini yanada chuqurroq, tanqidiy nazar bilan tahlil etish, islohotlarda eng ma’qul yo‘llarni qidirish, xato qilmaslikka chaqiradi. Bu yo‘lda amalga oshirilayotgan ishlar haqida to‘xtalib, korxonalarini iqtisodiy sog‘lomlashtirish va sanatsiyalash dasturi ishlab chiqilganligi va aniq jadvallar tuzilayotganligini aytib, import tuzilmasiga 47%dan ortiq mablag‘ mashina va jihozlarni, 14,5% mablag‘ kimyo mahsulotlari plastmassasi va ulardan ishlangan mahsulotlarni xarid qilishgasarflanganligi aytib o‘tiladi. Nodavlat sektorida band kishilar ulushi 47%ni tashkil etishi, shuningdek, ishbilarmonlikdan tushgan daromad ulush aholining barcha daromadlarining 36%ni, shaxsiy xo‘jalikdan tushgan daromad 15%, yakka tartibdagi mehnat faoliyatidan tushgan daromad 7%dan ortiqroqligini ta’kidlab o‘tadi. Nutqda barcha sarmoyalarning 61%dan ortig‘i ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga sarflanayotganligi aytildi. Makroiqtisodiyotda barqarorlikni vujudga keltirish sohasida qo‘llanilgan chora-tadbirlar inflyatsiya darajasini 1996-yil dekabridagi 13%dan, 1997-yil may oyida 2,9%ga, iyun oyida esa hatto minus darajasida 3,1%ga qadar keskin kamaytirish imkonini bergenligini aytib o‘tadi. Vazifa qilib dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishda to‘sinqinlik qilayotgan mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning huquqiy va intitutsional asoslarini shakllantirishni ko‘rsatadi. Ma’ruzada jamiyatning siyosiy sohasiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bu borada 1997-yil “Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili to‘g‘risida” gi qonunning qabul qilinganligi, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz tashkil etilganligini, Oliy Majlis qoshida amaldagi qonunlar monitoringi instituti faoliyat ko‘rsatayotganligini aytib o‘tadi. Shuningdek, “O‘zbekistonda Ombutsman instituti tajriba va muammolar” mavzuidagi davra suhbati xalqaro miqyosda qiziqish uyg‘otganligi, o‘quv dasturlariga inson huquqlari bo‘yicha maxsus kurslar kiritilganligi ta’kidlab o‘tiladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy sohani rivojlantirishga byudjetning umumiy xarajatlarining qariy 45% sarflanganligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish, kam ta’minalangan oilalarga 10,1 mlrd. so‘mdan ortiq nafaqa berilganligi, qishloq joylarda ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida e’tibor ko‘rsatilayotganligi ta’kidlab o‘tiladi. Tuyamo‘yin – Urganch, Damxo‘ja, Zarafshon – Jizzax kabi hududlararo suv tarmoqlari qurilishini tezlashtirish, iqtisodiyotda tub tarkibiy yangilanishlarni amalga oshirishni ta’kidlaydi.

Ma'naviy sohada iyun oyida YUNESKOning Parijdagi qarorgohida qadimiylar shaharlarimiz Buxoro va Xivaning 2500 yilligi o'tkazilganligi, Toshkent xalqaro kinofestivali o'tkazilganligi muhim voqeа bo'lganligi aytib o'tiladi.

Ma'rumaning jamiyatdagi iqtisodiy ahamiyati, mamlakatimiz iqtisodiy hayotini rivojlantirishning mustaqillik yillarda amalga oshirilgan ishlar sarhisobiga bag'ishlanadi. Unda navbatdagi strategik maqsadlar belgilab berilgan. Islohotlardan maqsad inson, uning erki, unga farovon turmush tarzini yaratish eng muhim omil ekanligi qayta-qayta uqtiriladi, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samarasi ham shu nuqtai nazardan baholanadi. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklarning oldini olishga e'tibor qaratilib, o'tgan yillarda erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklarning oldini olgan holda 1997-yil uchun iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan mamlakatni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi va bu borada mazkur ma'ruza Vazirlar Mahkamasi va hokimiyatning boshqa yuqori, quyi tashkilotlari, sud, ijro hokimiyati hamda ommaviy axborot vositalari uchun dasturul amal bo'lib xizmat qildi. Ma'ruzada e'tibor qaratilgan jihatlar – ommaviy axborot vositalari, Oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus ta'limda, Oliy Majlis vakillari, hokimiyat organlari tomonidan chuqur o'rganildi. Davlat taraqqiyotida ichki va tashqi siyosat, iqtisodiy islohotlarning tadrijiy taraqqiyotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'rumaning hayotiyligini jamiyatimizni tubdan qayta qurish va yangilashda inson omiliga ulkan ahamiyat berilib, 1997-yil "Inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinganligida ko'rish mumkin. Shunday tarixiy sharoitda mustaqil vatanimiz o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish yo'lida zarur huquqiy va moddiy asoslarni barpo etish uchunma'ruzada e'tibor qaratilishi lozim deyilgan jihatlar asosida chora-tadbirlar rejasи ishlab chiqildi. Iqtisodiy jarayonlarning taraqqiyoti bugungi kunda "Taraqqiyotning o'zbek modeli" deb jahon hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan O'zbekistonning bugungi iqtisodiy yutuqlariga mazkur asar muhim ahamiyat kasb etganligi kun sayin o'z isbotini topmoqda.

9-11 sinf (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 2-3 kurslari) olimpiadaning birinchi (maktab yoki o‘rta maxsus bilim yurti), ikkinchi (tuman) bosqichida jahon va O‘zbekiston tarixidan tuzilgan 40 ta (28 ta javobi tanlanadigan, 12 ta javobi yoziladigan) test topshiriqlarini bajaradilar. Har bir to‘g‘ri javob uchun 1,25 balldan qo‘yiladi (maksimal 50 ball). Test topshiriqlarini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt beriladi.

Javobi yoziladigan testning javobi tanlanadigan testga qaraganda darajasi bir oz pastroq bo‘lsa-da, bu testlarning javobi aniq bir tarixiy sana, shaxs nomi, joy nomi yoki tarixiy atamani ifodalashi lozim.

MASHQ QILISH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

9-sinflar uchun test

- Xammurapi qonunlari nima sababdan o‘zigacha yaratilgan barcha qonunlardan ustunlik qiladi?
 - qonunlar o‘ta shavqatsiz bo‘lganligi uchun
 - qonunlar hajmi jihatidan hayotning har xil tomonlarini qamrab olganligi uchun
 - qonunlarni hukmdorning bir o‘zi tuzmasdan, aholining barcha qatlamlari ishtirokida to‘plaganligi uchun
 - qonunlarda moddalarining nihoyatda ko‘p bo‘lganligi uchun
- Qadimgi Sharqning quyidagi davlatlari va ularning poytaxti bilan to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
 - Ossuriya; 2) Elam; 3) Xett; 4) Urartu; 5) Mauriya
 - Suza; b) Nineviya; c) Tushpa; d) Xattusa; e) Pataliputra
 - 1-b, 2-a, 3-d, 4-c, 5-e
 - 1-e, 2-a, 3-d, 4-b, 5-c
 - 1-b, 2-a, 3-c, 4-e, 5-d
 - 1-b, 2-a, 3-d, 4-e, 5-c
- Qadimgi dunyoning suv yoki suv manbaasiga oid xudolari keltirilgan javobni aniqlang.
 - Ea; 2) Geya; 3) Xapi; 4) Indra; 5) Poseydon; 6) Shamash; 7) Neptun; 8) Artimeda;
 - Anaxita; 10) Venera.
 - 1, 3, 5, 7, 9 B) 1, 5, 7, 8, 9, 10 C) 3, 5, 6, 7, 9
 - 3, 5, 6, 7, 8, 10
- Qadimgi Rimni larzaga solgan qo‘zg‘olon boshlig‘i Spartak nima sababdan quq qilinib, gladiatorlik mакtabiga sotib yuboriladi?
 - u rimliklarning dushmani – frakiyalik yunon bo‘lganligi tufayli
 - Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun
 - Rimning maxfiy sirlarini yunon koloniylariga sotganligi uchun
 - gladiatorlar jangidan bosh tortganligi uchun
- Qang‘ davlatiga kimlar asos solgan?
 - dovonliklar B) yuechjilar C) saklar
 - so‘g‘dar

6. Qo'lida burgut qo'ndirgan tojdor hukmdor haykali qaysi manzilgohdan topilgan?
- A) Varaxsha B) Bolaliktepa C) Anqaqal'a
 D) Tuproqqal'a
7. Xuroson amirining xalifaga qarshi isyonida qatnashgan va keyinchalik o'zi qo'zg'olon boshlig'i bo'lgan tarixiy shaxsni aniqlang.
- A) Rofe ibn Lays B) Divashtich C) Abu Muslim
 D) Muqanna
8. O'rta Osiyoda bunyod etilgan ilk madrasa qanday nomlangan?
- A) Fiqhlar madrasasi
 B) Farjak madrasasi
 C) Poykand madrasasi
 D) Kovushduzlar madrasasi
9. Quyidagi qaysi hukmdor turkiy, fors, arab, pahlaviy tillarini bilgan va she'rlar yozgan?
- A) Ismoil Somoniy
 B) Mas'ud G'aznaviy
 C) Muhammad Takash
 D) Mahmud G'aznaviy
10. Eron shohi Xusrav I tonomidan Yaman nechanchi yilda ishg'ol qilinadi?
- A) 561-yil B) 570-yil C) 651-yil
 D) 583-yil
11. Jakeriya qo'zg'olonining shiori nima bo'lgan?
- A) yo vatan, yo sharofatli o'lim
 B) qirq yil qul bo'lib yashagandan ko'ra, bir kun ozod bo'lgan yaxshi
 C) barcha zodagonlarni bitta qo'ymay qirib tashlash
 D) qullikni tomiri bilan yulib tashlash
12. Ma'lumki, Mo'g'ullar xoni huzuriga kirish istagidagi barcha kishilarning o'zlarigina emas, ularning sovg'a-in'omlari ham turli duo, yovuzliklardan "tozalanishi" lozim edi. Bunga nima orqali erishilgan?
- A) elchilar hovuzda ikki marta cho'miltirilgan
 B) shomon ruhoniylarining duosi va olov atrofidan aylanish
 C) shomonlarning qattiq nazoratida ikki katta gulxan orasidan o'tish orqali
 D) elchilar boshdan-oyoq yangi kiyimlar kiygan va sovg'a-salomlar duo orqali "tozalangan"
13. Qaysi omil Xitoya 1406-yili Vyetnamni, keyinchalik Mo'g'ulistonni istilo qilishiga yo'l ochadi?
- A) Xitoyning birlashuvi
 B) Amir Temurning qo'qqisdan vafot etishi
 C) Mo'g'uliston va Vyetnamning zaiflashuvi
 D) Xitoyning Hindiston bilan harbiy ittifoqqa kelishi
14. Quyida keltirilgan hukmdorlarni tug'ilgan yili bilan to'g'ri joylashtiring.

1	Chingizzxon	A	1394-yil
2	Amir Temur	B	1483-yil
3	Mirzo Ulug'bek	C	1451-yil

4	Shayboniyxon	D	1336-yil
5	Bobur	E	1155-yil

A) 1-D, 2-A, 3-E, 4-C, 5-B

B) 1-C, 2-D, 3-A, 4-B, 5-E

C) 1-A, 2-B, 3-C, 4-D, 5-E

D) 1-E, 2-D, 3-A, 4-C, 5-B

15. 1504-yil sentabr oyida ...

A) Bobur Kobulga borib hokimiyatni egalladi

B) Shayboniyxon Farg‘onani egalladi

C) Shayboniyxon Shohruxiyani egalladi

D) Shayboniyxon Urganchni egalladi

16. Shayboniyzodalarning Movarounnahr uchun kurashida Usmoniylar kimga yordam uchun harbiy kuch jo‘natgan edi?

A) Abdullaxon II ga

B) Abdulmo‘minga

C) Ko‘chkinchixonga

D) Navro‘z Ahmadga

17. Nima sababdan Sulton Muhammad Xorazmga kelgan Chingizzon elchisini o‘ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo‘yovlarini qirib, qaytarib yuborishni buyurgan?

A) Chingizzonning Sulton Muhammadni G‘arbning sohibqironi, o‘zini esa Sharqning podshosi deb hisoblagani uchun

B) Chingizzon Sulton Muhammadni qudratlri podshoh sifatida bilib, uni o‘zining eng ardoqli o‘g‘illari qatorida ko‘rishini bildirgani uchun

C) Chingizzon Sulton Muhammaddan karvonni talagan O‘tror hokimini tuttirib, uning ixtiyoriga jo‘natishni talab qilgani uchun

D) Chingizzonning musulmon savdogarlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalangani uchun

18. Ma’lumki, universitet shahar ma’muriyati bilan kelishmay qolib, boshqa shaharga ko‘chib ketsa, ma’muriyat ularni uzr so‘rab chaqirib olgan. Bunga sabab nima edi?

A) ilm ahlining ixtirolari shahar hokimiyati uchun muhim bo‘lgan

B) universitet to‘laydigan soliq shahar xazinasiga katta foyda keltirgan

C) o‘z universitetiga ega bo‘lish har bir shahar uchun sharaf bo‘lgan

D) ularning ichida hukumat boshliqlarining farzandlari bo‘lgan

19. O‘zini “butun mamlakatning onasi” deb e’lon qilgan hukmdorni aniqlang.

A) Yelizaveta I B) Turkon xotun C) Sisi

D) Yekaterina II

20. Eron shohi Nodirshoh nima maqsadda eronlik jangchilarni oilalari bilan Kobulga ko‘chirgan edi?

A) Eronda aholining ko‘payishi

B) Afg‘onistonning ko‘pchilik aholisi qirilib ketganligi

C) O‘rtta Osiyoga yirishga tayanch vosita bo‘lish uchun

D) Afg‘onistonni itoatda saqlab turush uchun

21. XIX asrning oxirlariga kelib qaysi Afrika davlatlari o‘z mustaqilliklarini saqlab qolgan edi?

- A) Transvaal, Oranj
- B) Gana, Mali, Misr
- C) Tunis, Marokash
- D) Efiopiya, Liberiya

22. Shotlandiyalik dengizchi A. Selkrikning hayoti, sarguzashtlari haqida qaysi yozuvchi asar yozgan edi?

- A) J. Swift
- B) F. Shillir
- C) P. Bomarshe
- D) Daniel Defo

23. Yaponiya hukumati quyidagi qaysi masalaga chet davlatlarining Yaponiya ichki ishlariga aralashuvi xavfidan himoya qiluvchi asosiy omil deb qaradi?

- A) Yaponiya xalqining imperator atrofida jipslashuvi
- B) zamonaviy armiya va flotga ega bo‘lish
- C) ishlab chiqarishni industrlashtirish
- D) Yaponiyani chet elliklar uchun yopib qo‘yish

24. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning Xorazm maqomlarini asrash haqidagi farmoni nechanchi yilda e’lon qilingan edi?

- A) 1878-yil
- B) 1869-yil
- C) 1898-yil
- D) 1882-yil

25. Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan allomalarini aniqlang.

- A) Fazliy va Ahmad Donish
- B) Munis va Ogahiy
- C) Amiriya va Fazliy
- D) Munis va Bayoniy

26. XIX asrga oid Tillashayx masjidi qaysi shaharda bunyod etilgan edi?

- A) Qo‘qon
- B) Buxoro
- C) Xiva
- D) Toshkent

27. Irredentizm – bu...

- A) irqiy shovinizm va burjua millatchiligining yahudiylar va boshqa millatlarga qarshi qaratilgan reaksiyon harakat
- B) ajralib chiqishga intilish
- C) jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida cherkov va ruhoniylarning yetakchilik mavqeini ta’minlashga intiladigan diniy-siyosiy oqim
- D) Italiyaga qo‘shti bo‘lgan davlatlarda italyanlar qisman yashaydigan hududlarni qo‘shib olishni tarqib qiluvchi millatchilik harakati

28. Kim tomonidan “uch K” (Keyptaun, Qohira, Kalkutta) temiryo‘li qurish g‘oyasi ilgari surilgan?

- A) Askvit
- B) Parnell
- C) Sesil Rods
- D) B. Dizraeli

29. 1868-yil tashkil qilingan Zarafshon okrugining markazi qaysi shahar bo‘lgan?

Javob: _____

30. Qaysi sana O'zbekiston Respublikasida Matbuotchilar va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanadi?

Javob: _____

31. XIX asr ikkinchi yarmida Toshkentning nechta darvozasi bo'lgan?

Javob: _____

32. XX asr boshlarida Xivada bunyod etilgan minora – bu ...

Javob: _____

33. Hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatriga kim asos solgan?

Javob: _____

34. Bismarkning katolik cherkovi ta'siriga qarshi qo'llagan tadbirdari "Kultur kampf" degan nom oldi. "Kultur kampf" so'zining ma'nosi nima?

Javob: _____

35. Qaysi davlat arbobi "temir kansler" laqabi bilan nom chiqargan?

Javob: _____

36. Shoh Ismoil va Shayboniyxon o'rtaisdagi jang qaysi shahar yaqinida ro'y bergan edi?

Javob: _____

37. Qaysi rus elchisi Buxoroda 3,5 yil turgan edi?

Javob: _____

38. Ma'lumki, VII asrning o'rtaida arablar Xurosonni bosib olib, o'z noiblarini tayinlaydilar. Bu viloyatni boshqaruvchi noib qaysi shaharda turgan?

Javob: _____

39. Qadimgi rimliklarning shohona koshonalari – uy-joylari qanday nomlangan?

Javob: _____

40. Arab xalifaligining Qurdoba amirligi hozirgi qaysi davlat hududida tashkil qilingan edi?

Javob: _____

KHK va Akademik litsey bitiruvchilari hamda 11-sinf o'quvchilari uchun test topshirig'i

1. Xitoydagagi podsholiklar tartib bilan keltirilgan qatorni toping?

A) Shan, Chjou, Ko'p podsholiklar, Sin, Xan, Suy, Tan, U Day, Sun, Yuan, Min

B) Shan, Sin, Ko'p podsholiklar, Chjou, Xan, U Day, Suy, Sun, Min, Yuan, Tan

C) Shan, Chjou, Ko'p podsholiklar, Xan, Sin, Sun, Tan, U Day, Suy, Yuan, Min

D) Sin, Shan, Chjou, Xan, Ko'p podsholiklar, Suy, Tan, U Day, Sun, Yuan, Min

2. Xammurapi qonunlarini odamlar nima sababdan so'zsiz, og'ishmasdan bajarishlari talab etilar edi?

A) chunki u nomigagina podsho qarori bo'lmasdan, xudoning xohish-irodasi sifatida talqin etilgan

B) chunki u faqat hukmdorning shaxsiy ko'rsatmasi emas, balki xalqning talablari asosida tuzib chiqilgan edi

C) qonunlar mukammal tuzilgan bo'lib, hech qanday fikr-mulohazaga o'rinn qoldirmagan

D) bu qonun o'zidan ilgari yaratilgan barcha qonunlarning faqat ijobjiy tomonlarini o'zida aks ettirgan edi

3. Quyidagi allomalarning yashagan yillariga qarab ketma-ketlikda joylashtiring.

1) Gerodot; 2) Sim Syan; 3) Strabon; 4) Arrian; 5) Kvint Kursiy Ruf; 6) Polien.

A) 1, 6, 2, 3, 5, 4

B) 1, 2, 4, 3, 6, 5

C) 2, 1, 6, 3, 5, 4

D) 1, 2, 3, 6, 5, 4

4. Xorien – bu ...

A) yunon-makedon qo'shirlari bosqini davrida Hisor tog'idiagi qal'alardan birining hukmdori

B) Doro I hukmronligi davrida saklarning forslarga qarshi kurashi haqida yozib qoldirgan tarixchi

C) Kir II ga qarshi kurashgan Marg'iyona sarkardasi

D) Aleksandr Makedonskiyning Maroqandada qoldirgan garnizoni qo'mondoni

5. O'rta asrlarda Hindistonda nufuzli zodagonlarga yerlar "grass" tarzida in'om qilinib, "grass" olgan kishiga qanday vazifa yuklangan?

A) yerni dehqonlarga bo'lib berishi kerak

B) harbiy xizmatga hamisha tayyor turishi kerak

C) yerni, albatta, ishlatishi shart

D) buddaviylik dinini qabul qilishi

6. 718-yilda Xitoya sovg'a tariqasida dubulg'a yuborilishi natijasida ...

A) Xitoy qurolozлari dubulg'adan nusxa olib, qo'shinni temir qalpoq bilan ta'minladi

B) Xitoy hukumati bilan tinchlik aloqalari yo'lga qo'yildi

C) O'rta Osiyo bozorlariga ipak mahsulotlarining kirib kelishiga zamin yaratildi

D) misdan to'qilgan Xitoy sovtlari O'rta Osipyoga keltirila boshlandi

7. Arab tarixchilari Ibn Xavqal va Istaxriylarning qayd etishicha ...

A) Toshkent arkining 2 ta, shahristonning 4 ta, ichki rabotning 7 ta, tashqi rabotning 10 ta darvozasi bo'lgan

B) Toshkent arkining 3 ta, shahristonning 2 ta, ichki rabotning 10 ta, tashqi rabotning 6 ta darvozasi bo'lgan

C) Toshkent arkining 10 ta, shahristonning 2 ta, ichki rabotning 3 ta, tashqi rabotning 7 ta darvozasi bo'lgan

D) Toshkent arkining 2 ta, shahristonning 3 ta, ichki rabotning 10 ta, tashqi rabotning 7 ta darvozasi bo'lgan

8. Birinchi marta mahalliy aholini islom diniga kiritish maqsadida masjidga kelib ibodat qiluvchular uchun ikki dirhamdan pul hadya etishni joriy qilgan xalifalik noibini aniqlang.

A) Ubaydulloh ibn Ziyod

B) Qutayba ibn Muslim

C) Nasr ibn Sayyor

D) Said Xaroshiy

9. Marafon jangidan 10 yil o'tgach – ...

1) Ahamoniylar davlatida Kserks hukmronligi boshlandi; 2) Plateya shahri yaqinida yunonlar tomonidan forslar qo'shini tor-mor keltirildi; 3) Fermopil jangi bolib o'tdi; 4) Marg'iyonada forslarga qarshi qo'zg'olon boshlandi; 5) Sparta va Afina o'rtasidagi Peloponnes urushi boshlandi; 6) Kserks juda katta qo'shin bilan Yunonistonga bostirib kirdi; 7) yunonlar va forslar o'rtasida Salamin bo'g'ozida hal qiluvchi dengiz jangi bo'lib o'tdi; 8) Leonid boshchiligidagi "Uch yuz spartaliklar jasorati" sodir bo'ldi

A) 1, 5, 8 B) 3, 6, 7, 8 C) 2, 4, 6, 7 D) 2, 6, 8

10. Yunonlar Olimp tog'ida yashaydigan o'z xudolarini qanday xarakterda deb hisoblashgan?

A) qizg'anчиq va shafqatsiz, kunini bazmda o'tkazadi deb hisoblashgan

B) mehribon va oqko'ngil, insonlarni har qanday gunohi uchun ham kechiradi deb hisoblashgan

C) qo'rqinchli va bahaybat, kichik xatoni ham shafatsizlik bilan jazolaydi deb hisoblashgan

D) hiylakor va ayyor, shu bilan birga, rahmdil, insonlarga yordam beradi deb hisoblashgan

11. Ma'lumki, mil.avv. 337-yil Korinfda yunon shahar-davatlari o'zaro tinchlik haqida shartnoma tuzishadi. Unga ko'ra, ular o'rtasidagi barcha ixtiloflarni hal etish vazifasi kimga yuklatilgan?

A) Makedoniya hukmdoriga

B) Yunon-shahar davatlari kengashiga

C) Afina dengiz ittifoqiga

D) Filipp II ning o'ziga

12. Arablarga qarshi ko'tarilgan qaysi qo'zg'olon natijasida shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan arab istilochilar katta o'lpon va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilarga garovga berish orqali jon saqlaydilar?

A) Muqanna qo'zg'oloni

B) 720-yilgi G'urak va Divashtich qo'zg'oloni

C) 750-yilgi Buxoro vohasi qo'zg'oloni

D) Rofe ibn Lays qo'zg'oloni

13. O'rta asrlarda mavjud bo'lgan mayorat udumining mohiyati nimadan iborat?

A) ruhoniylarning indulgensiya yozish bilan shug'ullanganligi

B) katolik cherkovi ruhoniylariga uylanishning taqiqlanishi

C) feodal merosining kichik o'g'ilga qoldirilishi

D) feodal merosining faqat katta o'g'ilga qoldirilishi

14. Quyidagi qo'zg'olon rahbarlaridan qaysi biri mag'lubiyat natijasida o'z joniga qasd qilgan?

A) Tantiya Topi B) Lakshmi Bay

C) Migel Idalgo D) Xun Syu syuan

15. Quyidagi qaysi sahna asari Fransiya qiroli Lyudovik XVI ga yoqmagan va u g'azab bilan "buni sahnada qo'yish uchun Bastiliyani vayron qilish kerak", degan edi?

A) "Gulliverning sayohati"

B) "Figaroning uylanishi"

C) "Siveliya sartaroshi"

D) "Insoniy komediya"

16. Shayboniyxonning O'rta Osiyo shaharlarini bosib olishdagi ketma-ketlikni ko'rsating?

A) Shohruxiya, Farg'ona, Urganch, Hirot

B) Samarqand, Urganch, Toshkent, Buxoro

C) Farg'ona, Shohruxiya, Qunduz, Urganch

D) Samarqand, Buxoro, Hirot, Farg'ona

17. Quyidagi qaysi omil qoraqalpoqlarni Eron shohi Nodirshoh hujumidan saqlab qolgan?

A) qoraqalpoqlarning Kichik juz xonligi tarkibiga kirganligi

B) qish mavsumining boshlanib qolishi va eronliklarning sahro yurishidan voz kechishi

C) qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga o'tganligi

D) Eronda boshlangan qo'zg'olon va Nodirshohning o'z vataniga qaytib ketishi

18. Ma'lumki, 1804-yil marvliklar Dinnosirbek boshchiligidagi qo'zg'olon ko'targan edi. Qo'zg'olon rahbari Dinnosirbekning maqsadi nimadan iborat bo'lgan?

A) Eron shohi yordamida Buxoro taxtini egallash

B) markazi Marv bo'lgan amirlikdan mustaqil bo'lgan davlat tashkil qilish

C) Xiva xoni Eltuzar yordamida oliy hokimiyatni egallab olish

D) Amudaryo o'ng sohilidagi yerlarni bosib olish

19. XIX asr oxirlarida AQSH iqtisodiy hayotini nazorat qilib turgan "katta uchlik" oilalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi.

1) Rotshildlar; 2) Morgan; 3) Dyupon; 4) Karnegi; 5) Garriman;

6) Rokfeller.

A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 5

D) 3, 4, 6

20. 1871-yilda tuzilgan Germaniya Imperiyasiga 22 monarxiya va 3 erkin shahar kirgan. Ushbu shaharlar to'g'ri berilgan javobni ko'rsating?

A) Veymar, Gamburg, Drezden

B) Drezden, Lyubek, Myunxen

C) Bremen, Gamburg, Lyubek

D) Frankfurt, Berlin, Gamburg

21. O'zaro janjal va tortishuvlardan so'ng 1895-1896-yillarda quyidagi qaysi davlatlar Buyuk Markaziy Amerika Respublikasi bo'lib birlashdilar?

A) Nikaragua, Kuba, Kosta-Rika

B) Gonduras, Nikaragua, Salvador

C) Panama, Kosta-Rika, Gonduras

D) Gaiti, Gonduras, Salvador

22. Abdumalik to'ra nima sababdan afg'on hukmdoridan chor hukumatiga qarshi kurash uchun yordam ololmadi?

A) Afg'on amiri Amir Muzaffar bilan nizo kelib chiqishini xohlamagan

- B) Sheralixon inglizlar bilan bo'lajak to'qnashuvda Rossiyadan yordan olishga umidvor edi
- C) Afg'on amiri Sheralixon bu paytda Eron bilan bo'lajak urushga tayyorgarlik ko'rayotgan edi
- D) Afg'on hukmdorining yordam berishga imkoniyati yetmas edi
23. Zirabuloq jangida mag'lubiyatga uchragan Buxoro amirligi Rossiyaga qancha miqdorda tovon to'lash majburiyatini oldi?
- A) 500 ming rubl
- B) 2,2 mln. rubl
- C) 600 ming rubl
- D) 1,5 mln. rubl
24. Xorazm an'anaviy teatridda ikki turkum tomoshalar bo'lib, ular ...
- A) oddiy xalq tasviri va saroy ahli tasviridan iborat bo'lgan
- B) qo'g'irchoq va kattalar teatrlardan iborat bo'lgan
- C) kulguli va xatarli o'yinlardan iborat bo'lgan
- D) zamonaviy va qadimgi o'yinlardan iborat bo'lgan
25. O'zbekistonda 1934-yilda qanday voqeа sodir bo'ldi?
- A) Katta Farg'ona kanali qurilishi yakunlandi
- B) qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish yakunlandi
- C) Rassomlar uyushmasi tuzildi
- D) Yozuvchilar uyushmasi tuzildi
26. Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zolarini ular egallagan lavozimlari bilan to'g'ri berilgan javobni toping.
- 1) Muhammadjon Tinishboyev; 2) Hidoyatbek Yurg'uli Agayev; 3) Mustafo Cho'qayev; 4) Ubaydulla Xo'jayev
- a) Harbiy vazir; b) Tashqi ishlar vaziri; c) Ichki ishlar vaziri; d) Yer va suv boyliklari vaziri
- A) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
- B) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b
- C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a
- D) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qachon tashkil qilindi?
- A) 1993-yil sentabr B) 1994-yil dekabr
- C) 1995-yil sentabr D) 1996-yil dekabr
28. 1992-yilning 8-dekabrigacha Mustaqil O'zbekiston Respublikasining vaqtinchalik konstitutsiyasi vazifasini bajargan hujjatni aniqlang.
- A) "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun
- B) "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida Oliy Kengash bayonoti"
- C) "O'zbekistonning mustaqillik deklaratsiyasi"
- D) "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil oktabrdagi Farmoni bilan ...

- A) Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tashkil etildi
 B) "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" qonun qabul qilindi

- C) "O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qilindi
 D) "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risida" qaror qabul qilindi

30. 1936-yil avgust oyida Londonda Angliya tashabbusi bilan qanday bitim imzolangan edi?

- A) Yevropa mamlakatlarining Ispaniya ishlariga aralashmasliklari to'g'risida
 B) Yevropa mamlakatlarining Germaniya ishlariga aralashmasliklari to'g'risida
 C) Yevropa mamlakatlarining Yaponiya ishlariga aralashmasliklari to'g'risida
 D) Yevropa mamlakatlarining Uzoq Sharq ishlariga aralashmasliklari to'g'risida

31. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishini eslang! U mil.avv. 329-328-yil qishini qaysi shaharda o'tkazgan edi?

Javob: _____

32. Qo'lida shohbozlochin tutgan tojdor tasviri so'qilgan tanga qaysi manzilgohdan topilgan?

Javob: _____

33. "Uch yuz spartaliklar jasorati", degan nom bilan tarixga kirgan jangni aniqlang.

Javob: _____

34. Yaponiyada inqilobdan so'ng qo'shin zamonaviy qurollar bilan ta'minlanishi uchun qaysi davlatdan mutaxassislar taklif qilinadi?

Javob: _____

35. Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?

Javob: _____

36. Qaysi shaxsnинг erishgan g'alabalaridan so'ng u haqida "Qit'aning kalitlari uning belida osig'liq" deb yozilgan?

Javob: _____

37. 1990-yilda Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan yodgorlik ...? Javob:

38. BMT qachon Falastinni bo'lib olish to'g'risida qaror qabul qildi?

Javob: _____

39. Asrlar davomida Xorazm vohasini tuz bilan ta'minlab kelayotgan tuz koni o'mida qurilgan suv omborini aniqlang?

Javob: _____

40. O'zbekistonda eng oxirgi bo'lib tashkil etilgan siyosiy partiya - ...

Javob: _____

Test topshiriqlarining javoblari:

9-sinf

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----

B	A	A	B	C	D	D	B	D	B	C	C	B	D	A	D	C	C	C
20	21	22	23	24	25	26	27	28										
D	D	D	D	D	B	D	D	C										

- 29) Samarqand; 30) 27-iyun; 31) 12 ta; 32) Islomxo‘ja minorasi;
 33) Mannon Uyg‘ur; 34) madaniyat uchun kurash; 35) Bismark; 36) Marv; 37) Beneveni; 38) Marv; 39) villalar; 40) Ispaniyada.

11-sinf (KHK va AL 3-kurs)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
A	A	A	A	B	A	D	B	B	A	B	B	D	D	B	A	C	C	B
20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30								
C	B	B	A	C	D	A	C	A	A	A								

- 31) Baqtrada; 32) Anqaqal’adan; 33) Fermopil jangi; 34) Fransiyadan;
 35) 1865-1868-yillar; 36) Oliver Kromvelning; 37) Ichangal’a; 38) 1947 yil; 39) Tuyamo‘yin; 40) O‘z LDP.

**O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-ME'MORIY INSHOOTLARNING
HUDUDLAR MISOLIDAGI RO'YXATI**

SAMARQAND VILOYATIDA:

Inshootning nomi	Qurilgan davri
Qadimgi Afrosiyob manzilgohlari	Mil. avv. VIII
Shohi Zinda ansamblı ("Tirik shoh", 11 ta maqbaradan iborat)	VIII -?
Shohizinda. Qusam ibn Abbos Qabrtoshi	VIII asr
Imom al-Buxoriy maqbarasi	X asr - ?
Imom al-Moturidiy maqbarasi	XII asr - ?
Ruhobod maqbarasi	1380
Bibixonim jome' masjidi	1399-1404
Ulug'bek madrasasi	1417-1420
Ulug'bek rasadxonasi	1424-1429
Ulug'bek xonaqohi	1424
Cho'pon Ota maqbarasi	1430-1440
Abdulaziz Mirzo madrasasi	1434-1435
Abdurahim Sadr madrasasi	1515-1516
Abusaid madrasasi	XVI asr
Ko'kaldosh Juma masjidi	1430
Amir Temur maqbarasi	1404
Ishratxona maqbarasi	1464
Xoja Ahror (Safed) madrasasi	1456
Oqsaroy maqbarasi	1470
Shayboniyxon madrasasi	1515-1516
Sherdor madrasasi	1619-1636
Tillakori madrasasi-masjidi	1646-1660
Namozgoh masjidi	XVII asrlar
Hoja Abdu Dorin qabristoni	XV-XIX asrlar
Xoja Ahror ansamblı	XV-XX asrlar
Chorsu bozori	XVIII asr oxiri
Hazrat Xizr masjidi	XIX asr o'rtalari

FARG'ONA VILOYATIDA:

Inshootning nomi	Qurilgan davri
Xo'ja Mag'iz maqbarasi (Marg'ilon)	XVIII asrning birinchi yarmi
Madrasayi Xonxoja eshon	1789
Madrasayi Miyon hazrat	1795
Madrasayi Mohlaroyim	1795

Madrasayi Hakim To'ra	1795
Norbo'tabiy madrasasi	
(xalq orasida Madrasayi Mir)	1798
Pir Siddiq majmuasi (Kaptarlik)	XVIII asr o'rtalari
Saidahmad Xoja eshon madrasasi	XIX asr oxiri
Andijon Jome' masjidi	1874-1877
Madrasayi Buzrukxoja	1801
Madrasayi Jome'	1817
Madrasayi Kamol qozi	1820
Madrasayi Mingoyim	1802
Madrasayi Oxun devonbegi	1805
Madrasayi Xojabek	1805
Madrasayi Pirmuhammad yasovul	1802
Madrasayi Tunqotar	1825
Madrasayi Haqquli mingboshi	1825
Madalixon madrasasi	1820
Sulton Murodbek madrasasi	1872
Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi	1861-1862
Hakim Oyim (Xudoyorxon onasi)	1869-1870
Xudoyorxon o'rdasi	1863-1870
Xoja Dodxoh madrasasi	XIX asr
Chokar masjidi (Marg'ilon)	XX asr boshlari
Toron bozor masjidi (Marg'ilon)	XX asr boshlari

BUXORO VILOYATIDA:**Inshootning nomi**

Ismoil Somoni maqbarasi
 Bayonqulixon maqbarasi
 Raboti Malik
 Sayfiddin Boxarziy
 Vobkent minorasi
 Buxoro namozgohi – Qoraxoniylar
 sulolasining yozgi qarorgohi
 o'rniда barpo etilgan
 Mag'oki Attori masjidi

Minorai Kalon

Abdulazizzon qurdirgan koshinli xonaqoh
 Abdullaxon timi, chorsusi
 Abdullaxon madrasasi
 Abduxoliq G'ijduvoniy maqbarasi
 Govkushon madrasasi
 Do'stum madrasasi

Qurilgan davri

892-943
 XII asr
 XI-XII asr
 XII asr
 1196-1198
 1119
 1127-yil va XV asr, 1549-yilda
 qayta ta'mirlangan
 1127
 1549
 1577
 1577-1578
 XVI asr
 1580
 1585

Karmanadagi hazrati Qosimshayx xonaqohi	1559
Ko‘kaldosh madrasasi	1568-1569
Masjidi Kalon	1540-1541
Mir Arab madrasasi	1535-1536
Modarixon madrasasi	1581
Oyposhsha oyim madrasasi	1581
Timi Kalon	1582
Toqi Zargaron (forscha – <i>zargarlar toqi</i>)	1559
Toqi Sarrofon, Toqi Kitobfurushon	1554-1580
Fayzobod xonaqohi	1585
Fathulla qo‘shebegi madrasasi	1586
Nodirdevonbegi madrasasi va xonaqohi	1620
Labi hovuz ansamblı	XVII-XVIII asrlar
Abdullazizxon madrasasi (qo‘she imoratli)	1652 (1657-1662)
Ernazar elchi madrasasi	1796
Xalifa Xudaydod imoratlar silsilasi	1777-1855
Chorminor (xalifa Niyozquli madrasasi)	1807
Sitorai Mohi Xosa	XIX asr oxiri – 1914

Buxoroda XVII-XX asrlarda 103 ta madrasa, 360 ta masjid, 83 ta hovuz mavjud bo‘lgan.

XORAZM VILOYATIDA:

Inshootning nomi	Qurilgan davri
Faxriddin Roziy, Sulton Takash maqbarasi (Ko‘hna Urganch)	XII asr
Najmiddin Kubro maqbarasi (Ko‘hna Urganch, hozirgi Toshhovuz)	XIII-XIV asr
Arab Muhammadxon madrasasi	1616
Juma masjidi	XVIII asr oxiri
Sherg‘ozixon madrasasi	1728
Muhammad Amin madrasasi	1765
Qozi Kolon madrasasi	XIX asr oxiri – XX asr
Qoroqum Eshon madrasasi	XIX asr
Qutlug‘ Murod Inoq madrasasi	1809
Qutlug‘ Inoq madrasasi	1812
Musa To‘ra madrasasi	1840
Muhammad Amin Inoq madrasasi	1805
Muhammad Aminxon madrasasi	1851-1855
Amir To‘ra	1870
Muhammad Rahimxon madrasasi	1871
Ollohqulixon karvonsaroyi va bozor	1835
Ollohqulixon madrasasi	1834

Otajonboy	1884
Pahlavon Mahmud maqbarasi	1810, 1835
Polvon ota maqbarasi	1810-1913
Sayidboy madrasasi	1842
Solihboy Masjidi	1842
Toshhovli saroyi	1838
Tosh darvoza (Xivada)	XIX asr
Rahmonquli Inoq saroyi	1832-1841
Nurullaboy saroyi (Rahimxon II)	1904-1912
Salim Oxun madrasalari	1905
Islomxo'ja minorasi	1908-1910

QASHQADARYO VILOYATIDA:

Inshootning nomi

Shermuhammadbiy madrasasi
 Charmgar masjidi
 Xo'ja Qurbonbiy madrasasi

Shahrисабзда mo'g'ul xoni Kebekxon qasr qudirgan (XIV asr boshi), qal'a imoratini esa Sohibqiron Amir Temur bunyod etgan (XIV asr oxiri). Qo'rg'onga 4 ta: shimoliy sharqdan – Xiyobon; janubiy g'arbdan – Po'tak, Sharshara; shimoliy g'arb tomonidan – Qarliq kabi darvozalaridan kirilgan. Qo'rg'onning shimoliy va janubiy tomonlaridagi Buzkurobod va Sharshara markazida Registon markazi joylashgan. Amir Temur bu yerda Odina masjidini qudirgan. Qashqadaryo ustidagi Ko'hna ko'prik, Sharafboy, Bektemir hoji Abdulaziz, Qilichboy madrasalari, Chakar masjidi mavjud. Oqsaroy (1380 – XV asrning 70-yillari) – Shahrисабздаги me'moriy yodgorlik hisoblanadi.

Qurilgan davri

XVIII asr boshlarida
 XIX - XX asrlar
 XVIII asr boshlarida

TOSHKENT SHAHRIDA:

Inshootning nomi

Zangi ota me'moriy majmuasi
 Baroqxon madrasasi
 Ko'kaldosh madrasasi
 Zayniddin bobo maqbarasi
 Shayx Hovandi Tohur
 ansamblidagi maqbaralar
 Laylak qo'ndi masjidi
 Suzuk ota masjidi
 Cho'pon ota majmuasi
 O'g'il bolalar gimnaziyasi
 Toshkent Real o'g'il bolalar bilim yurti
 Tillashayx masjidi
 Abulqosim madrasasi
 Xo'ja Alambardor maqbarasi

Qurilgan davri

XIV-XV asr boshi
 XVI asr
 1551-1572
 XVI asr
 XV-XIX asr
 1775-1780
 XVIII asr oxiri – XIX asr boshi
 XVIII – XX asrlar
 1878
 1896
 1890-1902
 XIX asr (1850)
 XIX asr

Muin Xalfa bobo maqbarasi

XIX asr

**O'RTA OSIYODA MA'LUM MUDDAT O'Z HUKMRONLIGINI
O'R NATGAN DAVLATLAR VA SULOLALAR**

Ahamoniylar podsholigi

(Eramizdan avvalgi VI-IV, Poytaxti: Suza, Persepol):

Kir II	558-530
Kambiz II	530-522
Doro I	522-486
Kserks	486-465
Artakserks	465-424
Kserks II	424
Sekudian	424-423
Doro II	423-404
Artakserks II	404-358
Artakserks III	358-338
Arses	338-336
Doro III	336-330
Artakserks IV (asl ismi Bess)	330-329

Makedoniyalik Iskandar imperiyasi
(poytaxti: Bobil) 329-312

Salavkiylar davlati

(poytaxti: Bobil, Marg'iyona Antoxiyasi) 312-64

(O'rta Osiyoda mil.avv. 250-yilgacha)

Salavka I Nikator	312-280
Antiox I Soter	280-260
Anteox II Teos	260-246
Salavka II Kalllinik	246-226
Salavka III Soter	226-223
Antiox III	223-187
Salavka IV Filopator	187-175
Antiox IV Epifan	175-163
Antiox V Yevpator	163-162
Demetriy I Soter	162-150
Aleksandr Balas	150-145
Demetriy II Nikator	145-139
Antiox VII Sidet	139-129
Demetriy II Nikator	129-125 (2-marta)
Salavka V	125
Antiox VIII Grip	125-96
Antiox IX Kizikskiy	115-95 (ba'zi hududlarda)

Antiox III Aziatskiy

69-64

Yunon-Baqtriya davlati

(Diodot podsho, poytaxti: Baqtra) Mil. avv 250-140-130-yillar

Diodot	250-230
Yevtidem	230-199
Demetriy	199-167
Yevkradit	185-171 (ba’zi hududlarda)
Geleokl	171-155

Qang‘ (Kanguy) davlati

(poytaxti: Qang‘dez) Mil. avv. III asr – Mil. III

Dovon (Parkana, Farg‘ona) davlati

(poytaxti: Ershi) Mil. avv. III asr – Mil. II

Kushon podsholigi

(poytaxti: Dalvarzintepa, Peshovar; I-IV asrlar)

Kudzula Kadfiz	15-51
Vima Kadfiz	51-78
Kanishka	78-123
Vasishka	123-127
Xuvishka	127-159
Vasudeva I	159-193
Kanishka III	193-222
Vasudeva II	222-244

O‘RTA ASRLARDAGI DAVLATLAR

Xioniylar davlati (poytaxti: Poykand)	IV asr o‘rtalari – V asr oxiri
Kidariylar davlati (poytaxti: Balx)	V asr 20-yillari – 456-yil
Eftallar davlati (poytaxti: Balx)	IV asr 2-yarmi – 567-yil
Turk xoqonligi (poytaxti: Oltoy, Yettisuv)	551 – VIII asr
Turk xoqonligining Sharqiylar va G‘arbiy turk xoqonliklariga bo‘linib ketishi	588-yil

ARAB XALIFALIGI (632-1258-yillar)**To‘rt xalifa (poytaxti: Madina):**

Abu Bakr	632-634
Umar ibn Xattob	634-644
Usmon ibn Affon	644-656
Ali ibn Abu Tolib	656-661

Umaviylar sulolası (poytaxti: Damashq):

Muoviya I ibn Abu Sufyon	661-680
Yazid I	680-683
Muoviya II	683-684
Marvon I ibn Hakam	684-685
Abdumalik	685-705
Volid	705-715
Sulaymon	715-717
Umar ibn Abdulaziz	717-719
Yazid II	719-724
Hishom	724-743
Bolid II	743-744
Yazid III	744
Ibrohim	744
Marvon II Himor	744-750

Abbosiylar sulolasi (poytaxti: Bag'dod):

Abul Abbos Sahhof	750-754
Mansur	754-775
Mahdiy	775-785
Hodiy	785-786
Horun ar-Rashid	786-809
Amin	809-813
Ma'mun	813-833
Mu'tasim	833-842
Vosiq	842-847
Mutavakkil	847-861
